

TDIU HUZURIDAGI
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI

O'QUV USLUBIY MAJMUA



TOSHKENT-2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI**

**JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO
IQTISODIY MUNOSABATLAR
yo'nalishi**

**«XALQARO MOLIYA BOZORI VA
INSTITUTLARI»
moduli bo'yicha**

**O' Q U V – U S L U B I Y
M A J M U A**

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

- Tuzuvchilar:** Ismailova N.S. – TDIU, “Jahon iqtisodiyoti” kafedrasi mudiri, dotsent, iqtisod fanlari nomzodi;
Tojiev R.R. – TDIU, “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.
- Taqrizchi:** Islomov B.A. – G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyotuniversitetining Toshkent filiali professori, iqtisod fanlari doktori

O'quv-uslubiy majmua Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2022 yil 31 yanvardagi 6-sonli bayonnomma qarori bilan ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	13
III. MA'RUZA MATNLARI.....	19
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	116
V. BITIRUV ISHLARI UCHUN MAVZULAR.....	145
VI. KEYSLAR BANKI.....	147
VII. GLOSSARIY.....	150
VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	154

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Mazkur ishchi dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022- 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2019 yil 27 avgustdagagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5544-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son va 2020 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4022-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktyabrdagi "2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi "Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta'lif sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiyligi malaka talablari va o'quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo'lib, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo'yicha so'nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta'lif jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lif xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga keng qo'llash bo'yicha tegishli bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Xalqaro moliya bozori va institatlari” fanining **maqsadi** – tinglovchilarda xalqaro moliya bozori va xalqaro moliya institutlarining global iqtisodiyotda tutgan o’rni, ularning mazmun-mohiyati, rivojlanish bosqichlari, tendentsiyalari va istiqbollari bo'yicha mavjud bo'lgan nazariy-amaliy bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni shakllantirishdan va shuningdek, moliyaviy globallashuv jarayoni muammolari, moliya bozorini tartibga solishdagi nazariy qarashlarni o'rgatishdan iborat.

Shu bilan birga, mazkur modul O'zbekiston moliya bozori segmentlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarga xalqaro moliya bozorlarida faoliyat yuritish hamda xalqaro moliya institatlari bilan manfaatli munosabatlar o'rnatishning asosiy sir-asrorlarini tushuntirishga muhim maqsad sifatida qaraydi.

Mazkur fanning vazifalari tinglovchilarga quyidagi yo'nalishlarda nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat:

- iqtisodiy va moliyaviy globalizatsiya jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni talqin qilish, kapitalning global migratsiyasi, to'lov balansi, tashqi qarz, xalqaro moliya bozori segmentlari xususiyatlari va qonuniyatlarini ochib berish;

- xalqaro moliya bozori segmentlari shakllanishi va rivojlanishi tarixi va shart-sharoitlarini singdirish, jumladan, xalqaro valyuta bozori, xalqaro kredit bozori, xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori, xalqaro investitsiyalar bozoridagi operatsiyalar va moliyaviy instrumentlar hamda xalqaro hosilaviy moliyaviy instrumentlar mexanizmini o'rgatish, shu bilan birga O'zbekiston moliya bozori segmentlari holati va rivojlanishini tatqiq etish;

- xalqaro moliya tashkilotlari, ularning shakllanishi tarixi va faoliyat ko'rsatish mexanizmi, xalqaro moliya bozorini tartibga solishda va rivojlantirishda xalqaro moliya tashkilotlarining ahamiyati, xalqaro moliya bozorida risklar va xalqaro reyting agentliklari faoliyati, O'zbekistonning xalqaro moliya tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli aloqalarini sababiy bog'liqlikda izohlash;

- transmilliy korporatsiyalar, ularning paydo bo'lishi va rivojlanishi, TMKlarning xalqaro moliya bozorida hamda O'zbekistondagi faoliyati xususiyatlari va tartibga solishning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini tushuntirib berish;

- xalqaro iqtisodiy, moliyaviy, bank, qarz va boshqa tur inqirozlar, ularning mohiyati va kelib chiqish sabablari, turli mamlakatlarda moliyaviy va boshqa turdag'i inqirozlarga qarshi choralar va dasturlar, O'zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish choralari mazmun-mohiyatini, kutilayotgan natijalarni mantiqiy ketma-ketlikda etkazishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarining bilimi, ko'nikma, malakasi va kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

“Xalqaro moliya bozori va institatlari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi

- xalqaro moliya bozorini;
- xalqaro moliya bozori segmentlarini;
- harakat qilish xususiyatlari va qonuniyatlarini;

- xalqaro moliya bozori segmentlari shakllanishi va rivojlanishi tarixini;
- xalqaro moliya tashkilotlarini;
- xalqaro valyuta bozorini;
- valyuta paritetini;
- O'zbekistonda valyuta kursiga ta'sir etuvchi muhim omillarni;
- Parij, Genuya va Bretton–Vuds valyuta tizimlarini;
- xalqaro kredit bozori tarkibiy tuzilishini;
- xalqaro kredit bozorida foiz stavkalarini;
- xalqaro fond bozorini;
- qimmatli qog'ozlar bozori turlarini;
- qimmatli qog'ozlar bozorining modellarini;
- Amerika va Evropa (G'arbiy) modellarini;
- qimmatli qog'ozlar fundamental xususiyatlarini;
- O'zbekistonda korporativ sektorning rivojlanishini;
- hosilaviy qimmatli qog'ozlarni;
- fyuchers va forward bozorlarining maqsadini;
- fyuchers bozorlarining asosiy risklarini;
- moliyaviy fyucherslar va ularning turlarini;
- option turlari savdosining o'ziga xos xususiyatlarini;
- indossamentga doir asosiy qoidalarni;
- tijorat banklari tomonidan veksellarning buxgalteriya hisobini;
- xalqaro moliya institutlarini;
- xalqaro valyuta fondini;
- jahon banki guruhini;
- mintaqaviy moliya tashkilotlarini **bilishi kerak.**

Tinglovchi

- xalqaro moliya bozori tizimini tahlil qilish;
- xalqaro moliya bozori segmentlari rivojlanish tendentsiyalari dinamikasini tahlil qilish;
- Yamayka valyuta tizimi va uni isloh etish;
- xalqaro valyuta bozoridagi asosiy operatsiyalarni tasniflash;
- xalqaro kredit bozorida kreditlarning asosiy shakllarining klassifikatsiyalash;
- faktoring, forfeyting, lizing, sindikatlashgan va loyihaviy kreditlash;
- O'zbekistonda xalqaro fond bozorini davlat tomonidan tartibga solish;
- qimmatli qog'ozlarni fundamental xususiyatlarini qiyoslash;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha sertifikatlashtirish;
- O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirish;
- O'zbekiston fond bozorida iqtisodiy agentlar faolligini jadallashtirish;
- Fyuchers va forward bozorlarini taqqoslash;
- Fyuchers va option bozorlarini tartibga solish;
- hosilaviy qimmatli qog'ozlar yordamida narxni oshirish;
- investorning rentabelligini shakllantirish;
- veksellarning domitsilyatsiya qilish;
- chegirma bilan sotilgan sertifikatlarning rentabelligini hisoblash;

- xalqaro moliya institutlarini farqlash;
- xalqaro valyuta fondi tuzilmasini tahlil qilish;
- xalqaro valyuta fondi kapitaliga qarz resurslarini jalb qilish;
- xalqaro moliya tashkilotlari Internet saytlaridan ma'lumot izlash, tegishli ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish **ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi kerak.**

Tinglovchi

- xalqaro moliya bozori segmentlarida milliy kompaniyalar va moliyaviy agentlarning samarali harakat qilish dasturlarini baholash, mazkur bozor segmentlarida hamda xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik borasida O'zbekistonning samarali ishtiroki yuzasidan tegishli ma'lumot bazasini yaratish va qarorlar qabul qilish **kompetentsiyalariga ega bo'lishi kerak.**

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Xalqaro moliya bozori va institatlari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'quv jarayonida ta'limning interfaol o'qitish metod, shakl va vositalari, pedagogik va axborot-kommunkatsiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarida “Aqliy hujum”, “Kutish yo'ldoshi”, “Kontseptual jadval”, “O'ylang-juftlikda ishlang-fikr almashing” kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalaridan;
- amaliy mashg'ulotlarda bahs-munozara, tushunchalar tahlili, aqliy hujum, keys, guruhlarda ishslash, SWOT-tahlil jadval, T-jadval kabi interfaol o'qitish metod, shakl va vositalarni qo'llash nazarda tutiladi.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Xalqaro moliya bozori va institatlari” modulini o'qitish jarayonida quyidagi innovatsion ta'lim shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida interfaol ma'ruzalarni tashkil etish;
- virtual amaliy mashg'ulotlar jarayonida keys, loyiha va assisment texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Xalqaro moliya bozori va institatlari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Xalqaro iqtisodiy munosabatlar” hamda “Jahon iqtisodiyotining globallashuvi” o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagisi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy va innovatsion horijiy ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo'llashga doir proekтив, kreativ va texnologik kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat			
		Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot
1	Xalqaro valyuta va kredit bozori	4	2	2	
2	Xalqaro fond (qimmatli qog'ozlar) bozori	8	2	4	2
3	Xalqaro hosilaviy moliyaviy instrumentlar (derivativlar) bozori	4	2	2	
4	Xalqaro moliya institutlari	6		4	2
	Jami:	22	6	12	4

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Xalqaro valyuta va kredit bozori

Xalqaro valyuta bozori: mohiyati, elementlari va funksiyalari. Xalqaro moliya bozori tizimida xalqaro valyuta bozorining o'rni. Xalqaro valyuta bozorining ishtiroychilari va tarkibi.

Xalqaro valyuta tizimlari evolyutsiyasi va inqirozlari. Oltin tanga va oltin deviz standartlari. Parij, Genuya va Bretton–Vuds valyuta tizimlari. Yamayka valyuta tizimi va uni isloh etish masalalari. Valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar. Valyuta pariteti. Valyuta xarid qobiliyati va foiz stavkasi pariteti. Xalqaro valyuta bozoridagi asosiy operatsiyalar va ularning tasnifi. Spot bozori. Muddatli valyuta bozori: tavsifi va operatsiyalari (forward, fyuchers, opcion va svop). Foreks operatsiyalari bozori. O'zbekistonning valyuta bozori va uning xalqaro valyuta bozoriga integratsiyasi. O'zbekistonda valyuta kursiga ta'sir etuvchi muhim omillar.

Xalqaro kredit bozori tarkibiy tuzilishi va ishtiroychilari. Xalqaro kredit bozorida kreditlarning asosiy shakllarining klassifikatsiyasi. Xalqaro kreditlashning zamonaviy shakllari: faktoring, forfeyting, lizing, sindikatlashgan va loyihaviy kreditlash. Xalqaro

kredit bozorida foiz stavkalari (LIBOR, EURIBOR, EONIA, MIBOR). Xalqaro kredit bozorining shakllanishi tendentsiyalari. Xalqaro moliya institutlari tomonidan xalqaro kreditlash mexanizmlari. Xalqaro kredit bozoridagi raqobat. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalqaro kredit resurslari jalb etish amaliyoti.

2-mavzu: Xalqaro fond (qimmatli qog'ozlar) bozori

Xalqaro fond (qimmatli qog'ozlar) bozori tushunchasi. Xalqaro fond bozorining funktsiyasi va roli. Xalqaro fond bozorining tarkibiy tuzilishi, fond indekslari, asosiy rivojlanish tendentsiyalari. Qimmatli qog'ozlar bozorlarining turlari. Birlamchi va ikkilamchi bozor: qimmatli qog'ozlarning birlamchi bozori va ularning xususiyatlari, ikkilamchi fond bozori.

Qimmatli qog'ozlar bozorining modellari. Amerika va Evropa (G'arbiy) modellari. Uzbekistonda XFBni davlat tomonidan tartibga solish. XBF reglamenti tushunchasi va maqsadlari. Birlamchi bozorni tartibga solish. Ikkilamchi bozorda davlat nazorati. Xalqaro fond bozorining asosiy instrumentlari. Federal, munitsipial va korporativ obligatsiyalar. Evroobligatsiyalar. Xorijiy obligatsiyalar. Global aktsiyalar. Depozitar tilxatlari.

Kimmatli kogoz tushunchasi. Qimmatli qog'ozlarning paydo bo'lish tarixi. Qimmatli qog'ozlarning tasnifi. Qimmatli qog'ozlarning klassik turlari va ularning xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar fundamental xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar va moliyaviy vositalarning turlari. Emission kimmatli qog'ozlar va emission bulmagan qimmatli qog'ozlar. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha sertifikatlashtirish va huquqlarni o'tkazish usullari. Tsessiya va indossament.

O'zbekistonda korporativ sektorning rivojlanishi va mamlakatning xalqaro fond bozoriga integratsiyasi. O'zbekistonda fond bozorini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va muammolari. O'zbekiston fond bozorida iqtisodiy agentlar faolligini jadallashtirish dasturlari.

3-mavzu: Xalqaro xosilaviy (derivativ) bozori

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasi, ularning investitsion sifatlari va turlari. Fyuchers va forward bozorlarining maqsadi. Forward xosilaviy bozori. Elektron tijorat va global fond birjalari o'rtaqidagi raqobat. Fyuchers bozori. Fyuchers va forward bozorlari o'rtaqidagi asosiy farqlar. Moliyaviy fyuchers shartnomalarining asosiy farklari. Fyuchers almashinushi. Fyuchers bozorlari ishtirokchilari. Fyuchers va option bozorlarini tartibga solish. Xedjing va spekuliyatsiya o'rtaqidagi farq. Fyuchers bozorlarining asosiy risklari.

Moliyaviy fyucherslar va ularning turlari. Optionlar turlari savdosining o'ziga xos xususiyatlari, investorlarning daromadining shakllanishi. Svoplar: investor daromadining tushunchasi, turlari va shakllanishi. Banklarning depozit va jamg'arma sertifikatlari: aylanmaga chikishning maqsadi va xususiyatlari. Investoring rentabelligini shakllantirish - bank sertifikati egasi. Yuk tashish hujjatlari. Konosament va konosamentning tasnifi. Optionsning ichki, vaqtincha qiymati va mukofotini aniqlash. Xosilaviy qimmatli qog'ozlar erdamida narxni oshirish va pasaytirish spekuliyativ o'yin asoslari. Repo operatsiyalari: asosiy tushunchalar.

Svoplar: valyuta va foiz stavkalari, narxlash tamoyillari. Hosilaviy moliyaviy bozorni tashkil etishning qiyosiy xususiyatlari. Uzbekistonda derivativlar bozorining rivojlanish muammolari va tendentsiyalari. Indossamentga doir asosiy qoidalar va indossantni javobgarligi. Birjaviy veksel protesti keltirishda zararni qoplash. Tijorat banklari tomonidan veksellarning buxgalteriya hisobi. Veksellarning domitsilyatsiya kilish. Forfeyting. Chegirma bilan sotilgan sertifikatlarning rentabelligini hisoblash.

4-mavzu: Xalqaro moliya institutlari

Xalqaro moliya institutlari: asosiy maqsadlari, funktsiyalari va vazifalari. Xalqaro moliya institutlari globalizatsiya lokomotivlari sifatida.

Xalqaro valyuta fondi: maqsadi va funktsiyalari, moliyalashtirish manbalari va faoliyati turlari. Xalqaro valyuta fondi strukturasi: Boshqaruv Kengashi, JB va XVF rivojlantirish bo'yicha qo'mita va Ijro kengashi tarkibi. XVFga a'zo davlatlar kvotasini ko'rib chiqish va hisoblash tartibi. XVF kapitaliga qarz resurslarini jalb qilish. XVF kreditlari: rezerv ulushi, "Stendbay" rezerv kreditlari, kreditlashning kengaytirilgan mexanizmi, egiluvchan kredit va preventiv qo'llab-quvvatlash va likvidlik liniyalari. XVF tomonidan ko'rsatiladigan texnik ko'mak yo'naliishlari. XVFning O'zbekistondagi texnik ko'maklashish missiyasi.

Jahon banki guruhi: Taraqqiyot va tiklanish butunjahon banki, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Butunjahon moliya korporatsiyasi, Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik, Investitsion bahslarni tartibga solishning xalqaro markazi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining tashkiliy strukturasi va funktsiyalari. To'lov va hisob-kitob kartalari bo'yicha qo'mita. Mintaqaviy moliya tashkilotlari: Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning (MDH, ShHT, EOII) moliya-kredit tuzilmalari va ularda O'zbekistonning ishtiropi tamoyillari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg'ulot.

Xalqaro valyuta va kredit bozori

Xalqaro valyuta bozori: mohiyati, elementlari va funktsiyalari. Xalqaro valyuta tizimlari: shakllanishi va rivojlanishi. Xalqaro moliya bozori tizimida xalqaro valyuta bozorining o'rni. XVBning ishtiropchilari va tarkibi. Valyuta kursi. Valyuta pariteti. Xalqaro valyuta bozoridagi asosiy operatsiyalar. Xalqaro valyuta bozori rivojlanishining zamонавиy tendentsiyalari. Dollar, Evro va Iena o'rtasidagi global muvozanat tendentsiyalari. Xalqaro valyuta bozori va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili. O'zbekistonning xalqaro valyuta bozoridagi ishtiropi. Xalqaro kredit: tushunchasi, funktsiyalari va roli. Xalqaro kredit bozorining tarkibiy tuzilishi, ishtiropchilari. Xalqaro kredit bozorida kreditlarning asosiy shakllari tasnifi. Xalqaro kreditlarning zamонавиy shakllari. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalqaro kredit resurslari jalb etish amaliyoti.

2-amaliy mashg'ulot.

Xalqaro fond (qimmatli qog'ozlar) bozori (2 soat)

Xalqaro fond bozori tushunchasi, uning funktsiyasi va tutgan o'rni. Xalqaro fond bozori tuzilmasi va ishtirokchilari. Xalqaro fond bozorining asosiy instrumentlari. Evroobligatsiya va depozitar tilxatlar. Xalqaro fond bozoridagi asosiy operatsiyalar.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Interaktiv", "Bumerang" usullari.

3-amaliy mashg'ulot.

Xalqaro hosilaviy moliyaviy instrumentlar (derivativlar) bozori

Xalqaro derivativlar bozorining umumiy xarakteristikasi. Derivativlar tushunchasi, funktsiyalari va ularning klassifikatsiyasi. Xalqaro derivativlar bozorining zamonaviy xususiyatlari. Xalqaro moliya bozori segmentlarida derivativlarning harakat xususiyatlari.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar: "Klaster", "Insert" texnikalari.

4-amaliy mashg'ulot.

Xalqaro moliya institutlari

Xalqaro moliya institutlari: asosiy maqsadlari, funktsiyalari va vazifalari. XMI globalizatsiya lokomotivlari sifatida. Xalqaro valyuta fondi: tashkiliy strukturasi, funktsiyalari, kreditlash mexanizmlari. O'zbekistonning XVF bilan o'zaro munosabatlari. Jahon banki guruhi: Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki. Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi. Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik va Investitsion bahslarni tartibga solishning xalqaro markazi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining tashkiliy strukturasi va funktsiyalari. Mintaqaviy moliya tashkilotlari: Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning (MDH, ShHT, EOII) moliya-kredit tuzilmalari va ularda O'zbekistonning ishtiroki tamoyillari.

KO'CHMA MASHG'ULOT

Mazkur modul bo'yicha o'quv rejada "Xalqaro fond (qimmatli qog'ozlar) bozori" hamda "Xalqaro moliya institutlari" mavzularida 4 soat ko'chma mashg'ulot rejalashtirilgan.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning nazariy materialini o'zlashtirishda quyidagi o'qitish shakllaridan foydalilanadi:

- davra suhbatlari (ko'rileyotgan loyiha echimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (loyihalar echimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar echimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

- Keng ko'lamlı suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga tinglovchilarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq

ifodalangan savollar; so'zga chiquvchi tinglovchilarni kuchli va kuchsiz tomonlariga diqqatlarini qarata olishi; ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi qirralarni o'sha vaqtning o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik tinglovchilarning savollarini muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi.

- **Press-konferentsiya.** Qisqa so'zga chiqishdan so'ng, birinchi savol bo'yicha ma'ruzachiga (agarda ma'ruzalar bir qator tinglovchilarga berilgan bo'lsa, o'qituvchining o'zi ulardan biriga so'z beradi) so'z beriladi. Shundan so'ng, har bir tinglovchi ma'ruza mavzusi bo'yicha unga savol berishi lozim.

- **Keyslarni (muammoli vaziyatlarni) echish.** Muammoli vaziyatlarni hal etish natijasida hosil bo'lган, mustaqil izlab topilgan dalillar, kasbiy ahamiyatli yo'nalishlarni izlashga va tasdiqlashga, kelgusidagi kasbiy faoliyati bilan bog'liqligini anglab etishga yordam beradi.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.

Muammoni jamoali tarzda hal etishning usullari va vositalari

Muzokaralar

Muzokaralar – aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlarining almashinushi.

Muzokaralarni o'tkazish jarayonining tuzilishi



Bahs

Bahs – o'z fikrini ifoda etishni xohlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama qilish, haqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Anjuman-bahsining roli

Olib boruvchi – o'rgatuvchi barcha vakolatlariga ega – bahs borishini boshqaradi, isbotlar va rad etishlarning dalilagini, tushuncha va atamalarning aniqligiga e'tibor qaratadi, muloqotning barcha qoidalarga munosib tarzda o'tishini kuzatadi.

Opponent – tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi. U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushinishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – nutq so'zlovchi va opponent fiklaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini aniqlaydi, dalillar va rad etishlarni va farazni oldinga surish haqqoniyligini tahlil qiladi.

Psixolog – mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalikda harakatlarni amalga oshirib, kelishuvga erishadi, bahsning mojaroga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ekspert – bahs usulining natijaviyligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, hulosalar haqqoniyligini baholaydi, aniq bir ishtirokchining qo'shgan hissasi to'g'risida fikrlarni bildiradi va boshqalar.

«Aqliy hujum»

Aqliy hujum (breystorming – miyalar bo'roni) – amaliy yoki ilmiy muammolarni hal etish fikrlarni jamoali generatsiya qilish usuli.

Aqliy hujum vaqtida ishtirokchilar murakkab muammoni birgalikda hal etishga intilishadi: ularni hal etish bo'yicha o'z fikrlarini bildiradi (generatsiya qiladi) va bu fikrlar tanqid qilinmasdan ular orasidan eng muvofiqi, samaralisi, maqbuli va shu kabi fikrlar tanlab olinib, muhokama qilinadi, rivojlantiriladi va ushbu fikrlarni asoslash va rad etish imkoniyatlari baholanadi.


Aqliy hujumning asosiy vazifasi – o'qib-o'rganish faoliyatini faollashtirish, muammoni mustaqil tushunish va hal etishga motivlashtirishni rivojlantirish, muloqot madaniyati, kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, fikrlash inertsiyasidan qutilish va ijodiy masalani hal etishda fikrlashning oddiy borishini engish.


- **To'g'ridan-to'g'ri jamoali aqliy hujum** – iloji boricha ko'proq fikrlar yig'ilishini ta'minlaydi. Butun o'quv guruhi (20 kishidan ortiq bo'limgan) bitta muammoni hal etadi.

- **Ommaviy aqliy hujum** – mikro guruhlarga bo'lingan va katta auditoriyada fikrlar generatsiyasi samaradorligini keskin oshirish imkonini beradi.

- Har bir guruh ichida umumiyl muammoning bir jihatni hal etiladi.

Ko'rgazmali taqdim etish: grafik tashkil etuvchilar





Тоифали жадвал

Тоифа – мавжуд ҳолат ва муносабатларни акс эттирадиган белги (умумий).



- ажратилган белгиларга кўра олинган маълумотларни бирлаштиришни таъминлайди.

Тоифали шархни тузиш қоидалари билан танишилади. Ақлий хужумдан сўнг (кластерга ажратиш) мини гурухларда янги ўкув материали билан танишилади ва олинган маълумотлар фрагментларини бирлаштиришга имкон берадиган тоифаларни излаш ишлари олиб борилади.

Тоифалар жадвал кўринишида расмийлаштирилади. Фоя маълумотлар жадвалида тегишли тоифалар бўйича тақсимланади. Иш жараёнида маълум бир тоифалар номлари ўзгартирилиши мумкин.

Ишнинг натижавий тақдимоти

Venn diagrammasi



SWOT-tahlil jadvali

SWOT – tahlil nomlanishi inglizcha bosh harflardan olingan:

Strengths – kuchli tomoni, korxonada ichki resurslar mavjudligi nazarda tutiladi;


Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolar mavjudligi;

Opportunities – imkoniyatlar; korxona rivojlanishi uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – xavflar; tashqi muhitdagi mavjud xavf-xatarlar

Qoidaga ko’ra, SWOT – tahlilining muvaffaqiyati tashkilotga bog’liq bo’lmay, balki kelgusidagi strategik maqsad va loyihalarni ishlab chiqishda uning natijasi hisobga olinishiga bog’liq bo’ladi. Uni qo’llashda elementlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

“Kuchlar tahlili” grafigi



«Kuchlar tahlili» grafigini tuzish qoidasi

Koordinat o’qi chiziladi, chapga strelka (kuchlar) bilan korxona rivojlanishi yoki muayyan biznes loyihasini amalga oshirishga xalaqit beruvchi to’siqlar joylashtiriladi. Ushbu strelkalar kattaligi jihatdan u yoki bu muammoga ta’siri hamda jiddiyligiga mos kelishi lozim bo’ladi.

So’ngra qarama-qarshi tomonga ushbu kuchlarni engib o’tish vositalari strelka ko’rinishida eks ettiriladi. Ularning soni grafikning o’ng tomonidan natija chiqara oladigan darajada bo’lishi lozim.

Umuman olganda, bu kelgusida aniqlashtirishni va bo’laklarga ajratishni talab etadigan kuchlarni nisbiy baholash usuli hisoblanadi.

“Keys-stadi” metodi

«Keys-stadi» - inglizcha so’z bo’lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o’rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o’rganish, tahlil qilish asosida o’qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruva fanlarini o’rganishda foydalanish tartibida qo’llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeahodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o’z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where),

Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys echimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys.

Amaliy vaziyat. Innovatsion tadqiqotlar bo'yicha e'lon qilingan tanlovda Sizning grantingiz g'olib bo'ldi. Grant ijrochilari belgilangan bo'lsada, tashkilot rahbari ijrochi sifatida Siz tanimaydigan bir yosh mutaxassisni grantga qo'shishga ko'rsatma berdi. Siz andisha qilib uni grantga ijrochi sifatida kiritdingiz va u bajarishi lozim bo'lgan vazifalarini belgilab berdingiz. 6 oy o'tdi. Ijrochi hech bir vazifani bajarmadi, lekin ish haqi olib yurdi. Grand ishtirokchilari o'rtasida e'tirozlar yuzaga keldi.

Bunday holatda Siz grand rahbari yoki ijrochi sifatida qanday yo'l tutasiz?

1. Rahbaringizga arz qilib, vaziyatni to'g'rakash uchun yordam so'raysiz.
2. Yosh mutaxassis vazifalarini o'zingiz bajarib borishingiz boshqa ijrochilarga aytib, vaziyatni to'g'ralsiz.
3. Yosh mutaxassis vazifalarini boshqa ijrochilar bajarishi uchun taqsimlab berasiz.
4. Maslaxatsiz uni granddan chiqarib tashlaysiz.
5. Yoki boshqacha yo'llarini topasiz.

III. MA'RUZA MATNLARI

1-mavzu: Xalqaro valyuta va kredit bozorlari

1. Xalqaro moliya va uning jahon bozori globallashuvidagi o'rni va ahamiyati. O'zbekiston xalqaro moliyaviy munosabatlar tizimida.


2. Xalqaro moliya bozori: mohiyati, funktsiyalari va o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston xalqaro moliya bozorining faol ishtirokchisi sifatida.

3. Xalqaro moliya bozorining shakllanish va rivojlanish etaplari. O'zbekistonning xalqaro moliya bozoriga integratsiyasi.

4. Moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro moliya bozori globallashuvining zamонавиy tendentsiyalari. O'zbekiston zamонавиy moliyaviy globallashuv jarayonlarida.

1. Халқаро молия ва унинг жаҳон бозори глобаллашувидаги ўрни ва аҳамияти. Ўзбекистон халқаро молиявий муносабатлар тизимида

Жаҳон молиясининг структураси



Халқаро молиянинг функциялари

халқаро савдо ва товарлар, хизматлар ва капитал айирбошлишнинг оқилона ҳаракатини таъминлаш

миллий иқтисодиётнинг ягона халқаро тизимга иқтисодий интеграциясини таъминлаш

миллий иқтисодиётларни халқаро иқтисодий ва молиявий ҳолатларга мослаштириш

давлат ўтказадиган молия сиёсатини мувофиқлаштириш

Халқаро молиявий муносабатлар йўналиши

турли мамлакатларнинг хўжалик субъектлари ўртасидаги ўзаро муносабатлар

давлат билан бошқа мамлакат юридик ва жисмоний шахслари ўртасидаги ўзаро муносабатлар


давлат билан бошқа мамлакатлар ҳукуматлари ва халқаро молия ташкилотлари ўртасидаги ўзаро муносабатлар

давлат ва хўжалик субъектларининг халқаро молия институтлари билан ўзаро муносабатлари

Халқаро молия тизимининг асосий функциялари

- 1 • валюта алмашинуви ва ҳисоб–китоблар тизимини унификациялаш
- 2 • валюта курслари режимининг регламентацияси ва валюта чекловларини тартибга солиш
- 3 • халқаро валюта ликвидлигини тартибга солиш
- 4 • кредитлаш, сұғарталаш, инвестициялаш ва фонд операциялари бүйіча халқаро қоидаларни унификациялаш

Республика ташқи иқтисодий сиёсатида халқаро молиявий муносабатлар қуидаги тамойилларга асосланади



2. Халқаро молия бозори: моҳияти, функциялари ва ўзига хос хусусиятлари. Ўзбекистон халқаро молия бозорининг фаол иштирокчиси сифатида



Глобаллашув жараёнларининг халқаро молия бозорига таъсири

- 1 • ЯИМ да реал активлар сектори улушига нисбатан молия секторининг улуши сезиларли даражада юқорилиги
- 2 • номолия секторидаги операциялар ҳажмига нисбатан молия бозоридаги операциялар ҳажмининг ортиб бориши
- 3 • ривожланган мамлакатлар молия бозоридаги операциялардан олинган даромад салмоғли ўринга эга бўлиши
- 4 • халқаро кредитлашда бир неча мамлакатлар иштирокидаги синдикатлашган кредитлаш шаклиниң ривожланиши
- 5 • халқаро даражада инвесторларнинг ўсиб бораётган талабларига жавоб берадиган янги молиявий инструментларнинг пайдо бўлиши
- 6 • хориж бозорларида жойлаштириладиган қимматли қоғозлар эмиссия ҳажмининг ортиши
- 7 • халқаро молия ташкилотлари функцияларининг ўзгариши

Халқаро молия бозорининг функциялари

- 1 • миллий иқтисодиётлар, мамлакатлар, худудлар, корпорациялар ўртасидаги капиталнинг мобилизацияси ва қайта тақсимланиши
- 2 • талаб ва таклиф таъсирида алоҳидаги молиявий инструментлар бозоридаги нархларни шакллантириш
- 3 • молиявий операциялар бўйича харажатларни камайтириш
- 4 • капиталнинг концентрацияси ва марказлашуви тезлаштириш
(корпорацияларнинг қўшилиши ва ютилиши жараёнлари)

Халқаро молия бозорининг хусусиятлари



Ўзбекистоннинг халқаро молия соҳасидаги асосий стратегик мақсадлари қўйидагилар

- | | |
|---|---|
| 1 | • жаҳон иқтисодий тизими интеграциясига қўшилиб борилишини таъминлаш |
| 2 | • экспорт потенциалини ривожлантириш |
| 3 | • импорт ва импорт ўрнини босувчи маҳсулотлар ишлаб чиқаришни ривожлантириш |
| 4 | • инвестиция сиёсатини такомиллаштириш |
| 5 | • хорижий инвестицияларни жалб қилиш |
| 6 | • экспорт маҳсулотларини ишлаб чиқариш зоналари ва эркин иқтисодий худудларни ривожлантириш |
| 7 | • ташки иқтисодий фаолият инфратузилмасини ривожлантириш |

3.Халқаро молия бозорининг шаклланиш ва ривожланиш босқичлари. Ўзбекистоннинг халқаро молия бозорига интеграцияси



Жаҳон молия бозорининг ривожланишида жаҳон молиявий–иқтисодий инқизозига қадар тенденциялари

- 1 • 1995–2005 йиллар даври давомида акция ва облигация бозорларининг жадал суръатларда ривожланиши, банк депозитлари улушининг эса қисқариб бориши
- 2 • халқаро молия бозорида молиявий чукурлашувнинг кучайиши
- 3 • хорижий инвестиция даражасининг ўсиши, молия бозорларининг бир–бирига боғлиқлигининг кучайиши
- 4 • хорижий қарз ва кредит берилишининг кескин ўсиши



**4. Молиявий глобаллашув шароитида халқаро молия бозори
глобаллашувининг замонавий тенденциялари. Узбекистон
замонавий молиявий глобаллашув жараёнларида**

**Халқаро молия бозорининг
глобаллашуви кўйидагилар олиб келди**

глобал молия марказларининг пайдо бўлишига

трансмиллий корпорациялар ва трансмиллий банкларнинг
ривожланишига

электрон биржалар ва халқаро молия ташкилотлари тармоғининг
кенгайишига

Замонавий глобал молия бозори қўйидагилар билан тавсифланади

пул оқимларининг узоқ муддатли даврда ўсиш тенденцияси сақланиб қолиниши, шу билан бирга бир вақтнинг ўзида қисқа муддатли даврдаги капитал оқими динамикаси бозорларнинг ноликвидлилик рискини ортишига олиб келиши

молиявий ресурслар мобилизациясининг тезлашуви арбитраж операциялар имкониятларини пасайтириб, худудий бозорларда тури фоиз ставкалари ўртасидаги фарқларнинг камайишига олиб келиши

юқоридаги омилларнинг бир вақтдаги таъсири халқаро молия бозоридаги активлар ҳаракатининг синхронизациясига ва бунинг натижасида, миллий молия бозорлари ўртасида тўғридан-тўғри инвестицияларнинг халқаро диверсификациясини заифлашишига олиб келади

Халқаро молия бозори ривожланишининг замонавий тенденциялари

- 1 • халқаро молия бозорининг глобаллашуви
- 2 • халқаро молия бозорининг интеграцияси ва конвергенцияси
- 3 • халқаро молия бозори иштирокчилари (айниқса глобал молия субъектлари) ўртасида халқаро ракобатнинг ортиши
- 4 • халқаро молия бозорида қўшилиш ва ютилиш операцияларининг ортиши
- 5 • воситачиликнинг умумийлашуви ва халқаро молия бозоридаги иштирокчилар ихтисослашувининг кенгайиши
- 6 • халқаро молиявий мінтақалашуви, молиявий активларнинг институционализациялашуви (трасталар, пенсия ва сугурта тизимлари ва б.)
- 7 • халқаро молия бозорини тартибга солишда, айниқса замонавий глобал инқирозлар шароитида амалда самарали инструментларни етарли эмаслиги
- 8 • молиявий инструментлар (деривативлар) билан трансакцияларнинг ўсиши, рискларнинг қайта тақсимланиши ва пасайиши
- 9 • халқаро молия бозори ахборотларини олиш ва компьютерлаштиришнинг кенгайиши ва чукурлашуви муаммолари

Xalqaro valyuta bozori tushunchasi

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar fuqarolari bo'lmish yuridik hamda jismoniy shaxslarning pul shaklidagi talablari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning xususiyatlari tomoni shundaki ushbu hisob-kitoblarda baho va to'lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlataladi, chunki hozircha umum tan olingen hamda barcha davlatlarda qabul qilinishi lozim bo'lgan jahon kredit pullari mavjud emas. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil mamlakatda qonuniy to'lov vositasi sifatida uning milliy valyutasi ishlataladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar hamda davlatlararo to'lovlardagi muhim shartlardan biri bo'lib to'lovchi yoki benefetsiar shaxs tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yoxud sotish shaklidagi bir valyutani boshqa bir valyutaga ayriboshlanishi hisoblanadi.

Jahon valyuta, kredit, moliya va sug'urta bozorlari shartnomaning ob'ekti pul kapitali hisoblangan bozor munosabatlarning o'ziga xos jarayoni bo'lib hisoblanadi. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi asosida shakllangan. Amal qilish nuqtai nazaridan ushbu bozorlar takror ishlab chiqarishning uzlucksizligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida jahon miqyosidagi moliyaviy oqimlarning to'planuvi hamda ularning qayta taqsimotini ta'minlovchi bozor munosabatlarning tizimi bo'lib xizmat qiladi. Institutsional nuqtai-nazardan esa jahon moliyaviy oqimlari ular orqali amalga oshadigan banklar, ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari hamda fond birjalarini yig'indisidan iboratdir.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining ob'ektiv asosi bo'lib amaldagi kapitalning doiraviy aylanish qonuniyatlarini hisoblanadi. Jahon bozorining ayrim uchastkalarida vaqtincha bo'sh bo'lgan kapitallar paydo bo'lsa, uning boshqa bir joylarida mazkur kapitallarga doimiy talab paydo bo'ladi. Kapitalning harakatsizligi uning tabiatini va bozor qonuniyatlariga ziddir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari ushbu qarama-qarshilikni umumjahon xo'jaligi miqyosida hal etadilar. Vaqtincha bo'sh bo'lgan pul kapitallari bozor mexanizmi yordamida takror ishlab chiqarishning uzlucksizligi va tadbirkorlarga foydani ta'minlagan holda kapital doiraviy aylanishi jarayoniga yana jalb etiladi.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari taalluqli milliy bozorlar negizida paydo bo'lgan va milliy bozorlar ular bilan yaqindan munosabatdadir. Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlarga quyidagilar xosdir:

-nihoyatda katta ko'lamlar. Ayrim baholarga qaraganda jahonning valyuta va moliyaviy bozorlaridagi kunlik operatsiyalarning hajmi tovarlar bilan jahon savdosini hajmidan 50 marotaba ko'pdir;

-geografik chegaralarning yo'qligi;

-operatsiyalarning uzlucksiz, sutka davomida olib borilishi;

-etakchi davlatlarning valyutalari hamda xalqaro hisob-valyuta birliklaridan foydalanishi;

-ishtirokchilari bo'lib asosan nufuzli banklar, korporatsiyalar hamda yuqori reytingga ega moliya-kredit institutlari hisoblanadi;

-ushbu bozorlarga nihoyatda ishonchli yoki salmoqli kafolatga ega mijozlar chiqish huquqiga ega;

-moliyaviy xizmatlar jarayonidagi inqilobiy sharoitlarda bozor segmentlari va shartnoma instrumentlarining diversifikatsiyasi;

-o'ziga xos, xalqaro tusdagi foiz stavkalari;

-kompyuter va boshqa elektron texnikaning eng yangilaridan foydalanish zaminida qog'ozsiz operatsiyalarni standartlashtirish hamda axborot texnologiyalarining yuqori darajasi.

Jahon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari rivojlanishining ob'ektiv asosi bo'lib xo'jalik munosabatlari globallashuvining chuqurlashishi hamda tegishli milliy bozorlarning cheklangan imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatning kuchayishi hisoblanadi. Jahanning valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar hamda oltin bozorlari rivojlanishini harakatlantiruvchi kuch bo'lib jahon moliyaviy oqimlari, bozor ishtirokchilariga taklif etilayotgan kreditlar qiymatining hajmi va taqsimotini muvofiqlashtiruvchi raqobat hisoblanadi. Biroq raqobat kurashi xamma vaqt ham samarali va nuqson siz emas. Shu sababli ushbu jarayonlarni bozor hamda davlat tomonidan muvofiqlashtirilishi birgalikda olib boriladi. Davlat jahon bozorlari faoliyatiga inqirozli jarayonlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish maqsadida aralashadi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi xom ashyo manbalari va iste'molchilar bozorlari uchun raqobat kurashining kuchayishi bilan samarali investitsiyalar hamda moliyaviy oqimlar milliy xarakterini yo'qotgan va o'zining kosmopolitik tabiatini ko'rsatgan holda bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga stixiyali asosda oqib o'tadi. Milliy valyuta, kredit va moliyaviy bozorlar o'zlarining mustaqilligini nisbatan saqlab qolgan holda faoliyatlarini to'ldiruvchi hamda milliy iqtisodiyot va pul-kredit tizimlari bilan bog'liq bo'lган boshqa shu kabi jahon bozorlari bilan chambarchas bog'lanib ketmoqdalar. Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari o'zlarining katta imkoniyatlari hamda ko'p maqsadililigining tez o'sishi natijasida xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlar hamda jahon iqtisodiyotining muhim zvenolaridan biriga aylandi.

Milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarining jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ishtiroki quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi:

-mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi tegishli o'rni hamda valyuta-iqtisodiy holati;

-rivojlangan kredit tizimi va yaxshi tashkil etilgan fond birjasining mavjudligi;

-soliqqa tortishning o'rta me'yorligi;

-xorijlik qarz oluvchilarga milliy bozorga chiqish va xorijiy qimmatli qog'ozlarga birja kotirovkasiga kirish imkonini beruvchi imtiyozli valyuta qonunchiligining mavjudligi;

-qulay geografik joylashishi;

-siyosiy tuzumning nisbatan barqarorligi va boshqa shu kabilar.

Yuqorida zikr etilgan omillar xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi milliy bozorlar doirasini cheklaydi. Raqobat kurashi natijasida Nyu-York, London, Lyuksemburg, Frankfurt-Mayna, Singapur va boshqa shu kabi jahon moliyaviy markazlari shakllandi.

Jahon moliyaviy markazlari – xalqaro valyuta, kredit, moliya operatsiyalari, qimmatli qog’ozlar hamda oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institutlari to’planuvining markazlaridir. Tarixan ular milliy bozorlar negizida, so’ng esa jahon valyuta, kredit, moliya hamda oltin bozorlari zaminida paydo bo’lgan.

Birinchi jahon urushigacha hukmron moliyaviy markaz bo’lib London hisoblangan. Ushbu Buyuk Britaniyadagi kapitalizmning nihoyatda yuqori darajada taraqqiy etganligi boshqa mamlakatlar bilan keng savdo aloqalari, funt sterlingning nisbiy barqarorligi, mamlakatning rivojlangan kredit tizimi bilan asoslanadi. Turli mamlakatlardan kelgan kapitallar xalqaro savdoning katta ulushini kreditlagan London bozorida to’planar edi. Tashqi savdoni kreditlashning qisqa muddatli vositasi bo’lib Londonda aktseptlangan “sterlingli veksel” xizmat qilgan edi. Xalqaro hisob-kitoblarning 80 foizi funt sterlingslarda amalga oshirilar edi.¹

Birinchi jahon urushidan so’ng mamlakatlar rivojlanishining notekisligi qonunining harakati tufayli etakchi jahon moliyaviy markazi AQShga ko’chib o’tdi hamda ushbu mamlakat Londonning xalqaro valyuta, kredit va moliya operatsiyalarida muhim rol o’ynab borayotganligiga qaramasdan XX asrning 60-yillarigacha monopol pozitsiyalarga ega bo’ldi. XX asrning 60-yillaridan boshlab AQShning jahon moliyaviy markazi sifatidagi monopol holatiga zil ketdi, chunki G’arbiy Evropa va Yaponiyada yangi moliyaviy markazlar paydo bo’ldi. Sanoat jihatidan rivojlangan davlatlar asta sekin cheklovlarini, ayniqsa valyuta cheklovlarini bekor qilgani holda xalqaro operatsiyalarni amalga oshiruvchi milliy banklarning raqobat-bardoshligi va reytingini oshirish maqsadida ularning faoliyatlarini nomuvofiqlashtirish jarayonini amalga oshirdilar.

AQSh XX asrning 70-yillarini o’rtalaridan boshlab birinchilar qatorida o’z milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarini erkinlashtirish jarayonini boshladi. 1978-1986 y.y. depozit-ssuda operatsiyalari bo’yicha foiz to’lovlariga bo’lgan cheklovlar asta sekin bekor qilindi, talab qilib olinguncha omonat turlari bo’yicha foizlar joriy etildi. 1984 yilda AQShda chiqarilgan va nerezidentlarga tegishli obligatsiyalar daromadlariga bo’lgan 30 foizlik soliq bekor qilindi. 1981 yilning oxiridan boshlab AQShda erkin bank hududi tashkil etildi va ushbu hududda xorijiy banklar AQSh soliqlari hamda bank cheklovlaridan ozod etildi. AQSh banklari faoliyatining erkinlashuvi, ularning bankrotlikka uchrashi va to’planushi moliyaviy innovatsiyalar va sek’yuritatsiya rivojiga turki berdi. Shu sababli tijorat va investitsiya banklari faoliyatining amaliyotda o’zaro ajratilishiga hamda banklarga bir nechta shtatlarda faoliyatni amalga oshirishga (Glas-Stigoll qonuni) bo’lgan taqilanganishga amal qilinmaydi.

Evropa Ittifoqi mamlakatlari o’z moliyaviy markazlarini barpo etishga azaldan intilayotgan edilar. Biroq valyuta, kredit va moliya bozorlarining integratsiyalashuvi sanoat, qishloq xo’jaligi hamda tashqi savdo jarayonidagi integratsiyalashuvdan uzoq vaqt davomida orqada qolayotgan edi. Ushbu esa Evropa Ittifoqidagi kelishmovchiliklar, a’zo-mamlakatlarning byudjet, kredit va investitsiya siyosatlarini

¹ Л.Н. Красавина «Международные валютно-кредитные и финансовые отношения» Москва «ФиС» 2001г.

amalga oshirishdagi o’z mustaqilligidan millatusti qarorlar foydasiga voz kecha olmayotganligi bilan izohlanadi. Evropa Ittifoqi mamlakatlari iqtisodiy va valyuta ittifoqini barpo etishning “Delor rejasi”ga muvofiq XX asrning 90-yillarida barcha valyuta cheklovlarini bekor qilgan holda yagona moliyaviy makonni faol shakllantirdilar. 1993 yilning noyabr oyidan kuchga kirgan Maastricht shartnomasiga muvofiq paydo bo’lgan kapitallar va moliyaviy xizmatlarning yagona G’arbiy Evropa bozori integratsiyaning yuksak yutug’iga aylandi. 1999 yilda evroning muomalaga kiritilishi munosabati bilan Evropa Ittifoqi kattaligi bo'yicha AQShdan so'ng ikkinchi o'rinda turuvchi fond bozoriga ega bo'lib qoldi. Barcha qimmatli qog'ozlar va derivativ (hosilaviy qimmatli qog'oz)lar nominallari yagona valyuta, evroda ifodalanganligi sababli investorlar tanloving birinchi o'rnida mamlakat emas, fond operatsiyalarining sektori turadi. Ushbu sharoitlarda valyuta xavf-xatari yo'q bo'ladi. Agarda Buyuk Britaniya “evro hududi”ga qo'shilmasa u jahon moliyaviy markazi sifatidagi o’z mavqeini yo'qotish xatariga uchraydi.

Jahon moliyaviy markazlari bo'lib Tsyurix va Lyuksemburg hisoblanadi. Ular oltin bilan operatsiyalarni amalga oshirish borasida London bilan bellashib kelmoqdalar. Evrovalyutadagi barcha kreditlarning $\frac{1}{4}$ qismi Lyuksemburg zimmasiga to'g'ri keladi.

Yaponianing jahon xo'jaligida mavqeining mustahkamlanishi, xorijda yapon banklarining salobatli tizimining barpo etilishi, milliy pul birligi “yena”ning xalqaro iqtisodiy muomalaga kirib borishi hamda valyuta cheklovlarining bekor qilinishi sababli Tokio jahon moliyaviy markaziga aylandi. 1985 yilda netto-qarzdorga aylangan AQShdan farqli o'laroq Yaponiya – netto-kreditor mamlakatidir. Yaponiya banklari jahonda, shu jumladan xalqaro operatsiyalar jarayonida ham (XX asrning 90-yillarining boshida deyarli 40%) AQSh va G’arbiy Evropa banklaridan (15%) ushbu sohada o'zib o'tgan holda etakchilik qiladi. XX asrning 90-yillarini oxirlarida iqtisodiy inqiroz va ko'proq jihatdan Janubiy-Sharqiy Osiyo hududidagi so'nggi 30 yil ichida misli ko'rilmagan moliyaviy hamda valyuta inqirozlarining bo'lib o'tishi sababli Yaponiya egallab turgan xalqaro mavqeining vaqtinchalik pasayishi ro'y berdi.

Jahon xo'jaligining chekka hududlarida Bagam orollari, Singapur, Syangan (Gonkong), Panama, Bahrayn va boshqa shu singari moliyaviy markazlarning paydo bo'lishi nisbatan past soliqlar hamda operatsion xarajatlar, nomiga bo'lgan davlat aralashuvi, valyuta qonunchiligining erkinlashtirilishi bilan ma'lum bir darajada asoslanadi.

Kredit tashkilotlari norezidentlar bilan ushbu mamlakat uchun xorijiy hisoblangan valyutada operatsiyalarni amalga oshiruvchi jahon moliyaviy markazlari “offshor” moliyaviy markazlari nomini oldi. Ushbu atama mazmun jihatidan evrobozor tushunchasiga taxminan mosdir. Mazkur moliyaviy markazlar shuningdek soliq panohxonasi rolini bajaradi, chunki amalga oshirilayotgan operatsiyalar mahalliy soliqlarga tortilmaydi hamda valyuta cheklovlaridan xolisdir.

Zamonaviy sharoitda 13ta jahon moliyaviy markazida xorijiy banklarning 1000 ziyyod filial va bo'limlari to'plangandir.

Bank offshor hududlari ko'rinishlaridan biri bo'lib xalqaro bank hududi hisoblanadi. Ularning o'ziga xosligi amalga oshirilayotgan bank operatsiyalarining

milliy kredit bozoridan farqli xususiyatlari, qattiq ixtisoslashuvi, soliqlardan qisman ozod etilishidadir. Xalqaro bank hududlariga bir qator bank me'yorlari, shu jumladan majburiy zahiralar tizimi, bank omonatlarini sug'urta qilish fondidagi ishtiroki aloqasizdir.

AQShda xalqaro bank hududlari bank qonunchiligining erkinlashtirilishi munosabati bilan shakllangan. 24 shtatdagi ularning soni 500dan ziyoddir. Ular AQSh banklari, bank assotsiatsiyalari, shu jumladan xorijiy va Edj (faqt xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish litsenziyasiga ega) korporatsiyalari, xorijiy banklarning ayrim filiallarini birlashtiradi. Xalqaro bank hududi yuridik shaxs bo'limgan holda xalqaro operatsiyalarning hisobi alohida yuritiluvchi bank tuzilmalari yig'indisidan iboratdir. Xalqaro bank hududining faoliyati operatsiyalarning ma'lum bir turlari bilan cheklangandir. Masalan, ushbularga xorijiy valyutadagi depozitlarni, 2 yilgacha muddatga 100 ming AQSh dollaridan kam bo'limgan summaga muddatli omonatlarni ochish operatsiyalari kiradi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish va depozit sertifikatlar emissiyasiga ruxsat etilmagan. Bitimlarni faqt nobank norezidentlari bilan amalga oshirishga ruxsat etiladi. AQShdagagi xalqaro bank hududlaridan AQSh kapitallarining evrobozordan qisman repatriatsiyasi uchun foydalilanildi.

Xalqaro bank hududlari "qochoq" kapitallar uchun panoh xizmatini bajaradi.

AQShdan farqli o'laroq Yaponiyadagi xalqaro bank hududi kapitallarni o'zining ichki hisob raqamlaridan ichki bank hisobvaraqlariga oyning oxirida mablag'larning qarama-qarshi oqimi sharti bilan o'tkazish huquqiga ega.

Shunday qilib sutka davomida uzlusiz faoliyat ko'rsatadigan, jahon moliya oqimlari boshqaruvining vositasi bo'lib xizmat qiluvchi xalqaro bozor mexanizmi shakllandidi. Iqtisodiy fanning maxsus bo'limi valyuta, kredit va moliya bozorlarining samaradorligi, ularning ishtirokchilari kutayotgan samaraning shakllanishini hamda yangi ko'rinishdagi axborotlarga moslasha olish muammolarini o'rganadi. Maxsus axborot agentliklarining monitorlarida bozor baholari, kotirovkalar, valyuta kurslari, foiz stavkalari va xalqaro operatsiyalarning, amalga oshirilish joyidan qat'iy nazar, boshqa valyuta-moliyaviy shartlari real vaqt rejimida aks etadi. Samarali bozor (shu jumladan valyuta, kredit, moliya) kontseptsiyasining mohiyati axborotning joriy baholarga bo'lgan ta'siridadir. Shu sababli jahon bozorining sub'ektlari ushbu bilan bog'liq o'z tashqi iqtisodiy faoliyatlarini strategiyasini muvofiqlashtirishlari lozim.

XX asrning 80-yillaridan boshlab jahon valyuta, kredit va moliya bozorlarining qayta qurilishi faol amalga oshirilmoqda. Ular faoliyatining tavsifi ham o'zgarmoqda. Yangi moliyaviy instrumentlar va bozor infratuzilmasi kiritilmoqda. Ishtirokchilar soni kengaymoqda (1 jadval).

1 jadval

Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari: ishtirokchilari va tarkibiy tuzilishi

Milliy ishtirokchilar	Bozorlarning tarkibiy tuzilishi	Xalqaro ishtirokchilar
Korporatsiyalar	Valyuta bozorlari, shu jumladan evrovalyutalar bozori	Xalqaro korporatsiyalar, Trans Milliy Korporatsiyalar
Banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institatlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari	Ssuda kapitallari bozorlari: a)pul bozori b)kapitallar bozori v)evrobozor	Xalqaro banklar, Trans Milliy Banklar Ixtisoslashgan kredit-moliya institatlari, shu jumladan sug'urta kompaniyalari
Fond va tovar birjalari Davlat	Moliyaviy bozorlar	Eng yirik fond va tovar birjalari
	Sug'urta bozorlari Oltin bozorlari	Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar yuridik shaxslari hamda fuqarolarining pul talabnomalari va majburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisob-kitoblarning o'ziga xosligi shundaki, baho va to'lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozirgi kunda barcha davlatlarda qabul qilinishi majburiy bo'lган umum tan olingan jahon kredit pullari yo'q. Shu bilan birgalikda qonuniy to'lov vositasi sifatida har bir suveren davlatda uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar, davlatlararo to'lovlari bo'yicha hisob-kitoblarning zaruriy sharti bo'lib to'lovchi yoki oluvchi tomonidan bir valyutani boshqa bir valyutaga sotib olish yoxud sotish shaklidagi almashinishi hisoblanadi.

Valyuta bozorlari – bu, talab va taklif asosida shakllanadigan kurs bo'yicha xorijiy valyutalarning milliy valyutaga oldi-sotdisi amalga oshadigan rasmiy markazlaridir.²

Turli mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslarining pullik qarz majburiyatlarini to'lovi bilan bog'liq xalqaro to'lov aylanmasiga valyuta bozori tomonidan xizmat ko'rsatiladi.

Keng ma'nodagi valyuta bozori – bu, xorijiy valyuta oldi-sotdisini amalga oshirish hamda xorijiy investorlar kapitallari harakati bilan bog'liq operatsiyalarda paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar jarayonidir. Valyuta bozorida valyuta qimmatliklarining investorlari, sotuvchilari va sotib oluvchilari manfaatlarining

² Красавина Л.Н Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Москва, 2001г.

kelishuvi amalga oshadi. G'arb iqtisodchilari valyuta bozorini tashkiliy-texnik nuqtai nazardan milliy va xorijiy banklar hamda broker firmalarini o'zaro birlashtiruvchi zamonaviy aloqa vositalari tarmog'inining yig'indisi sifatida tavsiflaydi.

Zamonaviy valyuta bozori, yalpi jahon xo'jaligi miqyosida amal qiluvchi, murakkab va muntazam iqtisodiy tizim sifatida maydonga chiqadi.

Valyuta bozori yangi sharoitlarga moslashgan holda tinmay rivojlanib kelgan. U xorijiy valyutadagi veksellar bilan savdoning lokal markazlaridan tortib to birdan-bir haqiqiy xalqaro bozor shakligacha bo'lган yo'lни bosib o'tdi.

Xorijiy valyutalar bilan operatsiyalar qadimdan pullarni o'zaro almashtirish operatsiyalari shaklida amalga oshgan. Biroq zamonaviy tushuncha sifatidagi valyuta bozorlari XIX asrga kelib shakllandi. Bunga quyidagi omillar ko'maklashdi:

- xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi;

- milliy valyuta tizimlari yuzasidan a'zo-mamlakatlar zimmalariga ma'lum bir majburiyatlarni yuklovchi jahon valyuta tizimining barpo etilishi;

- xalqaro hisob-kitoblar kredit vositalarining kengayishi;

- bank kapitali to'planushi va markazlashuvining kuchayishi, turli mamlakatlar banklari o'rtaida vakillik munosabatlarining rivojlanishi, joriy vakillik hisobvaraqlarini xorijiy valyutalarda yuritilish amaliyotini kengayishi;

- valyuta bozorlari o'zaro aloqalarini soddalashtirish hamda kredit va valyuta xatarlari darajasini kamaytirish imkonini beruvchi telegraf, telefon, teleks singari aloqa vositalarining takomillashishi;

- axborot texnologiyalarining rivojlanishi, valyuta kurslari, banklar, ularning vakillik hisob raqamlarining holatlari, iqtisodiyot va siyosat borasidagi tendentsiyalar haqidagi ma'lumotlarni katta tezlikda uzatilishi.

Milliy bozorlar va ularning o'zaro aloqalarini rivojlanib borishi bilan jahon moliyaviy markazlarida jahoning etakchi valyutalari uchun yaxlit jahon valyuta bozori shakllandi. Zamonaviy jahon valyuta bozorlari quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- 1)xo'jalik aloqalarining baynalmilallashuvi, elektron aloqa vositalaridan keng foydalanish va ular orqali operatsiyalar hamda hisob-kitoblarni amalga oshirish zaminida valyuta bozorlarining baynalmilallashuvi;

- 2)operatsiyalar navbati bilan jahoning barcha joylarida uzluksiz, sutka davomida amalga oshadi. Kalendar sutkalar hisobi soat poyaslarining Grinvich – Greenwich Meridian Time (GMT) orqali o'tadigan "0" raqamli meridianiga muvofiq valyuta bozoridagi faoliyat Yangi Zelandiya (Vellington)da boshlanadi va Sidney, Tokio, Gonkong, Singapur, Moskva, Frankfurt-Maynada, London, Nyu-York hamda Los-Anjeles ketma-ketligidagi soat poyaslarini bosib o'tadi;

- 3)valyuta operatsiyalarining texnikasi soddalashtirilgan, hisob-kitoblar banklarning vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshadi;

4)valyuta va kredit xavf-xatarlarini sug'urtalash maqsadida valyuta operatsiyalarining keng rivojlanishi. Bunda avval amalda bo'lgan va bank balansida aks ettirilgan valyuta operatsiyalari balansdan tashqari hisobvaraqlarida hisobi yuritiladigan muddatli hamda boshqa turdag'i valyuta bitimlari bilan almashtiriladi;

5)chayqov va arbitraj operatsiyalari tijorat bitimlari bilan bog'liq valyuta operatsiyalaridan ko'p jihatdan ortiqdir, ular ishtirokchilarining soni keskin ko'payadi va o'z tarkibiga nafaqat bank hamda Trans Milliy Korporatsiyalarni, balki boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni oladi;

6)kursi, xususiyatlari birja tovariga o'xshab fundamental iqtisodiy omillarga bog'liq bo'limgan, o'zining tendentsiyalariga ega bo'lgan valyutalarning barqarorsizligi. Jahon valyuta bozori eng kuchli va likvidli, ammo siyosiy hamda iqtisodiy yangiliklarga nihoyatda sezgir bozordir.

Funktional nuqtai nazardan valyuta bozorlari quyidagilarni ta'minlaydi:

- xalqaro hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshishini;
- valyuta va kredit xavf-xatarlar sug'urtalanishini;
- jahon valyuta, kredit va moliya bozorlarining o'zaro aloqalarini;
- banklar, korxonalar, davlat valyuta zahiralarining diversifikatsiyasini;
- valyuta kurslari muvofiqlashtirilishini (bozor va davlat tomonidan);
- ishtirokchilari tomonidan valyuta kurslarining farqi sifatidagi chayqov foydasi olinishini;

-iqtisodiyotni davlat tomonidan muvofiqlashtirilishiga qaratilgan valyuta siyosatini amalga oshirilishi, so'nggi paytlarda esa mamlakatlar ("ettilik", Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti, Evropa Ittifoqi) guruhi doirasida o'zaro kelishilgan makroiqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida. Valyuta bozori moliyaviy bozorning boshqa segmentlariga qaraganda o'z operatsiyalarining ko'lami bo'yicha nihoyatda kattadir. Masalan 1997 yildagi aktsiyalar bozoridagi kunlik operatsiyalarning hajmi 100 – 150 mlrd., obligatsiyalar bozorida 500 – 700 mlrd., valyuta bozorida esa 1,4 trln. AQSh dollari hajmida baholangan (1986 yilda ushbu operatsiyalar hajmi 205 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan).

Valyuta bozoridagi shartnoma instrumentlari ichida katta o'zgarish sodir bo'ldi. Erkin raqobat kapitalizmi davrining monometalizmi sharoitida yaxshigina rivoj topgan xalqaro hisob-kitoblarning kredit vositalaridan foydalangan holdagi xalqaro naqdsiz to'lovlar ko'lami katta edi. Valyuta kursi "oltin nuqtalari"ga etgan va qarzdorga devizlar bilan emas, balki oltin bilan hisob-kitob qilish samarali bo'lgan paytda oltin xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlarning yakuniy to'lov vositasi sifatida ishlatalar edi. Valyuta operatsiyalarining instrumentlari bo'lib azaldan o'tkaziladigan tijorat veksellari (trattalar) hisoblanar edi. Tratta eksportyor yoki kreditor tomonidan importyor yoxud qarzdorga qarata yozib chiqarilgan talabnomadir. Banklar rivojlanib borgani sari ushbu trattalar bank veksellari va cheklari, XIX asrning ikkinchi yarmidan

boshlab esa bank pul o'tkazmalari tomonidan siqib chiqarila boshlandi. Bank vekseli – bu, ushbu mamlakat banki tomonidan o'zining xorijiy vakili (korrespondenti)ga qarata chiqarilgan vekseldir. Qarzdor (importyor)lar mazkur veksellarni milliy (markaziy) bankdan sotib olganidan so'ng ularni o'z qarz majburiyatlarini so'ndirish maqsadida kreditorlar (eksportyorlar)ga jo'natadilar. Bank vekseli asta-sekin bank cheki bilan siqib chiqariladi. Bank cheki – bu, avuarlar egasi bo'lmish xorijdagi bankning o'z vakil-bankiga o'zining joriy hisobvarag'idan chekni taqdim etuvchiga ma'lum bir summani o'tkazib berish to'g'risida yozma tarzdagi buyrug'idir. Eksportyorlar mazkur cheklarni qo'llariga olganlaridan so'ng ularni o'z banklariga sotadilar.

Xalqaro to'lov aylanmasida oltinning o'rnini egallagan kredit muomala qurollari muomala xarajatlarining kamayishi hamda banklar va davlatlar o'rtasida naqdsiz o'zaro hisob-kitoblarning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Zamonaviy xalqaro to'lov aylanmasida bank pul o'tkazmalari, ya'ni pochta va ayniqsa telegraf pul o'tkazmalaridan keng miqyosda foydalaniladi. Pul o'tkazmasi – bu, bankning vakil-bankka o'z mijozining ko'rsatmasiga binoan xorijiy valyutadagi ma'lum bir summani boshqa mamlakatda o'z hisobvarag'idan to'lash to'g'risidagi buyrug'idir. Pul o'tkazmasini amalga oshirishda bank mijozga xorijiy valyutani milliy valyutaga sotadi. Telegraf pul o'tkazmalari hisob-kitoblarni tezlashtirishga, kreditdan foydalanish muddatini qisqartishga hamda veksel, chek, pochta pul o'tkazmasini jo'natish va ularni manzilga etib kelishi davri mobaynida vujudga keladigan valyuta yo'qotishlardan saqlashga ko'maklashadi. Telegraf orqali pul o'tkazmalarida maxsus kod ("kalit")ning qo'llanilishi suiste'molliklar (qalbaki pul o'tkazmalari)ni istisno etadi hamda xato qilmaslikni kafolatlaydi. SVIFT tizimining rivojlanishi bilan pul o'tkazmalarini amalga oshirishning elektron tizimi rivojlana boshladi. Valyuta operatsiyalari o'z moddiy asoslarini tobora yo'qotib bormoqda va vakillik hisobvaraqlari bo'yicha yozuvlar sifatida mavjuddir.

Valyuta bozorlari institutsional nuqtai nazardan banklar, brokerlik firmalari, korporatsiyalar va ayniqsa Trans Milliy Korporatsiyalar yig'indisidan iboratdir. Banklar, banklararo bozordagi o'zaro hamda savdo-sanoat sohalariga aloqador mijozlar bilan valyuta bitimlarining 85-95 foizini amalga oshiradilar. Bank yoki valyuta milliy qonunchiligiga muvofiq inqirozlar davrida banklarning xalqaro operatsiyalar va valyuta bitimlarini amalga oshirishga bo'lgan huquqlari cheklanadi yoki mazkur operatsiyalarni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab etiladi. Ushbu cheklovlар amalga oshiriladigan barcha valyuta operatsiyalariga yoki ularning ayrim turlariga, masalan "offshor" hududlaridagi banklarning rezidentlar bilan valyuta bitimlariga aloqador bo'lishi mumkin.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish huquqi taqdim etilgan banklar vakolatli, devizli yoki valyutali banklar deb ataladi. Barcha devizli banklar valyuta

bozorining operatsiyalarida teng asosda ishtirok eta olmaydilar. Bankning kattaligi, uning mavqei, xorijiy bo'lim va filiallari tarmog'ining rivojlanganligi, bank orqali amalga oshayotgan xalqaro hisob-kitoblarning hajmi kabi omillar bankning valyuta bozorlaridagi rolini ko'p jihatdan belgilaydi. Bankning joylashgan joyida valyuta cheklovlarini muntazam ravishda kiritilishi, teleks va telefon aloqalarining holati hamda ushbu bank o'tkazayotgan siyosat yuqoridagi omillar bilan bir qatorda uning valyuta bozorida ishtirok etishiga ma'lum bir ta'sir o'tkazadi. Shu sababli valyuta operatsiyalarining eng katta qismi Trans Milliy Banklar (TMB) zimmasiga to'g'ri keladi. Ularga Citibank, Chase Manhattan Bank, Deutsche Bank, Dresdner Bank, Barclays Bank, Union Bank Swizerland, Sumitomo Bank, Mitsubishi Bank, ABN Amro va boshqalar kiradi. Mazkur banklar nihoyatda katta summalar (100 – 500 mln. AQSh dollari)ga bitimlarni amalga oshiradilar. Shu bilan bирgalikda 1 – 10 mln. dollargacha bo'lgan standart bitim valyuta bozori holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda ushbu bitimning egasi manfaatli bitimlar uchun kurashda raqobatli imtiyozga ega bo'ladi. TMBlar xorijiy bo'limlar tarmog'iga ega bo'lgan holda valyuta operatsiyalarini sutka davomida uzluksiz amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Valyuta bozorining yangi ishtirokchisi bo'lib valyutalarni turli mamlakatlar hukumatlari va korporatsiyalarining yuqori likvidli hamda ishonchli qimmatli qog'ozlariga joylashtirgan holda aktivlar portfelining diversifikatsiyali boshqaruvini amalga oshiruvchi investitsiya fondlari maydonga chiqdi. Ulardan eng tanilganlari qatoriga Jorj Sorosning "Quantum" va "Dean Witter" fondlari, "Lohg-Term Capital Management" xalqaro xedj-fondi kabi fondlar kiradi. Investitsiya fondlarini valyuta bozorlarini erkinlashtirish sharoitida paydo bo'lishi o'sgan valyuta va kredit tavakkalchiliklarini sug'urtalash zarurati bilan bog'liqdir. Ularni vujudga keltirishda odatda TMBlar hamda investitsiya fondlari ishtirok etadi. Shu sababli xedj-fondlarda nafaqat xatarlarni sug'urtalash, balki kichik mamlakatlarning valyuta kurslarini pasaytirib yuborishga qodir bo'lgan yirik chayqov bitimlarini tuzish imkonini beruvchi katta hajmdagi pul mablag'lari to'planadi. Ushbu holat 1998 yilning yozida Malayziya, Indoneziya va Gonkongning valyutalari bilan sodir bo'ldi hamda mazkur davlatlarning keskin noroziligini keltirib chiqardi. Mazkur davlatlar yuqorida zikr etilgan yirik chayqovchilarning o'z hududlaridagi faoliyatiga taqilovchi choralarни kirtdilar.

Valyuta bozorlari ishtirokchilarining qatoriga ushbu bozorlar orqali valyuta zahiralarini boshqaradigan, milliy valyuta kursini qo'llab-quvvatlab turadigan, valyuta interentsiyasi hamda milliy valyutadagi qo'yilmalar bo'yicha foiz stavkalari muvofiqlashtirilishini amalga oshiradigan mamlakatlar markaziy banklari kiradi. Jahon valyuta bozorlariga eng katta ta'sirni AQSh (Federal Zahira Tizimi), Germaniya va Buyuk Britaniya markaziy banklari o'tkazadi.

Valyuta bozorida nobank toifasidagi institutlar (sug'urta va pensiya fondlari, investitsiya kompaniyalari) ham ishtirok etadi. Biroq ushbu institutlar bozorda

valyutani sotuvchilari va sotib oluvchilari o'rtasida vositachilik funktsiyalarini bajaruvchi bozorning yana bir muhim ishtirokchilari bo'l mish brokerlik firmalaridan vositachilar sifatida foydalanadilar. Broker orqali ishslashning imtiyozli taraflari qatoriga bitimlar amalga oshirilishining maxfiyligi, kotirovka jarayonining uzluksizligi, o'z baholarini berish imkoniyati kabilar kiradi. Brokerlar valyuta operatsiyalarining hajmlari, valyuta operatsiyalarining 30 foiziga yaqinini (London bozorida 35%, dollar bo'yicha operatsiyalarda esa birmuncha ko'proq) qamrab olgan holda doim o'sib bormoqda. XX asrning 90-yillarining o'rtalarida, masalan 1997 yilda Tokioda dollar-yena operatsiyalarining 50 foiziga yaqinini amalga oshiruvchi elektron brokerlar paydo bo'ldi. Brokerlik-dilerlik firmalari ichida etakchi o'rinni "Merrill Linch" (Merrill Lynch Pierce Fenner & Smith), I.F.Xatton (E.F. Hutton), "Goldman Saks" (Goldman Sachs), "Morgan Stenli" (Morgan Stanley) kabi kompaniyalar egallaydi.

Ayrim mamlakatlar (Germaniya, Frantsiya, Yaponiya, Benilyuks mamlakatlari, Skandinaviya)da valyuta birjalari saqlanib qolgan bo'lsada, ularning roli unchalik katta emas va bajaradigan funktsiyalarini valyuta savdolarini tashkil etish, bo'sh resurslarni safarbar etish, ma'lumot-kurslarini qayd etish kabilardan iboratdir.

Yirik banklar, birinchi navbatda TMBlar boshqa banklar, vositachilik broker firmalari hamda jahon moliya markazlari bilan elektron hisoblash mashinalari, telefon hamda teleks aloqa tizimlari orqali ulangan valyuta bo'lmlariga egadirlar. Ushbu bo'lmlar esa o'z navbatida videoaloqa tizimlari bilan telegraf agentlik (Reyter va boshqa) tarmog'iga ulangan. Mazkur agentliklar eng muhim siyosiy va iqtisodiy yangiliklar hamda valyutalar kurslari haqida xabar berib turadilar.

XX asrning 70-yillaridan boshlab valyutalar bilan ayrim operatsiyalar tovar birjalarida amalga oshiriladi (masalan, fyuchers va option valyuta operatsiyalari Chikago hamda Nyu-York tovar birjalarida).

O'zbekistonda ham valyuta birjasi tashkil etilgan va u Respublika Valyuta Birjasi deb ataladi. Mazkur birjaning xususiyatlari tarifi shundaki ushbu birjada nafaqat valyuta operatsiyalari, balki fond (davlat qisqa muddatli obligatsiyalari) operatsiyalari ham amalga oshiriladi.

Valyuta, kredit, moliya va oltin bozorlari o'rtasidagi kuchayib borayotgan bog'liqlik munosabati bilan eng yirik banklarda "valyuta zali" kontseptsiyasi joriy etilgan. Bankning turli bo'lmlarida amalga oshiriladigan ushbu bozorlardagi operatsiyalar "valyuta zalida" birlashtirilgan. Bu bilan to'liq ma'lumotga, turli bozor segmentlarining o'zaro manfaatli operatsiyalarida dilerlar o'rtasidagi yaqindan aloqaga, zikr etilgan bozorlarda harakatning kelishilgan strategiya va taktikasiga erishiladi. Xorijiy valyutalardagi pozitsiyalar, oltin va qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar bank mablag'larining likvidli asosda joylashtirilishining muqobil shakllari sifatida ko'riladi. Shu bilan birgalikda xorijiy qimmatli qog'ozlarga

qo'yilmalar va valyuta-foizli arbitraj bozorning bir nechta sektorlarida aralash operatsiyalarni vujudga keltirgan holda valyutali xedjing bilan qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Kompyuter va boshqa elektron moslamalarning qo'llanilishi har daqiqada turli valyutalardagi banklar pozitsiyalarini hamda alohida banklar bilan operatsiyalarni nazorat qilish imkonini beradi. Operatsiyalarning avtomatlashтирilган qayta ishlovi aylanmalar imkonini oshiradi, pul o'tkazmasining aniqligi va o'z vaqtidaligini hamda valyuta kelib tushishini kafolatlaydi. Telekommunikatsiya tizimlarining SWIFT asosida rivojlanishi tez va kam xarajatli asosda bitimlarni amalga oshirish, xususan valyuta kelib tushganligi haqidagi tasdiqnomani bitim amalga oshganidan so'ng ertasi kun nahorida, ya'ni banklar hisobvaraqlariga pullar olinishining real vaqtidan avvalroq olish imkonini beradi. Reyter-diling elektron tizimi banklarga ushbu tizimga ulangan manfaatdor banklar bilan bir zumda aloqalarni o'rnatish hamda bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Biroq qimmat turadigan elektron va kompyuter jihozlarini sotib olishga valyuta bozorida hukmron bo'lgan yirik banklarninggina qurbi etadi. Valyuta zali jihozlari hamda Reyter va Telereyt tizimlariga a'zolik, kompyuterlar hamda bitimlarning dastur ta'minotlari qiymati millionlab dollarlar, yirik zallar uchun esa o'n millionlab dollarlar turadi. Jahonning eng yirik banklari mijozlariga uydan chiqmagan holda bankdan uzoqda joylashgan terminal orqali o'z hisobvaraqlarini boshqarish yuzasidan operatsiyalarning ma'lum bir to'plamini, jahon valyuta bozorlarida valyutani sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beruvchi "virtual banklar" (virtual banking) kontseptsiyasini joriy etishga kirishdi.

XX asrning 90-yillarini ikkinchi yarmida mavjud ("REUTERS dealing 2000", "Telereuter", "TENFORE" va boshqa shu kabi) diling tizimlari juft valyutalarning elektron savdolarida jadal ishlataladigan elektron broker tizimlari bilan to'ldirilgan edi. Konversiya bilan bog'liq jami operatsiyalar ichida 1996 yilda USD/DEM operatsiyalari zimmasiga 22%, USD/JPYga – 17%, GBP/USDga – 11% va boshqa valyuta juftliklariga 50% to'g'ri kelar edi. 1996 yilda Tokio brokerlik bozoridagi dollar-yena bo'yicha operatsiyalarning 50%dan ziyodiga elektron broker tarmoqlari tomonidan xizmat ko'rsatilgan. Savdolar "parket"da "ovoz" orqali amalga oshadigan an'anaviy valyuta birjasidan farqli o'laroq Chikago, Frankfurt-Mayna, Tokio, Singapur va boshqa jahon bozorlarida elektron birjalari paydo bo'ldi. Ushbu birjalarning jihozlanishi nafaqat jahon bozorlaridagi valyuta kurslari va foiz stavkalari haqidagi har taraflama ma'lumotlarni olish hamda ushbu bozorlarda operatsiyalarni amalga oshirish, balki tahliliy ishlarni olib borish va valyuta kurslari dinamikasini prognozlash imkonini berdi.

Valyuta bo'limlarining dilerlik xizmati bir necha o'n, ayrim holatlarda esa yuzdan ortiq xodimlarni o'z ichiga oladi. Ularning ichida dilerlar, iqtisodchi-tahlilchilar, menejerlar mavjud. Dilerlar (Frantsiyada ularni odatda kambistlar deb

atashadi) – valyuta oldi-sotdisi bo'yicha mutaxassislardir. Ularning o'rtasida ishning taqsimoti valyutalar va operatsiyalar (savdo-sanoat toifasidagi mijozlar, banklararo, naqdli, muddatli va boshqa shu kabilar)ning turiga qarab amalga oshadi. Nisbatan tajribali dilerlar – bosh, katta dilerlar – arbitraj operatsiyalarini amalga oshirish hamda valyutalarda chayqov pozitsiyalarini vujudga keltirish huquqiga ega. Iqtisodchi-tahlilchilar iqtisodiyot, siyosat, xalqaro hisob-kitoblarning rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish asosida valyuta kurslari va foiz stavkalari harakatini prognoz qiladi. Ular mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda tavsiyalar sifatida ishlatiladigan valyuta tavakkalchiliklarini baholash hamda sug'urtlashning eng samarali usullarining ekonometrik modellarini ishlab chiqadi. Prognozlashning asosiy qismi kompyuter yordamida ekonometrik modellar negizida amalga oshadi. Statistik grafik (chart)lar asosida valyuta kurslarining harakat tendentsiyalari, muayyan kurs nuqtalaridagi ularning tebranishini aniqlash "qarshilik nuqtalari"ni hisobga oluvchi dilerlar harakatida katta rol o'ynaydi. Ushbu "qarshilik nuqtalari"dan oshib o'tilishi kurslarda katta o'zgarish ro'y berishi ehtimolini anglatadi. Valyuta operatsiyalariga umumiylarlik, bankning ishchi organi bo'l mish valyuta qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan valyuta siyosatiga amal qiluvchi menejerlar zimmasiga yuklatiladi. Nisbatan kichik banklarda diler bir vaqtning o'zida ham ekspert, ham operator sifatida maydonga chiqadi.

Valyuta kurslarining qisqa va o'rta muddatli dinamikasi tendentsiyalarini prognozlash hamda aniqlashda valyuta bozori kon'yunkturasiga ta'sir etuvchi omillar (yalpi ichki mahsulotning hajmi, sanoat ishlab chiqarishining o'sishi, ishsizlik darajasi, ulgurji va chakana baholar indekslari, to'lov balansi asosiy moddalarining ahvoli, foiz stavkalarining dinamikasi) tahlil etiladi. Olingan ma'lumotlar asosida valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning strategiya va taktikasi ishlab chiqiladi. Biroq prognozlarning ishonchlilik darajasi unchalik katta emas, chunki valyuta bitimlari ob'ektiv va sub'ektiv tavsifidagi xavf-xatarlar ta'siridadir. Xavf-xatarning ob'ektivligi, valyuta kurslarining uzoq muddatli davr ichida turli mamlakatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga, qisqa muddatli davr ichida esa siyosiy voqealar, iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat organlarining qarorlariga, mish-mishlar va payt poylashlarga bog'liqligi bilan asoslanadi. Xatarning sub'ektivligi esa diler tomonidan o'z vakolatlari doirasida valyuta kursidan kelib chiqqan holda amalga oshirayotgan oldi-sotdi operatsiyasining hajmi yuzasidan qabul qilayotgan qarori bilan asoslanadi. Daqiqalar ichida o'nlab million dollarlarga bitimlar tuzilishini hisobga olgan holda dilerlarning noto'g'ri qabul qilgan qarorlari ob'ektiv omillar bilan birgalikda, ayniqsa yirik bitimlarda, katta yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

1974 yilda De Bryussel banki katta zarar ko'rdi va bankrotlikdan Lamber Bank hamda Bryussel-Lamber komapaniyasi bilan qo'shilishi va ushbu asosda Bryussel-Lamber moliyaviy guruhi barpo etilishi evaziga qutildi. Ba'zi banklar valyuta chayqovi

bilan haddan tashqari ko'p shug'ullanishi oqibatida masalan 1974 yilda Franklin neshnl benk (AQSh), 1973 yilda Bankxaus Xershtatt (GFR) bankrotlikka uchradi. Chayqov valyuta operatsiyalari oqibatida Yaponianing Fudzi banki 1984 yilda 11,5 mlrd. yena zarar ko'rdi va ushbu zarar uning portfelidagi bir qism qimmatli qog'ozlarning sotilishi hisobiga qoplandi. 1997-1998 yillarda Janubi-Sharqiy Osiyo hududi va boshqa mamlakatlarda ro'y bergan chuqur moliyaviy hamda valyuta inqirozi jahon bo'ylab banklar va firmalarning valyutadagi katta talofatlariga olib keldi.

Banklarning bankrotligi valyuta operatsiyalari ustidan bank rahbariyati va tegishli davlat organlari nazoratining kuchayishiga olib keldi. Banklar ustidan nazoratning milliy organlari kapital harakati va banklar xavf-xatarlari hajmlarini nazorat qilish maqsadida ularning valyuta pozitsiyalarini kuzatadi. Jahon valyuta va kredit bozorlaridagi operatsiyalar milliy hamda xalqaro organlarning muntazam o'rghanish ob'ekti bo'lib xizmat qiladi. Mazkur choranning zarurligi valyuta va qimmatli qog'ozlar kurslari hamda foiz stavkalarini eksport va import hamda kapitallar harakati orqali ishlab chiqarishning rivojlanish istiqbollari, kon'yunktura, inflyatsiya sur'atlariga sezilarli ta'sir qilishidadir.

Banklararo bozor to'g'ridan-to'g'ri va brokerlik bozorlariga bo'linadi. Shu sababli brokerlik firmalari valyuta bozorining institutsional tarkibiy tuzilishining qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Jami valyuta operatsiyalarining 30 foizi ushbu firmalar orqali o'tadi. Brokerlik firmalari xizmatlari uchun vositachilik haqi (sotilgan yoki sotib olingan har bir million dollar uchun 20 AQSh dollarigacha yoki uning ekvivalentini) oladilar. Banklararo aloqalarning elektron vositalari hamda valyuta bitimlari (Reyter-diling, Telereyt) amalga oshirilishining rivojlanishi bilan brokerlik firmalarining banklararo bozordagi roli pasaydi. Ammo xususiy shaxslar hamda nisbatan kichik firmalar operatsiyalarida ular hamon katta rol o'ynab kelmoqda.

Xalqaro amaliyotda broker xizmatlarining vositachilik haqini hisoblash tizimi qabul qilingan. Ushbu haqning to'lanishi valyutaning sotuvchisi va sotib oluvchisi o'rtalarida barobar taqsimlanadi hamda kotirovkaga qo'shilmaydi. Vositachilik haqi kontragentlar tomonidan odatda oyma-oy bevosita brokerga to'lanadi. Faqat AQShning valyuta bozorlarida brokerning vositachilik haqi ko'p vaqt mobaynida sotuvchilar kursiga qo'shib kelingan va valyuta sotilganidan so'ng brokerga to'langan. 1978 yilning sentyabridan boshlab Nyu-York valyuta brokerlari Assotsiatsiyasining qaroriga asosan broker xizmatlarining vositachilik haqi hisoblashning amalda bo'lган xalqaro amaliyoti AQSh valyuta bozorlariga kiritilgan.

Valyuta operatsiyalarining hajmi va tavsifi, ishlatilayotgan valyutalarning soni hamda erkinlashtirishning darajasiga ko'ra valyuta bozorlari jahon, hududiy va milliy (mahalliy) bozorlarga bo'linadi.

Jahon valyuta bozorlari jahon moliyaviy markazlarida to'plangandir. Ularning ichida London, Nyu-York, Frankfurt-Mayna, Parij, Tsyurix, Tokio, Syangan,

Singapur, Bahrayndagi valyuta bozorlari ko'zga tashlanadi. Jahon valyuta bozorlarida banklar jahon to'lov aylanmasida keng ishlataladigan valyutalar bilan operatsiyalarini amalga oshiradilar. Hududiy va mahalliy ahamiyatga ega bo'lган valyutalar bilan esa, ularning maqomi hamda ishonchliligidan qat'iy nazar, banklar bitimlarni deyarli amalga oshirmaydilar. London valyuta bozori (400-460 mld. dollar yoki jahondagi kunlik valyuta bitimlarining 30%dan ziyodi) etakchilikni qo'lда saqlab kelmoqda. Ushbu ko'rsatkich Parijdagi valyuta operatsiyalari hajmidan 9 marta, Frankfurt-Maynadagidan 5 marta, Nyu-Yorkdagidan 2 marta ko'pdir. Jahon valyuta aylanmasining 40 foizi Evropa bozoriga, 40 foizi AQSh bozoriga va 20 foizi Osiyo bozoriga to'g'ri keladi.

London o'zining ushbu jarayondagi katta tajribasi, valyuta operatsiyalarining likvidliligi, xorijiy banklarning ko'pligi (76 mamlakatdan 524 bank) tufayli xorijiy valyutalar bilan savdoda azaldan etakchi edi. G'arbiy Evropadagi integratsiya jarayoni natijasida xalqaro (hududiy) Evropa valyuta bozori shaklandi va 1979-1998 yillar mobaynida ushbu bozordagi hisob-kitoblar EKYuda amalga oshirildi. 1999 yilning yanvaridan boshlab Evropa valyuta bozori rivojlanishining yangi bosqichi boshlandi va undagi hisob-kitoblar Evropaning yangi kollektiv valyutasi "evro"da amalga oshadigan bo'ldi. Evro kursining dollarga va euro hududiga kirmaydigan mamlakatlar valyutalariga nisbatan kotirovkasini Frankfurt-Maynadagi Evropa Markaziy banki amalga oshiradi.

Osiyo hududida Singapur valyuta bozori katta odimlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu bozor o'zining kunlik operatsiyalari hajmi (139 mld. dollar) bo'yicha Tokiodan (149 mld. dollar) keyin 2-o'rinni egalladi. Osiyoning boshqa mamlakatlari bozorlariga qaraganda erkinroq bo'lган Singapur bozorida amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmining 1995 yildan 1998 yilgacha bo'lган davr ichida 32 foizli o'simiga erishildi. Xuddi shu davr ichida esa Tokioda ushbu operatsiyalarning xajmi 8 foizga, Gokongda – 13 foizga qisqardi.

Hududiy va mahalliy valyuta bozorlarida konvertatsiya qilinadigan muayyan bir valyutalar bilan operatsiyalar amalga oshiriladi. Ushbu valyutalar qatoriga Singapur dollari, Saudiya riyali, Quvayt dinori va boshqa shu kabi valyutalar kiradi. Muayyan bir hududda valyuta operatsiyalari uchun ishlataladigan valyutalarning kotirovkasi ushbu hudud banklari tomonidan nisbatan muntazam bo'lган asosda amalga oshiriladi. Mahalliy ahamiyatdagi valyutalarning kotirovkasi esa ushbu valyutalar mahalliy deb hisoblanmish banklar tomonidan amalga oshiriladi.

Valyuta bozorlari iqtisodiyot va siyosatdagi o'zgarishlarga sezgir bo'lib, ularga o'z aks ta'sirini o'tkazgan holda jahon xo'jaligining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Xo'jalik hayotining baynalmilallahuvi valyuta bozorlarining rivojlanishiga ko'maklashadi. Jahon valyuta bozorlaridagi bir sutkalik bitimlarning hajmi zamонави sharoitda 2 trln. AQSh dollaridan ziyodni tashkil qiladi. Kurs

nisbatlarining keskin tebranishi valyuta bozorlari faoliyatini qiyinlashtiradi. Valyuta bozorlarining mexanizmi valyuta chayqovi uchun sharoit yaratib beradi, chunki ushbu mexanizm valyutaga haqiqatda ega bo'lмаган holda bitimlarni amalga oshirish imkonini beradi. Valyuta operatsiyalari natijasida “qaynoq pullar”ning stixiyali harakati, kapitalning “qochib ketishi”, valyuta kurslarining tebranishi kuchayadi. “Valyuta talvasasi” kuchsiz valyutalarga salbiy ta’sir etadi, ayrim mamlakatlarning valyuta-iqtisodiy holati, jahon iqtisodiyoti va valyuta tizimining barqarorsizligini oshiradi. Valyuta bozorlarining stixiyali faoliyati oqibatida og’irlashayotgan valyuta qiyinchiliklari mamlakatlar iqtisodiy siyosatiga ma’lum bir ta’sir ko’rsatadi va iqtisodiyotni muvofiqlashtirish yuzasidan ularning o’zaro kelishilgan xattiharakatlarining muhim muammosi bo’lib hisoblanadi.

Xalqaro kredit bozori

- 1. Xalqaro kredit: tushunchasi, funktsiyalari va roli.**
- 2. Xalqaro kredit bozorining tarkibiy tuzilishi, ishtirokchilarini**
- 3. Xalqaro kredit bozorida kreditlarning asosiy shakllari tasnifi.**
- 4. Xalqaro kreditlarning zamonaviy shakllari.**
- 5. O’zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalqaro kredit resurslari jalb etish amaliyoti.**





Халқаро кредитнинг функциялари



Кенгайтирилган ишлаб чиқариш эҳтиёжларини таъминлаш мақсадида ссуда капиталининг давлатлар ўртасида қайта тақсимланиши



Хақиқий пулларни кредит пулларга алмаштириш йўли билан халқаро ҳисоб-китобларда муомала харажатларини тежаш



Капиталнинг тўпланиши ва марказлашувини тезлаштириш



Халқаро кредит бутун глобал молия бозорини тартибга солувчи инструментни ўзада акс эттиради

Халқаро кредитнинг ижобий роли қўйидагиларда намоён бўлади

Миллий ишлаб чиқариш жараёнини тезлаштиради ва кенгайтиради

Мамлакатнинг ташқи иқтисодий фаолиятини рағбатлантиради

Кредитор давлат корхоналарининг рақобатбардошлигини оширувчи восита сифатида хизмат қиласди

Хорижий хусусий инвестицияларга қулай шароит яратади

Халқаро молия бозорининг бошқа сегментларининг ривожланишига қулай шароит яратади ва ҳ.к.



Халқаро кредитнинг салбий роли қуидагиларда намоён бўлади

- 1. Иқтисодиётда номутаносибликни кучайтиради
- 2. Таъминот ва капитал бозори учун давлатлар ўртасида курашни кескинлаштиради
- 3. Пул муомаласи, валюта тизими ва тўлов балансининг барқарорлигини издан чиқаради
- 4. Ташки қарз инқирозини келтириб чиқаради

2. Халқаро кредит бозорининг таркибий тузилиши, иштирокчилари

Халқаро кредит бозорининг асосий тавсифлари

Бозор тавсифи	Халқаро кредит бозорининг тавсифи
1. Сотув учун ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг мавжудлиги	1. Кредит
2. Бозорнинг асосий функцияси	2. Халқаро кредит бозорида кредитларнинг олди-сотдиси
3. Бозор иштирокчилари	3. Кредиторлар,карздорлар (дебиторлар) ва воситачилар (банклар, халқаро молия муассасалари ва бошқалар)
4. Кредит нархи	4. Халқаро кредит нархи-талаб ва таклиф қонунлари асосида белгиланадиган фоиз
5.Бозорни тартибга солиниши	5. Халқаро кредит бозорининг ўзини-ўзи тартибга солиши ва ХВФ томонидан тартибга солиниши



ХКБда кредитларнинг таснифланиши

Таснифлаш белгилари	Халқаро кредит шакллари
1. Манбалар бўйича	Ички, Хорижий (ташки), Аралаш
2. Аҳамиятига кўра	Тижорат, Молиявий, Оралиқ
3. Кўриниши бўйича	Товар (экспорт), Валюта (банк)
4. Валюта тури бўйича	Қарздор-давлатнинг валютасида Кредитор-давлатнинг валютасида Учинчи давлатнинг валютасида Халқаро валюталарда
5. Муддати бўйича	Қисқа муддатли (1 йил гача) Ўрта муддатли (1 йилдан 5 йилгача) Узок муддатли (5 йилдан ортик)
6. Таъминот тури бўйича	Таъминланган Таъминланмаган
7. Такдим этиш техникаси бўйича	Молиявий Акцентланган Депозит сертификатлар Облигацияли Консорциумли (жамоавий)

3. Халқаро кредит бозорида кредитларнинг асосий шакллари таснифи





4. Халқаро кредитларнинг замонавий шакллари

Лойиҳавий кредитлаш

Лизинг

Факторинг

Форфейтинг

Лойиҳавий кредитлашнинг 6 босқичли инвестицион цикли



кредитлаш объектини излаш



лоиҳа даромадлилиги ва рискини баҳолаш



кредит схемасини ишлаб чиқиш



кредитнинг барча иштирокчилари билан келишув хуносаси



кредитни түлиқ қоплаш дастурининг бажарилиши



молиявий натижаларни баҳолаш

ЛИЗИНГНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Лизинг доирасида хизматлар пакетининг кенглиги

Объектни тайёр ҳолда олиш имконияти

Мижознинг кредитор (лизинг компанияси) билан кредитлашни барча шартларига рози бўлиши

Жаҳон амалиётига кўра лизинг бўйича мажбурият мамлакат ташқи қарзи ҳажмига қўшилмайди

Кредитнинг муддати тўлиқ ва ўртacha бўлади.

Кредитнинг тўлиқ муддати - кредитни фойдаланиш вақтидан бошлаб унинг тўла қайтарилишигача бўлган муддатни ўз ичига олади.

У қуйидагича аниқланади:

$$C_n = \Pi_u + L_n + \Pi_n$$



Бу ерда, C_n – кредитнинг тўла муддати, Π_u – фойдаланиш муддати, L_n – имтиёзли муддат, Π_n – кредитни қайтариш муддати.

Турли хил шартлардаги кредитларнинг самарадорлигини таққослаш учун кредитнинг ўртача муддатидан фойдаланилади.

$$C_{cp} = 0,5P_u + L_n + 0,5P_n$$



Бу ерда, C_{cp} – кредитнинг ўртача муддати;
 $0,5P_u$ – фойдаланиш муддатининг ярими;
 L_n – имтиёзли муддат;
 $0,5P_n$ – кредитни қайтариш муддатининг ярими.

Кредитнинг ўртача муддати унинг тўла муддатидан кам. Агар кредит суммаси тўла миқдорда берилиб, кейинчалик бирданига қайтариладиган бўлса, унинг тўла муддати ва ўртача муддати тенг бўлиши мумкин. Агарда кредитдан фойдаланиш ёки унинг қайтарилиши бир маромда бўлмаса, унда кредитнинг ўртача муддати қўйидагича аниқланади:



$$C_{cp} = \frac{HK_1 + HK_2 + HK_3 + \dots}{Lim},$$

Бу ерда, C_{cp} – кредитнинг ўртача муддати;
 HK – фойдаланиш муддатининг ярими;
 Lim – кредит (лимит) суммаси.


Кредит қийматининг асосий элементларига қарздор томонидан тўланадиган маблағлар киради:

$$C_k = Kd + \sum P$$



Бу ерда, C_k -кредит кредитнинг умумий қиймати;
 Kd -кредитнинг тан нархи;
 $\sum P$ -кредит бўйича тўланган барча фоизлар йиғиндиси.

5. Ўзбекистон ижтимоий-иқтисодий ривожланишига халқаро кредит ресурслари жалб этиш амалиёти



Халқаро кафолатлар - марказий банклар, тижорат банклари, корпорациялар, хукумат ва халқаро ташкилотлар томонидан берилади.

Халқаро кафолатларниң кўйидаги асосий турлари
мавжуд

Тўғри кафолатлар — бунда кафолат берувчи томон бевосита экспорт-импорт операцияларига кафолат беради. Бунда мазкур тўлов бўйича мажбуриятларни тўлиқ ўз зиммасига олади. Бундай кафолатлар тўлов талабномалари бўйича хисоб-китоблар, хужжатлаштирилган аккредитив бўйича хисоб-китобларда кенг қўлланилади

Воситалашган кафолатлар—бунда кафолат берувчи ўзига хос тарзда воситачилик вазифасини ўтайди. Бундай кафолатлар экспорт-импорт операцияларида кенг ишлатилади

Тасдиқланган кафолатлар—бундай кафолатлар берилган кафолатларни тасдиқлаш шаклида намоён бўлади. Масалан, банк ўз мижози бўлган импорт килувчининг тўлов мажбуриятлари бўйича кафолат берган бўлса, экспорт килувчининг банки ҳам ушбу кафолатлар бўйича мажбуриятни ўз зиммасига олади.

XALQARO KREDIT MUNOSABATLARI

Xalqaro kredit xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, muddatlilik hamda foiz to'lash shartlari asosida taqdim

etilishi bilan bog'liq ssuda kapitalining harakatidir. Kreditorlar va qarz oluvchilar sifatida xususiy korxona (bank, firma)lar, davlat tashkilotlari, hukumatlar, xalqaro hamda hududiy valyuta-kredit va moliyaviy tashkilotlar maydonga chiqadi.

Xalqaro kredit kapitalistik ishlab chiqarish usulining dastlabki bosqichlarida vujudga kelgan va kapitalni dastlabki jamg'arishning richaglaridan biri edi. Ishlab chiqarishning milliy chegaralardan tashqariga chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalmilallashuvining kuchayishi, kapitalning xalqaro jihatdan ijtimoiylashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hamda ilmiy-texnik inqilob uning rivojlanishini ob'ektiv asosi bo'ldi.

Xalqaro kreditning manbalari bo'lib: korxonalardagi mablag'larning davriy aylanishi jarayonida vaqtincha bo'sh bo'lib qoladigan pul shaklidagi kapitalning bir qismi; banklar tomonidan yig'ib, jamlanadigan davlat va xususiy sektorning pul jamg'armalari hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarish jarayonining ayrim joylarida xalqaro kreditga ob'ektiv zarurat tug'iladi. Ushbu zarurat: 1) mablag'larning xo'jalikdagi doiraviy aylanishi bilan bog'liq; 2) mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishning xususiyatlari bilan bog'liq; 3) tashqi iqtisodiy bitimlarning hajmi va muddatlaridagi farqlar bilan bog'liq; 4) ishlab chiqarishni kengaytirishga mo'ljallangan yirik kapital qo'yilmalarini amalga oshirilish zarurati bilan bog'liq.

Xalqaro kreditning tamoyillari. Xalqaro kreditning takror ishlab chiqarish bilan aloqasi uning tamoyillarida aks etadi:

1) qaytarishliligi; agarda olingan mablag'lar qaytarilmayotgan bo'lsa, unda ushbu holat kapitalni qaytarmaslik sharti bilan berilishiga, ya'ni moliyalashtirishga aloqadordir;

2) muddatlilik; kredit kelishuvida belgilangan muddatlarda kredit qaytarilishini ta'minlaydi;

3) to'lovlilik; qiymat qonuni harakatini aks ettirgan holda kreditning har bir holatidagi alohida shartlarni amalga oshirish usulidir;

4) moddiy ta'minlanganligi; kredit so'ndirilishining kafolatida o'z aksini topadi;

5) maqsadli yo'nalishi; ssudaning aniq bir ob'ektlarini belgilanishi.

Xalqaro kreditning tamoyillari uning bozor iqtisodiy qonunlari bilan aloqalarini ifodalaydi va bozor sub'ektlari hamda davlatning joriy hamda strategik vazifalariga erishish maqsadida ishlatiladi.

Xalqaro kreditning funktsiyalari. Xalqaro kredit ssuda kapitalining tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonidagi harakat xususiyatini aks ettiruvchi quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

1)kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirish uchun ssuda kapitallarining mamlakatlararo qayta taqsimoti. Ssuda kapitali xalqaro kredit mexanizmi orqali foydalarni ta'minlash maqsadida iqtisodiy agentlar afzal ko'rjan

jarayonlarga yo'naltiriladi. Ushbu bilan kredit milliy foydani o'rtacha foyda darajasida bixillashtirilishiga hamda uning massasini oshishiga ko'maklashadi;

2) xalqaro hisob-kitoblar jarayonida haqiqiy pullarni (oltin va kumush) kredit pullarga almashtirilishi hamda naqdsiz to'lovlarning rivojlanishi va tezlashtirilishi, naqdli valyuta muomalasini xalqaro kredit operatsiyalari bilan almashtirilishi orqali muomala xarajatlarining tejalishi. Xalqaro kredit zaminida xalqaro hisob-kitoblarning veksellar, cheklar hamda bank pul o'tkazmalari, depozit sertifikatlari va boshqa shu singari kredit vositalari paydo bo'ldi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jarayonida ssuda kapitali muomala davrining tejalishi ishlab chiqarishning kengayishi va foyda o'simini ta'minlagan holda kapitalning unumli muomala davrini oshiradi;

3) kapital to'planuvi va markazlashuvining tezlashishi. Xorijiy kreditlar jalg etilishi evaziga qo'shimcha qiymatning kapitalizatsiya jarayoni tezlashadi, individual jamg'arish chegaralari kengayadi, bir mamlakat tadbirkorlarining kapitallari ularga boshqa mamlakatlar mablag'larining qo'shilishi hisobiga ko'payadi. Xalqaro kredit azaldan individual korxonalarini aktsiyadorlik jamiyatlariga aylanishi, yangi firmalar, monopoliyalar barpo etilishining omili sifatida maydonga chiqadi. Kredit boshqa mamlakatlarning kapitali, mulki va mehnatidan ma'lum bir chegaralarda foydalanish imkoniyatini beradi. Yirik kompaniyalarga taqdim etiladigan imtiyozli xalqaro kreditlar va mayda hamda o'rta hajmdagi firmalarni jahon ssuda kapitallari bozoriga chiqishining qiyinligi kapital to'planuvi va markazlashuvining kuchayishiga ko'maklashadi.

Milliy va jahon xo'jaligining rivojlanishi bilan xalqaro kredit funksiyalarining ahamiyati bir xilda bo'lmay, o'zgaruvchanlik xususiyatiga egadir. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro kredit iqtisodiyotni muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi hamda bir vaqtning o'zida o'zi ham muvofiqlashtirish ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Xalqaro kreditning ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi roli. Xalqaro kredit o'zaro bog'liq funksiyalarni bajarish orqali ikki yoqlama, ya'ni ijobiy va salbiy rol o'ynaydi.

Xalqaro kreditning ijobiy roli takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlanishi hamda uning kengayishi orqali ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining tezlashishida o'z aksini topadi. Ushbuda ularning o'zaro aloqasi aks etadi. Xalqaro kredit tashqi iqtisodiy aloqalarga va pirovard oqibatda takror ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi bog'lovchi bo'g'in hamda uzatkich mexanizmi rolini o'ynaydi. Ishlab chiqarish o'sishining mahsuli bo'lgani holda xalqaro kredit bir vaqtning o'zida uning zaruriy sharti va katalizatori bo'lib ham hisoblanadi. U ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining baynalmilallahuvi, jahon bozorining shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashadi va xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi. Xalqaro kredit takror ishlab chiqarish jarayonini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tezlashishiga ko'maklashadi:

birinchidan, kredit mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Ushbu bilan bozordagi kon'yunkturani ushlab turish uchun qo'shimcha talab vujudga keladi. Kredit hisobiga amalga oshadigan tashqi savdo ayniqsa ishlab chiqarish va iste'molning uzun tsikliga hamda yuqori qiymatga ega tovarlar uchun xalqaro me'yorga aylandi. Importyor va eksportyorlar mahsulotning qimmatlashishi hamda jahon savdosida mashina va jihozlar ulushining oshishi sharoitida tashqi savdo kreditlarini ishlatishdan manfaatdordir. Xorijdagи korxonalar qurilishi ham import qilinayotgan, ayniqsa texnologik va energetik jihozlar uchun to'lanayotgan kredit hisobiga amalga oshiriladi. Zamonaviy sharoitlarda kreditlarning kreditor mamlakatdan tovarlarni eksport qilinishi bilan "bog'langanligi" o'sdi. Mazkur kredit kreditor mamlakatda tovarlar sotib olishga ishlatilishi qarz munosabatlarining sharti qilib qo'yiladi. Ushbu bilan xalqaro kredit kreditor mamlakat firmalarining raqobatdoshligini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, xalqaro kredit xorijiy xususiy investitsiyalar uchun imtiyozli sharoitlarni yaratadi, chunki ushbu imtiyozlar kreditor mamlakat investorlariga taqdim etiladigan imtiyozlar bilan bog'liqdir. Shu bilan birgalikda korxonalar, shu jumladan xorijiy va qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish uchun ishlatiladi, xalqaro kapital bilan bog'liq milliy korxonalar, banklar mavqeini mustahkamlashga ko'maklashadi;

uchinchidan, kredit mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalariga xizmat ko'rsatuvchi xalqaro hisob-kitoblar va valyuta operatsiyalarining uzluksizligini ta'minlaydi;

to'rtinchidan, kredit tashqi savdo va mamlakatning boshqa tashqi iqtisodiy faoliyat turlari iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Xalqaro kreditning bozor iqtisodiyoti rivojlanishidagi salbiy roli uning qaramaqarshiliklarini kuchayishida o'z ifodasini topadi. Birinchi navbatda iqtisodiyotdagi nomutanosib bo'lgan nisbatlar kuchayadi. Xalqaro kredit ssuda kapitalining mamlakatlar o'rtasidagi qayta taqsimotini amalga oshirgan hamda ishlab chiqarishni uning ko'tarilishi va tushib ketishi davrlarida notekis o'sishiga ko'maklashgan holda tovarlarni keragidan ko'p bo'lgan hajmlarda ishlab chiqarilishiga ta'sir etadi. Xalqaro kredit nisbatan foydaliroq bo'lgan tarmoqlar rivojlanishini osonlashtirgan hamda xorijiy kapital jalb etilmagan tarmoqlar rivojiga to'sqinlik qilgan holda ijtimoiy takror ishlab chiqarishning nomutanosib nisbatlarini kuchaytiradi. Xalqaro kredit mamlakatlarning tovar iste'moli bozorlari, kapital investitsiyalari jarayonlari, xom ashyo manbalari, ilmiy-texnik taraqqiyotning hal qiluvchi sohalaridagi etakchilik uchun raqobat kurashlarining qurolidir. Korxonalar ushbu kreditdan xom ashyo manbalarini sotib olish, mahsulot sotish bozorlarini kengaytirish, kapital investitsiya jarayonlarini kengaytirish maqsadlarida faol foydalanadilar. Ssuda kapitallari jahon bozorining kanallari bo'yicha pul muomalasi va kredit, valyuta tizimi, to'lov balanslari

hamda milliy va jahon iqtisodiyotlarining yalpi barqarorsizligini kuchaytiradigan “qaynoq” pullar harakati amalga oshadi.

Mamlakatlarning kredit siyosati jahon bozorlarida kreditor mamlakat mavqelarini mustahkamlash vositasi bo’lib xizmat qiladi.

Birinchidan, xalqaro kredit kreditor mamlakatlar mavqelarini o’stirgan holda olingan foydalarni qarzdor mamlakatlardan o’tkazish uchun ishlatiladi. Shu bilan birgalikda ssudalarni foizlar bilan qaytimining jamiyat sof daromadining ma’lum bir hajmidan oshgan yillik to’lovleri qarzdor mamlakatlarda mazkur jamg’armalarining shakllanish manbalariga salbiy ta’sir etadi.

Ikkinchidan, xalqaro kredit qarzdor mamlakatlarda kreditor mamlakatlar uchun qulay bo’lgan iqtisodiy va siyosiy rejimlarning yaratilishi hamda mustahkamlanishiga ko’maklashadi.

Ishlab chiqarish va almashuvning baynalmilallashuvi, jahon xo’jalik aloqalari yangi shakllarining paydo bo’lishi xalqaro kreditning turli shakllari rivojlanishiga ob’ektiv asos bo’lib xizmat qiladi.

Xalqaro kreditning shakllari

Xalqaro kreditning turli shakllarini kredit munosabatlarining ayrim tomonlarini xarakterlovchi bir nechta muhim omillariga ko’ra umumiylashtirishning ichki, xorijiy va aralash turlari farqlanadi. Ular o’zaro yaqindan bog’liqdir hamda eksportyordan importyorgacha bo’lgan tovar harakatining barcha bosqichlariga xizmat ko’rsatadi. Tovar sotuv jarayoniga qanchalik yaqin bo’lsa, odatda xalqaro kreditning shartlari qarz oluvchiga shunchalik yoqimli bo’ladi;

-belgilanishiga ko’ra tashqi iqtisodiy bitimning qaysi biri qarz mablag’lari hisobiga qoplanishiga bog’liq holda quyidagilar farqlanadi:

1)tashqi savdo va xizmatlar bilan bevosita bog’liq tijorat kreditlari;

2)har qanday boshqa maqsadlarga, shu jumladan to’g’ridan-to’g’ri amalga oshiriladigan kapital qo’yilmalarga, investitsion ob’ektlar qurilishiga, qimmatli qog’ozlar sotib olishga, tashqi qarzni so’ndirishga, valyuta interventsiyasiga ishlatiladigan moliyaviy kreditlar;

3)kapital, tovarlar va xizmatlarni chetga olib chiqilishining aralash shakllariga xizmat ko’rsatishga mo’ljallangan ”oraliq” kreditlar. Masalan, pudrat ishlari (injiniring)ni amalga oshirish shaklida;

- turlariga ko’ra kreditlar eksportyorlar tomonidan o’z sotib oluvchilariga tovar shaklida va banklar tomonidan pul shaklida taqdim etiladigan valyuta turlariga bo’linadi. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar etkazib berish bo’yicha tijorat

bitimi shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi va import jihozlar zaminida ob'ekt qurilishi yuzasidan mahalliy xarajatlarni kreditlash uchun ishlatiladi;

-qarz valyutasiga ko'ra qarzdor mamlakat yoki kreditor-mamlakat valyutasida, uchinchi mamlakat valyutasida hamda SDR valyuta savatiga asoslangan xalqaro hisob valyutasida taqdim etiladigan xalqaro kreditlarga farqlanadi;

-mudatlariga ko'ra xalqaro kreditlar: qisqa muddatli – 1 yilgacha, ayrim holatlarda 18 oygacha (o'ta qisqa muddatli – 3 oygacha, bir sutkalik va bir haftalik), o'rta muddatli – 1 yildan 5 yilgacha, uzoq muddatli – 5 yildan ziyod muddatlarga beriladigan kredit turlari bo'linadi. Ba'zi mamlakatlarda 7 yilgacha muddatga berilgan kreditlar o'rta muddatli, 7 yildan ortiq muddatga berilgan kreditlar esa uzoq muddatli bo'lib hisoblanadi. Qisqa muddatli kredit odatda tadbirkorlarni aylanma kapital bilan ta'minlaydi va nosavdo, sug'urta hamda chayqov bitimlariga xizmat ko'rsatgan holda tashqi savdo va xalqaro to'lovlar muomalasida qo'llaniladi. Uzoq muddatli xalqaro kredit odatda asosiy ishlab chiqarish vositalariga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, mashinalar va butlovchi jihozlar eksportining 85 foizi hajmiga hamda tashqi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari (yirik ko'lamdagi loyiham, ilmiy tekshirish ishlari, yangi texnika joriy etilishi)ga xizmat ko'rsatadi. Agarda qisqa muddatli kreditning muddati uzaytirilsa, unda u o'rta muddatli, ayrim holatlarda esa uzoq muddatli kreditga aylanadi. Qisqa muddatli kreditlarning o'rta va uzoq muddatli kreditlarga aylanishi jarayonlarida davlat kafil sifatida faol ishtirok etadi;

-ta'minlanganlik tamoyiliga ko'ra ta'minlangan va blankali kreditlarga farqlanadi. Kreditning ta'minoti bo'lib odatda tovarlar, tovarga egalik huquqini beruvchi va boshqa tijorat hujjalari, qimmatli qog'ozlar, veksellar, ko'chmas mulk hamda qimmatliklar xizmat qiladi. Kredit olish uchun tovar garovi 3 shaklda amalga oshiriladi: qat'iy garov (tovarlarning ma'lum bir massasi bank foydasiga garov qilinadi); muomaladagi tovar garovi (ma'lum bir summadagi, tegishli assortimentdagi tovarning qoldig'i hisobga olinadi); qayta ishlovdagi tovar garovi (mazkur mahsulotlarni bankka garovga bergen holda garovga olingan tovardan mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin).

Kreditor sotilishning yuqori imkoniyatlariga ega bo'lган tovarlarni garovga olishni afzal ko'radi va ta'minot hajmini belgilashda tovar bozori kon'yunkturasini hisobga oladi. Ba'zi holatlarda kreditning ta'minoti sifatida o'rtacha bozor baholarida hisobga olingan davlat rasmiy oltin zahiralarining bir qismi ishlatiladi (1963 yilda Finlyandiyada, 1970 yillarning o'rtalarida Italiya, Urugvay, Portugaliyada).

Rivojlanib borayotgan davlatlar (ayniqsa 1980 yillarning boshlarida) o'zlarining tashqi qarzlarini so'ndirish maqsadida olingan xorijiy kreditlarning garovi sifatida oltinni deponentga olishni keng qo'llay boshladilar. Biroq oltinning garovi ustidan ssudalar shakli ko'pchilik xalqaro kreditlar uchun xos bo'lган "salbiy garov

shartlashuvi” tufayli keng tarqalmadi. Ushbu shartlashuvning mohiyati quyidagichadir: agar qarz oluvchi boshqa kreditlar bo'yicha qo'shimcha ta'minotni taqdim etsa, unda kreditor mazkur ssuda yuzasidan ham qo'shimcha ta'minotni talab qilishi mumkin. Bundan chiqdi, agar mamlakat oltin garovi ustidan kredit olgan bo'lsa, unda avval olingen kreditlarni ham oltin bilan ta'minlashni ushbu mamlakatdan talab etishlari mumkin. Shu sababli ayrim mamlakatlar oltinni sotishni afzal ko'radilar. Garov kredit kelishuvi bo'yicha majburiyatning ta'minot usuli bo'lganligi sababli qarzdor tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi holatida kreditor garov qiymatidan kompensatsiya olish huquqiga ega.

Blankali kredit qarzdorning ushbu qarzni ma'lum bir muddatda so'ndirish majburiyati ustidan beriladi. Ushbu kredit bo'yicha hujjat bo'lib odatda qarz oluvchining yagona imzosiga ega bo'lgan solo-veksel xizmat qiladi. Blankali kreditning turlari bo'lib kontokorrent va overdraft hisoblanadi.

Taqdim etilishi nuqtai nazaridan qarz oluvchi hisobvarag'iga, uning ixtiyoriga olinadigan moliyaviy (naqdli) kreditlar; importyor yoki bank tomonidan trattaning aktsepti shaklidagi aktseptli kreditlar; depozit sertifikatlari; obligatsiya zayomlari, konsortsial kreditlar va boshqa shu kabilar farqlanadi. Kreditor sifatida maydonga kim chiqishiga qarab, kreditlar: 1)firmalar, banklar, ayrim holatlarda vositachilar (brokerlar) tomonidan taqdim etiladigan xususiy kreditlarga; 2)hukumat kreditlariga; 3)xususiy korxonalar va davlat ishtirok etadigan aralash kreditlarga; 4)xalqaro va hududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning davlatlar aro kreditlariga bo'linadi.

Firma (tijorat) krediti bu, odatda bir mamlakat firmasi yoki eksportyori tomonidan boshqa mamlakat importyoriga to'loymi kechiktirish shaklida taqdim etiladigan ssudadir. Tashqi savdodagi tijorat krediti tovar operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar bilan hamrohlikda amalga oshiriladi. Firma kreditlarining muddatlari turlichadir (odatda 2-7 yilgacha) va jahon bozorlaridagi kon'yunktura shartlari, tovarlar turlari va boshqa omillar bilan belgilanadi. Mashina va murakkab jihozlar eksportining kengayishi bilan mazkur kreditlar muddatlarining uzayishi yangilik bo'ldi. Firma krediti odatda veksel bilan rasmiylashtiriladi yoki ochiq hisobvaraq bo'yicha taqdim etiladi.

Vekselli kredit, eksportyor tovarlarni sotish to'g'risidagi shartnomani tuzganidan so'ng o'tkaziladigan veksel (tratta)ni importyorga qarata chiqarilishini ko'zda tutadi. O'z navbatida importyor tijorat qog'ozlarini olganidan so'ng mazkur vekselni aktseptlaydi, ya'ni ushbu vekselda ko'rsatilgan muddatlarda to'loymi amalga oshirishga rozilik beradi.

Ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit eksportyor va importyor o'rtasidagi kelishuv yo'li orqali taqdim etiladi. Mazkur kelishuvga asosan tovarlarni etkazib beruvchi sotilgan va etkazib berilgan tovarlar qiymatini ularni sotib olgan shaxs hisobvarag'ida

qarzdorlik sifatidagi yozuvi shaklida amalga oshiradi, importyor esa olingen kreditni muddatida so'ndirish to'g'risidagi majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Ochiq hisobvaraq bo'yicha kredit tovarlarning muntazam asosda etkazib berilishi, majburiyatlarning esa oyning o'rtasi yoki oxirida davriy ravishda so'ndirilib borilishi sharoitlarida qo'llaniladi.

Firma kreditlarining ko'rinishlaridan biri bo'lib importyorning bo'nak to'lovi (sotib olish bo'naki) hisoblanadi. Bo'nak to'lovi kontrakt imzolanganidan so'ng importyor tomonidan odatda buyurtma berilgan mashina, jihoz va kemalar qiymatining 10-15 foizi (ba'zida bundan ortiq) miqdorida xorijlik tovar etkazib beruvchi foydasiga amalga oshiriladi. Sotib olish bo'nagi xalqaro hisob-kitoblar hamda eksportni kreditlashning va bir vaqtning o'zida xorijlik sotib oluvchi majburiyatlarni kafolatlashning shakllaridan biri bo'lib xizmat qiladi, chunki importyor buyurtma berilgan tovarlarni qaytarmasdan qabul qilishi lozim. Rivojlangan mamlakatlarning importyor firmalari rivojlanib borayotgan mamlakatlar bilan munosabatlarda sotib olish bo'naklaridan ushbu mamlakatlardan qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqish uchun foydalanadilar.

Bo'nakni taqdim etgan shaxs tomonidan shartnomaning bajarilmasligi sharoitida mazkur bo'nak, undan zararlar chegirib olingenidan so'ng, qaytariladi. Agarda shartnoma bo'nakni olgan shaxs tomonidan bajarilmasa, unda u mazkur bo'nakni, zararlarni qoplagan holda, sotib oluvchiga qaytarishi lozim. Bo'nak, shartnomadagi ikkinchi tarafga zararlarni qoplasmagan holda shartnoma bo'yicha majburiyatlardan ozod bo'lish imkonini beruvchi tovon to'lovidan farqli o'laroq, kontrakt bajarilishini rag'batlantiradi. Sotib olish bo'nagi ayrim holatlarda to'lovni kechiktirish shakli bilan birgalikda teng ulushlarda va ma'lum bir intervallarda (yarim yil, yil) qo'llaniladi.

Firma krediti sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalasada, u odatda bank krediti bilan birgalikda harakatlanadi. Mashinalar va jixozlar sotuvida firma krediti uzoq muddatlarga taqdim etiladi (5 yil va undan ziyod muddatlarga), bu esa eksportyorning katta hajmdagi mablag'larini ichki muomalasidan tashqariga chiqib ketishiga olib keladi. Shu sababli eksportyor odatda bank kreditlariga murojaat etadi yoki o'z kreditini banklarda qayta moliyalashtiradi. Firma kreditlari mashina va jihozlar eksportini kreditlash shartlari hamda hajmi bo'yicha kreditlash muammosini hal eta olmasligi sababli bank kreditining xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi roli o'sadi.

Bank kreditlari. Eksport va importni bank tomonidan kreditlash tovarlar, tovar hujjatlari, veksellar hamda trattalar hisobining garovi ustidan ssudalar berish shaklida amalga oshiriladi. Ayrim holatlarda banklar o'zлari bilan yaqindan munosabatda bo'lgan yirik eksportyor firmalarga rasmiy ta'minotga ega bo'limgan blankali kreditni taqdim etadilar.

Xalqaro savdodagi bank kreditlari firma kreditlari oldida imtiyozga egadir. Ular oluvchiga tovarlar sotib olishda mablag'lardan keng foydalanish va sotuvchi firmalarga kredit olish uchun murojaat etmaslik imkonini beradi hamda sotuvchilar bilan sotib olingan tovarlar uchun bank krediti hisobidan naqd puldagi hisob-kitoblarni amalga oshirish zaruratidan holis etadi. Davlat mablag'larini jalg etish va bank kafolatlaridan foydalanish evaziga xususiy banklar ko'p holatlarda eksport kreditlarini 10 – 15 yillik muddatlarga bozor foiz stavkalaridan past bo'lgan stavkalarda taqdim etadilar. Biroq banklar, odatda, kreditdan foydalanishni o'z mamlakatlari chegaralari hamda o'zlari manfaatdor bo'lgan firmalar tovarlarini sotib olish zarurati bilan chegaralab qo'yadilar. Bunda bank krediti bog'langan, maqsadli kredit xususiyatlariga ega bo'lib qoladi. Bank krediti banklar, bankirlar uyi, boshqa kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha operatsiyalarni kreditlashning muvofiqlashtirilishi, yirik hajmdagi kredit resurslarini jalg etilishi hamda tavakkalchilikni tenglik asosda taqsimlanishi maqsadida banklar konsortsiumlar, sindikatlar, bank "pul"larini tashkil etadilar. Banklar eksport va moliyaviy kreditlarni taqdim etadilar. Eksport krediti bu, eksportyor banki tomonidan importyor bankiga mashinalar, jihozlar va boshqa shu kabilarni etkazib berilishini kreditlashtirish maqsadida taqdim etiladigan kreditdir. Bank kreditlari pul shaklida beriladi va "bog'langanlik" xarakteriga ega, chunki qarz oluvchi ssudadan faqat kreditor-mamlakatida tovarlar sotib olishda foydalanishga majbur. Banklar tomonidan 60-yillardan boshlab eksportni kreditlashning shakllaridan biri bo'lib sotib oluvchiga (5 – 8 yil va bundan ziyod muddatlarga) taqdim etiladigan kredit bo'ldi.

Sotib oluvchiga taqdim etiladigan kreditning xususiyatlari shundaki, eksportyor banki milliy eksportyorning o'rniga xorijlik sotib oluvchini, ya'ni importyor mamlakat firmalari va uning banklarini bevosita kreditlaydi. Bu bilan importyor sotuvchi tomonidan taqdim etilgan to'lov talabnomalariga kreditor mablag'lari hisobiga, haq to'lagan hamda qarzdorlikni sotib oluvchi yoki uning banki zimmasiga olib borgan holda zarur bo'lgan tovarlarni sotib oladi. Odatda bunday kreditlar ma'lum bir firmadan tovar va xizmatlar sotib olish bilan bog'lanadi. Bunda eksportyor bitimni kreditlashda ishtirok etmaydi, bu esa o'z navbatida eksportyor tomonidan kredit bahosini ko'tarish imkoniyatini istisno etadi. Sotib oluvchiga taqdim etiladigan bank kreditlarining qiymati, odatda, bir necha yilga, ssuda kapitallari bozoridagi qarz mablag'lari qiymatidan past darajada qayd etiladi. Mazkur kreditning muddati sotuvchiga taqdim etiladigan kredit muddatidan katta va ushbu kreditlar odatda o'rta hamda qisqa muddatli kreditlardir. Bunday holatlarda banklar sotib olingan tovarlarga haq to'lash uchun xorijlik qarz oluvchilarga kredit yo'nalishlarini ochishlari mumkin. Eksportni kreditlashning taraqqiy etishi ushbu yo'nalishda bormoqda. Sotib oluvchiga taqdim etiladigan bank kreditlari sotuvchi (eksportyor)ga taqdim etiladi va firma kreditlarini siqib chiqarmoqda.

Moliyaviy kredit har qanday bozorlarda va imtiyozli shart-sharoitlar asosida tovarlarni sotib olish imkoniyatini beradi. Moliyaviy kredit ko'p holatlarda tovar etkazib berilishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas va asosan tashqi qarzni so'ndirish, valyuta kursini qo'llab-quvvatlash, avuarlar (hisobvaraqlar)ni xorijiy valyutada to'latish uchun mo'ljallangandir.

Yirik banklar trattaning aktsepti shaklidagi aktseptli kreditni taqdim etadilar. Eksportyorning importyor bilan kelishuviga asosan eksportyor tomonidan chiqarilgan trattalar bank tomonidan aktseptlanishi orqali tovar uchun to'lov mazkur bank tomonidan amalga oshirilishi to'g'risida kelishadi. Jeneva veksel konventsiyasi tomonidan 1930 yilda qabul qilingan Binxillashtirilgan veksel qonunchiligiga muvofiq aktsept oddiy, hech qanday shartlarsiz bo'lishi lozim. Biroq vekselning qisman summasi bilan (qisman aktsept) cheklab qo'yilishi mumkin. Angliyaning veksel huquqi umumiyligi va cheklangan (bir nechta to'lovchidan biri tomonidan imzolangan shartli, qisman, mahalliy) aktseptga yo'l qo'yadi. Aktseptant asosiy qarzdor bo'lib hisoblanadi, ya'ni vekselga belgilangan muddatda haq to'lanishiga javob beradi. To'loving amalga oshirilmasligi holatida vekselni ushlab turuvchi shaxs da'voni to'g'ridan-to'g'ri aktseptantga taqdim etish huquqiga ega. Banklar tomonidan aktseptlangan veksellar banklararo kreditlarni taqdim etishning instrumenti bo'lib xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida tashqi savdoni kreditlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bank aktseptlarining bozori mavjud. Birinchi darajali, nufuzli bank tomonidan aktseptlangan trattalar ssuda kapitallari bozorida oson sotiladi. Kreditlar ko'p holatlarda aktseptlarning yangilanishi orqali qisqa muddatli kreditlardan uzoq muddatli kreditlarga aylanadi.

Eksportni kreditlashning shakllaridan biri bo'lib aktseptli-rambursli kredit hisoblanadi. Ushbu kredit eksportyor veksellarining uchinchi davlat banki tomonidan aktseptlanishi hamda importyor tomonidan veksel summasini aktseptant-bankga o'tkazilishi (ramburslanishi)ning bog'liqlikda amalga oshishiga asoslangan.

Agarda eksportyor importyorning to'lov qobiliyatiga ishonmasa yoki sotilgan tovarlar uchun tushum sifatidagi valyutani veksel muddati etib kelgunga qadar tezroq olishga manfaatdor bo'lsa, unda u importyor bilan tovar uchun to'lovnini bank orqali, eksportyor chiqargan trattani ushbu bank tomonidan aktseptlash shaklida amalga oshirilishi to'g'risida kelishib oladi. Mazkur kelishuv amalga oshgan taqdirda importyor o'z bankiga aktsept to'g'risidagi kelishuvni tuzish to'g'risida topshiriq beradi. Aktseptant-bank o'z navbatida, vekselga to'lovnini o'z vaqtida amalga oshirilishi yuzasidan kafolatni talab etadi hamda eksportyor bankiga qarata tratta aktseptini ko'zda tutuvchi, chaqirib olinmaydigan aktseptli akkreditivni chiqaradi. Ushbu haqdagi ma'lumotnomani olganidan so'ng eksportyor tovarni jo'natadi va tratta hamda tijorat hujjatlarini yozib, ularni odatda veksel hisobini yurituvchi o'z bankiga yo'llaydi. Eksportyor banki olingan tratta va hujjatlarni aktseptant-bankka yuboradi. O'z

navbatida aktseptant-bank ushbu trattani aktseptlaganidan so'ng uni eksportyor bankiga yoki mazkur bankning vakil bankiga yoki filialiga, tovar hujjatlarini esa importyor bankiga jo'natadi. Importyor banki tegishli ta'minot, odatda importyorning tovarga bo'lgan mulk huquqini saqllovchi saqlash haqidagi tilxat ustidan importyorga tovar hujjatlarini taqdim etadi. Eksportyor banki aktseptlangan trattani qaytadan hisobga oladi. So'ng mazkur tratta, yuqorida zikr etilgan operatsiyada yalpi kreditor sifatida maydonga chiquvchi, jahon ssuda kapitallari bozorida muomalada bo'ladi. Aktseptli-rambursli kreditning xususiyatlari va imtiyozli taraflari ham ushbularadir. Tratta muddati etib kelgunga qadar importyor avval olingan ta'minot evaziga valyutani o'z bankiga ramburslaydi. Importyor banki tratta summasini, unga haq to'lanishidan bir necha kun avval aktseptant-bankka jo'natadi. Muddati etib kelganda trattaning so'nggi egasi uni aktseptant-bankka haq to'lanishi uchun taqdim etadi. O'z navbatida aktseptant-bank mazkur vekselni haqiqiy hamda so'nggi egasining qonuniy ekanligiga ishonch hosil qilish uchun indosamentning ketma-ketligini tekshiradi.

Aktseptli-rambursli kredit tashqi savdo operatsiyalari bilan bog'liq bo'lganda eng ta'minlangan bo'lib hisoblanadi va eksportyor hamda importyor o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladi. Bunda akkreditiv va o'tkaziladigan veksel vosita sifatida ishlatiladi. Aktseptli -rambursli kreditning limit, kreditning muddati, foiz stavkasi, rasmiylashtirilish, ishlatilish va so'ndirilish tartibi kabi shartlari oldindan tuzilgan banklararo kelishuvi asosida belgilanadi. Ta'minlanganligi esa tovarlar sotilishi bilan asoslangandir. Agarda mazkur kredit tovar etkazib berilishi bilan bog'liq bo'lmasa, unda u sof moliyaviy xarakterga ega bo'ladi.

Broker krediti ayrim mamlakatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya) firma va bank kreditlarining oraliq shakli sifatida harakat qiladi. Ushbu kredit tijorat tusidagi bitimlarga tijorat krediti singari hamda bir vaqtning o'zida bank kreditiga ham aloqadordir. Chunki brokerlar odatda banklardan qarz olib turadilar. Brokerlik vositachilik haqi shartnoma summasining 1/50-1/32 qismini tashkil qiladi. Broker firmalari Buyuk Britaniyada assotsiatsiyaga birlashgan. Brokerlar jahon bozoridagi holat to'g'risidagi ma'lumotga egadirlar. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishdan tashqari ular sotib oluvchilarni to'lov qobiliyatları yuzasidan kafolatlarni ham taqdim etadilar. Zamonaviy bosqichda broker kreditlarining tashqi savdodagi roli pasayib ketdi.

Tashqi savdo aylanmasining o'sishi hamda yirik hajmdagi summalarini katta tavakkalchilik asosida uzoq muddatlarga jalb etishning muammolari o'rta va uzoq muddatli xalqaro kreditlarning rivojlanishiga olib keldi. Bankirlik va aktsept faoliyati bilan shug'ullanuvchi uylar hamda tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan eksportni veksellar vositachiligidagi kreditlash tizimi tashqi savdoning o'sib borayotgan talablarini qondira olmay qoldi. Bir qator (Buyuk Britaniya, Frantsiya, Yaponiya va boshqa shu kabi) mamlakatlarda mashinalar va jixozlar eksportini o'rta hamda uzoq

muddatli kreditlashning maxsus tizimi yaratilgan. Ushbu kreditlash turlarining shakllari qisqa muddatli (firma, bank, davlatlararo kredit va shu kabi) kreditlashning shakllariga o'xhash bo'lishi bilan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Iste'mol bozorlari uchun kurash borasida eksportyorlar muddati 1-5 yildan to 7-10 yilgacha bo'lган о'рта muddatli kreditlarni veksellar orqali rasmiylashtirgan holda taqdim etadilar.

Yirik kredit muassasalari uzoq muddatli xalqaro kreditlarni nazariy asosda 40 yilgacha, amalda esa 10-15 yil muddatga taqdim etadilar. Mazkur kreditlash turi bilan kapitalni o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish orqali jalg etuvchi davlat va yarim davlat mulkiy maqomiga ega, maxsus kredit tashkilotlari shug'ullanadi.

Banklar qiymati bo'yicha teng bo'lган tovarlarni o'zaro etkazib berishga asoslangan kompensatsion bitimlar yuzasidan uzoq mudatli kreditlarni taqdim etadilar. Ushbu turdag'i kreditlar hamma vaqt maqsadli xarakterga ega bo'ladi. Korxonani barpo etish va qayta tiklash, tabiiy resurslarni o'zlashtirish uchun mashina hamda jihozlarni 8-15 yil muddatga kreditga olgani holda qarz oluvchi mazkur kreditni qurilgan va qurilayotgan korxonalar mahsulotlari hisobiga so'ndirilishini amalga oshiradi. Kompensatsion bitimlarning farqli tomoni, ularning keng qo'lamli va uzoq muddatli xarakteri hamda eksport va import bitimlarining o'zaro bog'liqligidadir.

Amaliyotda "uzoq muddatli kredit" atamasi kredit muassasalarining ssudalariga aloqador bo'lib qoldi. Uzoq muddatli kreditning bir qismi bo'lib zayomlar, ya'ni davlat va xususiy korxonalar, banklar tomonidan o'z qarz majburiyatlarini chiqarish orqali milliy hamda jahon ssuda kapitallari bozorlaridan qarz mablag'larini jalg etilishi hisoblanadi. Uzoq muddatli kredit va zayomlar asosan asosiy kapitalni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, mashinalar, jihozlar eksporti, sanoat loyihamalarini sotilishiga xizmat ko'rsatadi.

Byudjet mablag'lari hisobdan ajratiladigan uzoq muddatli (muddatlari 10-15 yil va bundan ziyod) xalqaro kreditlarning quyidagi shakllari farqlanadi:

1) hukumatning ikki taraflama kreditlari. Davlatlararo uzoq muddatli kredit keng ko'lamlarda birinchi jahon urushi paytida vujudga keldi va o'z rivojiga urushdan so'nggi yillarda ega bo'ldi. Bunda asosiy kreditor bo'lib AQSh maydonga chiqdi. Natijada davlatlararo ziddiyatlarni kuchaytirib yuborgan hukumatlararo qarzdorlik (11 mlrd. oltin dollarlari, foizlarni hisobga olmaganda) paydo bo'ldi. Frantsiya kreditni nemis reparatsiyalari hisobiga, Germaniya esa AQShdan yangi kreditlarni olish hisobiga so'ndirayotgan edi. 1929-1933 yillar iqtisodiy inqirozi davri mobaynida Germaniya va 25 tadan iborat boshqa davlatlar qarz bo'yicha to'lovlarni to'xtatib qo'ydilar. Ikkinci jahon urushi davri mobaynida hukumatlararo qarzlar sezilarli rol o'ynamagan edi. Harbiy va boshqa turdag'i materiallarning etkazib berilishi asosan "lend-liz" (ijara) shartlari asosida, kredit majburiyatlarisiz amalga oshirilayotgan edi;

2) xalqaro va xududiy valyuta-kredit hamda moliyaviy tashkilotlarning kreditlari;

3) yordam ko'rsatish yo'naliishi bo'yicha, ushbu yordam shakli texnik yordam, peysabillo hadyalar, subsidiyalar bilan birgalikda imtiyozli shartlar asosidagi zayomlarni ham o'z ichiga oladi.

Ayrim holatlarda xalqaro kreditning aralash turi qo'llaniladi. Masalan, eksportni kreditlashning odatdagi shakllari yordam ko'rsatish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Xalqaro kreditning yangi shakllaridan biri bo'lib bir nechta kredit muassasalari tomonidan yirik loyihalarni qo'shma moliyalashtirish hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari qo'shma moliyalashtirishning tashabbuskorlari bo'lib maydonga chiqadi va ular ushbu operatsiyalarga odatda loyihaning eng ko'p foyda keltiradigan qismini imtiyozli asosda (foiz stavkasi bozor stavkasidan past) moliyalashtiruvchi, xususiy tijorat banklarini jalb etadilar.

Qo'shma moliyalashtirishning quyidagi 2 shakli qo'llaniladi:

- parallel moliyalashtirish, bunda loyiha turli kreditorlar tomonidan ular uchun o'rnatilgan kvotalar me'yorida kreditlanadigan tarkibiy tashkil etuvchilarga bo'linadi;

- o'z o'zini moliyalashtirish, bunda barcha kreditorlar loyihaning ijro etilishi mobaynida ssudalarni taqdim etadilar. Kreditorlardan biri (menejer-bank) loyihaning tayyorlanishi va amalga oshirilishini muvofiqlashtiradi hamda nazorat qiladi.

Qo'shma moliyalashtirish qarz oluvchiga imtiyozli kreditlarni olishga yo'l ochgani holda ma'lum bir imtiyozlarni beradi. Biroq asosiy imtiyozlarni kreditorlar oladi, chunki bunday kreditlash ssudani qarzdor tomonidan o'z vaqtida so'ndirilishining qo'shimcha kafolatini beradi.

Xususiy banklarning sindikatlari o'z kreditlarini qarz oluvchi mamlakatlarga ular tomonidan XVF yoki TTXB (Taraqqiyot va Tiklanish Xalqaro Banki)ning kreditlarini olgan taqdirdagina taqdim etadilar. Davlat va xususiy banklar o'rtasidagi ushbu taqsimotning asosiy maqsadi iqtisodiy hamda siyosiy omillardan kelib chiqqan holda ssuda kapitallarining jahon bozoriga qarz oluvchilar chiqishini muvofiqlashtirishdir. Shu sababli xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarining kreditlari ikki taraflama xukumat kreditlari hamda ayniqsa xususiy banklar kreditlari, evrokreditlarga nisbatan summalarini bo'yicha kamtarona o'rin egallasada, katta rol o'ynaydi.

Xalqaro uzoq muddatli kreditning shakllaridan biri bo'lib qimmatli qog'ozlar emissiyasi hisoblanadi.

Loyihalarni moliyalashtirish xalqaro uzoq muddatli kreditning zamонавий shaklidir.

Ushbu shakllardan biriga lizing ham kiradi. Lizing (inglizcha leasing, lease-ijaraga berish so'zidan olingan) lizing beruvchi tomonidan lizing oluvchiga moddiy qimmatliklarni turli muddatlarga ijaraga taqdim etilishidir.

Faktoring (iglizcha factoring, factor-vositachi) – ixtisoslashgan moliyaviy kompaniya tomonidan eksportyorning importyorga bo'lgan pul talablarini sotib olinishi hamda inkassatsiya qilinishi shaklidagi xalqaro kreditdir.

Forfetlash (frantsuzcha “a forfait” – yalpi, umumiyligi summasi bilan) naqdli to’lov evaziga ma’lum bir huquqlar taqdim etilishini bildiradi. Ushbu bank amaliyotida veksellarni hamda boshqa qarz majburiyatlarini tuliq muddatga, oldindan belgilangan shartlar asosida sotib olinishidan iboratdir.

Xalqaro kreditning valyuta-moliyaviy va to’lov shartlari

Xalqaro kreditning shartlari kredit va to’lov valyutasi, summasi, muddati, foydalanish hamda so’ndirilish shartlari, qiymati, ta’milot turi, xavf-xatarlarni sug’urtalash usullari kabi tushunchalarni o’z ichiga oladi.

Kredit va to’lov valyutasi. Xalqaro kredit uchun u qanday valyutada taqdim etilganligi muhimdir, chunki uning barqarorsizligi kreditorning zarar ko’rishiga olib boradi. Qarz valyutasining tanlanishiga bir qator omillar ta’sir etadi, shu jumladan uning barqarorligi va foiz stavkasining darajasi, xalqaro hisob-kitoblar amaliyoti (masalan neft etkazib berish bo’yicha kontraktlar odatda AQSh dollarlarida tuziladi), infliyatsiya sur’ati hamda valyuta kursining dinamikasi va boshqa shu kabilalar. Xalqaro kreditlarning valyutasi bo’lib milliy pul birlklari, evrovalyutalar (50-yillarning oxirlaridan boshlab), xalqaro hisob-kitob valyuta birlklari hisoblanadi. To’lov valyutasi kredit valyutasi bilan bir turda bo’lmashligi mumkin. Masalan, kreditor valyutasida taqdim etilgan “yumshoq zayomlar” qarz oluvchining milliy valyutasida yoki ushbu mamlakatning an’anaviy eksporti bo’lmish tovarlar bilan so’ndiriladi.

Kreditning summasi (limiti) qarz oluvchiga tovar yoxud pul shaklida taqdim etilgan ssuda kapitalining bir qismidir. Firma kreditining summasi tijorat kontraktida qat’iy belgilanadi. Bank kreditining summasi (kredit yo’nalishi) kredit bitimi bilan yoxud telekslar bilan almashinish orqali (qisqa muddatli kredit holatida) belgilanadi. Kredit bir yoki shartlari bo’yicha o’zaro farqlanuvchi bir nechta transh (ulush)lar ko’rinishida ham taqdim etilishi mumkin. Shakllangan amaliyotga muvofiq eksport qilinayotgan mashina va jihozlar qiymatining odatda 85%gacha xajmini kredit qoplaydi. Qolgan qismi esa importyorning eksportyorga bergen kafilliklari, bo’nak hamda naqdli to’lovlari bilan ta’milnadi.

Xalqaro kreditning muddati quyidagi bir qator omillarga bog’liq:

-kreditning maqsadli yo’nalishiga;-o’xshash kreditlarga bo’lgan talab va taklifning o’zaro nisbatiga;-kontrakt hajmiga;-milliy qonunchilikka;-kreditlashning an’anaviy amaliyotiga;-davlatlararo kelishuvlarga.

Kreditning muddati jahon bozorlarida raqobat kurashining muxim vositasidir. Kreditning samaradorligini aniqlash maqsadida to’liq va o’rta muddatlar farqlanadi.

Kreditning to’liq mudati undan foydalanish paytidan boshlab to u so’ndirilgunga qadar hisoblanadi. Ushbu muddat taqdim etilgan kreditdan foydalanish va imtiyozli (foydalanilgan kreditning so’ndirilish muddatini kechiktirish) hamda asosiy qarz va foizlar to’lanadigan davrlarni o’z ichiga oladi.

Firma kreditidan foydalanish davri bank kreditidan farqli o'larqo tovarlarni kontrakt bo'yicha etkazib berish muddati bilan mos keladi. Bunda to'liq muddatning boshlanishi bo'lib eksportyor tomonidan tovarlarning so'nggi partiyasi etkazib berilgani, ya'ni kontrakt majburiyatlari bajarilganidan so'ng chiqqargan trattalarini sotib oluvchi tomonidan aktseptlash sanasi hisoblanadi.

Firma kreditidan foydalanish davri bank kreditidan farqli o'larqo tovarlarni kontrakt bo'yicha etkazib berish muddati bilan mos keladi. Bunda to'liq muddatning boshlanishi bo'lib eksportyor tomonidan tovarlarning so'nggi partiyasi etkazib berilgani, ya'ni kontrakt majburiyatlari bajarilganidan so'ng chiqqargan trattalarini sotib oluvchi tomonidan aktseptlash sanasi hisoblanadi. Kreditning imtiyozli davri tijorat bitimlari, butlovchi qismlardan tashkil topgan jihozlar etkazib berilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu holatda uning so'ndirilish davri sotib olingan jihozlarni ishga tushirish sanasiga imkonli boricha yakinlashtiriladi. Bu bilan importyor investitsiyalarining o'zini-o'zi qoplash muddati qisqaradi, chunki kredit hisobiga barpo etilgan korxonada ishlab chiqarilgan bir qism mahsulot eksportining tushumi hisobiga ushbu kreditning so'ndirilishi amalga oshiriladi. Hamda mazkur davr mobaynida kreditlashning boshqa davrlariga nisbatan kichikrok bo'lgan miqdorda foizlar undiriladi. Imtiyozli davr davlat tomonidan kafolatlanadigan uzoq muddatli xalqaro banklararo kreditlarda, konsortsial xarakterdagi evrokreditlarda, mashinalar, jihozlar, sanoat komplekslarini yirik partiyalar bilan sotishda, investitsiya loyihalarini xorijda amalga oshirilishida uchraydi. Bunda imtiyozli davr mahsulot etkazib berilishi yoki qurilish amalga oshirilib bo'linganidan so'nggi bir qator yillarni qamrab oladi.

Biroq to'liq muddat kreditning yalpi summasi qarz oluvchining ixtiyorida qanday muddat davomida bo'lganligini ko'rsatmaydi. Shu sababli turli shartlarga ega kreditlar samaradorligini taqqoslash uchun kreditning o'rtacha yalpi summasi qaysi davrga to'g'ri kelishini ko'rsatadigan o'rtacha muddat ishlatiladi. O'rtacha muddat o'z ichiga to'liq imtiyozli davr hamda kreditdan foydalanish va uni so'ndirish davlarining yarmini oladi.

Derivativlar

Bugungi kunda xalqaro miqyosda xosilaviy valyuta bitimlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar global moliyaviy bozorlarning muhim tarkibiy qismini tashkil etmoqda. Shu o'rinda jahon valyuta bozorlarida xosilaviy valyuta operatsiyalari hajmining so'nggi 25 yil ichida keskin o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganini e'tirof etish lozim. Buning natijasi o'larqo bugungi kunda moliya sohasiga umuman aloqasi yo'q bo'lgan insonlar ham valyutaviy derivativlar haqida ma'lumotga ega bo'lib bormoqdalar. Buning asosiy sababi sifatida 2007 yilning so'nggi choragida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini ko'rsatish mumkin. Chunki, inqirozning yuzaga kelishiga qaysidir ma'noda aynan xosilaviy valyuta vositalari bozori keskin sur'atlarda o'sib borgani va bundan tashqari valyuta operatsiyalarining nazorati va monitoringi

etarli darajada bo'limganini sabab qilib aytish mumkin. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Xo'sh moliyaviy dunyoni o'zgartirib yuborgan xosilaviy valyuta operatsiyalarining o'zi nima? Ularni amalga oshirish tartibi qay tarzda kechadi? Bu esa, o'z navbatida mazkur operatsiyalarni ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq qilish zaruratini oshiradi.

Banklar ochiq valyuta pozitsiyasi limiti doirasida bir-biri bilan o'zaro, mijozlari bilan, shunindek, xalqaro bozorlarda xorijiy valyutani sotib olish va sotish, Shuningdek, hosila moliya vositalari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin.

Istalgan bir xorijiy valyuta bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi operatsion kun yakunida bank regulyativ kapitalining 10 foizidan, barcha valyutalar bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasi esa regulyativ kapitalning 20 foizidan oshib ketmasligi lozim.

Birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalar o'tkazish uchun banklar o'z mijozlariga maxsus valyuta hisob raqamlarini ochadilar. Mazkur hisob raqamlariga valyuta bozorida xarid qilingan xorijiy valyuta o'tkaziladi. Maxsus valyuta hisob raqami ochmasdan bank mijoji tomonidan xorijiy valyutaning xarid qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Maxsus valyuta hisob raqamidan naqd valyutani olish (xizmat safari xarajatlari to'lash uchun olish bundan mustasno), maxsus valyuta hisob raqamidagi xorijiy valyutani xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning boshqa valyuta hisob raqamlariga o'tkazish, Shuningdek mablag'larni depozitga joylashtirish va hisob raqamlari qoldig'iga foizlar hisoblash mumkin emas.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan xorijiy valyutani xarid qilish bo'yicha operatsiyalarni o'tkazishning majburiy sharti bo'lib banklarda xorijiy valyutani sotib olish uchun milliy valyutada etarli hajmda zaxira qilingan pul mablag'larining mavjudligi hisoblanadi.

Savdoda ishtirok etish uchun banklar banklararo savdo sessiyasi boshlanishidan bir kun oldin xorijiy valyutani xarid qilish yoki sotishga oldindan buyurtmanomalar (dastlabki buyurtmanoma) berishlari shart.

Bank ekspert guruhining ijobiylar qarori qabul qilingan kundan keyingi kundan kechikmay xorijiy valyuta xarid qilish uchun valyuta birjasiga dastlabki buyurtmanoma berishi lozim. Banklarning ekspert xulosalarini berish to'g'risidagi qarorlar bank ekspert guruhining bank boshqaruvi tomonidan belgilangan muddatlarda, lekin kamida haftasiga ikki marta o'tkaziladigan yig'ilishlarida qabul qilinadi.

Banklarning ekspert guruhi tomonidan buyurtmanomalarini ko'rib chiqish uch ish kuni davomida amalga oshiriladi.

Dastlabki buyurtmanomalar banklar tomonidan savdo sessiyasi o'tkaziladigan kundan bir bank ishi kuni oldin soat 9.00dan 13.30ga qadar O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasiga imzolangan holatda qog'oz shaklida va elektron shakllarda yuborilishi lozim. Valyuta birjasni, o'z navbatida, barcha banklarning buyurtmanomalarini umumlashtirgan holda ma'lumotnomasi tayyorlaydi va o'sha kunning o'zida soat 15.00ga qadar Markaziy bankning Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasi boshqaruvi kengashi ishchi organiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi xorijiy valyutalar bo'yicha savdolarda kurs o'rnatishning "oddiy fiksing" uslubidan foydalaniladi.

Xorijiy valyuta savdolari o'tkaziladigan kuni savdolar boshlanishidan 45 minut oldin birja makleri³ savdo tizimiga kiritilgan zarur parametrlar (savdolar boshlanish va tugash vaqt, instrument turi, shu instrument bo'yicha bundan oldingi savdolarda o'rnatilgan kurs qiymati) nazoratini amalga oshirishni boshlaydi va savdo tizimiga pul mablag'larining kelib tushishini tekshiradi.

Shuningdek, savdolar boshlanishidan 30 minut oldin treyderlar autentifikatsiyasi⁴ o'tkaziladi. Bu jarayonda valyuta birjasining savdo tizimiga treyderlarning shaxsiy kodi va paroli kiritiladi. Ayni paytda, treyderning paroli bevosita uning ish joyidan kiritilishini ham ta'kidlash lozim. Hozirgi kunda banklarning treyderlari banklararo savdo sessiyalarida ishtirok etish uchun valyuta birjasiga tashrif buyurishlari va savdo zalida unga biriktirilgan maxsus avtomatlashtirilgan ish joyidan foydalangan holda savdo tizimiga buyurmanomalarни kiritishi talab etiladi. Shunga qaramay, bankning o'zidan turib savdo tizimiga ularish va buyurtmanomalarни kiritish imkoniyati hanuzgacha istiqboldagi vazifa bo'lib qolmoqda.

Autentifikatsiya jarayonidan so'ng treyderlar tomonidan savdo tizimiga xorijiy valyutaning xaridi va sotuvi uchun boshlang'ich buyurtmalar kiritiladi.⁵

Savdolarni o'tkazishda xorijiy valyutaning so'mga nisbatan boshlang'ich kursi sifatida bundan oldingi savdoda o'rnatilgan kursdan foydalaniladi.

Savdo boshlangach valyuta birjasining savdo tizimida xorijiy valyutaning xaridi va sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq miqdori, Shuningdek, ishorasi haqidagi ma'lumot aks ettiriladi. Agar xorijiy valyutaning sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari xarid uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlaridan ko'p (kam) bo'lsa, ularning orasidagi farq ishorasi musbat (manfiy) hisoblanadi.

Savdolar boshlanganda savdo tizimidagi xorijiy valyutaning sotuvi va xaridi uchun kiritilgan boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari orasidagi farq ishorasi musbat ("+") bo'lsa, birja makleri xorijiy valyutaning so'mga nisbatan kursini bir birlikka tushiradi. Aksincha, savdo tizimidagi boshlang'ich buyurtmalarning hajmlari orasidagi farq ishorasi manfiy ("–") bo'lsa, birja makleri xorijiy valyutaning so'mga nisbatan kursini bir birlikka oshiradi.

Xorijiy valyutaning so'mga nisbatan kursini o'zgartirishning minimal birligi 0,01 so'mni tashkil etadi. Savdolar boshlanishida chet el valyutasining xaridi va sotuvi uchun taqdim etilgan boshlang'ich buyurtmalarning umumiy hajmlari orasidagi farq miqdoridan kelib chiqqan holda, birja makleri treyderlarning roziligi bilan minimal kurs o'zgarish birligini oshirishi mumkin. Biroq kurs o'zgarishi birligi 0,1 so'mdan oshmasligi kerak.

³ Биржа маклери – хорижий валюталар бўйича савдоларни ташкиллаштириш ва ўтказиш бўйича алоҳида ваколатларга эга бўлган ходим.

⁴ Аутентификация – банклараро савдо сессияларида Дилер ва трейдернинг хорижий валютани сотиш ва сотиб олиш бўйича операцияларни амалга ошириш хукукини тасдиқлаш жараёни.

⁵ Бушлангич буюртма – хорижий валюталар бўйича банклараро савдо сессиялари бошланишида тақдим этиладиган буюртма.

Banklararo savdo sessiyalarida kurs o'rnatishning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, savdo tizimida xorijiy valyutaning so'mga nisbatan boshlang'ich kursining birinchi o'zgarishidan keyin kurs harakati yo'nalishi o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.

Savdolar davomida treyderlar kurs o'zgarishidan kelib chiqib boshlang'ich buyurtmalarda aks ettirilgan xorijiy valyutaning xaridi va sotuvi miqdorini o'zgartirish uchun savdo tizimiga qo'shimcha buyurtmalarni kiritishlari mumkin.

Savdolar o'tkazishdagi kurslarni o'zgartirish jarayoni savdo tizimidagi xorijiy valyutalarning xaridi va sotuvi uchun kiritilgan barcha buyurtmalarning hajmlari orasidagi farq miqdori nolga teng bo'lgunga qadar davom etadi.

Savdo tizimidagi xorijiy valyutaning xaridi va sotuvi uchun taqdim etilgan barcha buyurtmalarning hajmlari orasidagi farq miqdori nolga teng bo'lganda, Ya'ni chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklif hajmi tenglashganda, fiksing holati yuz beradi va birja makleri savdolarni yopiq, deb e'lon qiladi. Banklararo savdo sessiyalarida tuzilgan barcha bitimlar uchun joriy savdolarda o'rnatilgan xorijiy valyutaning so'mga nisbatan yagona kursi qo'llaniladi.

Treyderlar tomonidan savdo tizimiga qo'shimcha buyurtma kiritilganida xorijiy valyutaning xaridi va sotuvi uchun taqdim etilgan barcha buyurtmalarning umumiyligi hajmlari orasidagi farq ishorasi o'zgarsa, oxirgi berilgan buyurtma fiksing usulida kurs o'rnatish uchun zarur bo'lgan hajmda qondiriladi.

Kurs o'rnatish jarayonida savdo tizimiga turli dilerlar tomonidan qo'shimcha buyurtmalar bir vaqtda kiritilganda, maksimal summaga ega bo'lgan buyurtma qondiriladi. Agarda, qo'shimcha buyurtmalarning summalari ham teng bo'lsa, bu buyurtmalar proporsional teng ravishda qondiriladi.

Bank mijoji tomonidan xarid qilinib, mijozning maxsus valyuta raqamiga o'tkazilgan vaqtadan e'tiboran 7 ish kuni mobaynida foydalanilmagan xorijiy valyuta, muqarrar ravishda bankka qayta sotilishi hamda navbatdagi banklararo savdo sessiyasida sotuvga qo'yilishi lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon valyuta bozorlarida savdo qilinadigan jami operatsiyalarni 100 foiz deb olsak, ularning 70 foizdan ziyodi spot (spot) operatsiyalariga to'g'ri keladi.

Kassa shartnomasi spot shartlari asosida amalga oshiriladi va asosan xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha, kurslar o'zgarishi oqibatida ehtimolli valyuta yuqotishlarining oldini olish, shuningdek kapitallarning (qaynoq pullarni o'z ichiga olgan holda) bir joydan boshqa joyga tez oqib o'tishi maqsadida, xorijiy valyutani zudlik bilan olish uchun qo'llaniladi.

XX asrning so'nggi yigirma yilligida valyuta kurslarining erkin suzish rejimiga o'tilishi bilan valyutalar bilan chayqov kassa savdosi kuchaydi. Ushbu operatsiyalar valyuta bozorlarida keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda banklararo bozor umumiyligi muomalasining ko'p qismini tashkil etadi.

O'zbekistonda hosilaviy valyuta operatsiyalarining rivojlanganlik darajasiga baho beriladigan bo'lsa, respublikamizning ayrim yirik tijorat banklarida valyutaviy svop va forward operatsiyalari mavjudligini e'tirof etish mumkin bo'ladi. Biroq, mazkur operatsiyalarning sezilarli darajada yuqori qismi TIF "Milliy banki"ning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bois, ushbu paragrafda asosiy e'tiborni ushbu

bankning muddatli valyuta operatsiyalarini tahlil qilishga qaratamiz.

TIF Milliy banki yuqorida ta'kidlangan huquqiy asoslarga tayanib o'zining "Ichki bozorda svop operatsiyalarini o'tkazish Tartibi"ni ishlab chiqqan va o'zining mijozlari bilan svop operatsiyalarini joriy qilgan. TIF Milliy bankida amalga oshirilgan svop operatsiyalarining eng yuqori muddati bir yil etib belgilangani holda, vositachilik haqi sifatida svop foizlari belgilab qo'yilgan. Mijoz ixtiyoridagi xorijiy valyutani spot shartlarida sotib olishni ko'zda tutuvchi svop bitimlarida svop foizlari Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi va bankning foiz marjasni yig'indisidan tashkil topishi ko'zda utilgan. Bundan ko'rindiki, TIF Milliy banki haqiqatda o'z mijozlarini xorijiy valyuta garovi asosida kreditlagan. Shu sababdan, svop bitimining bahosini belgilashda Markaziy bank qayta moliyalash stavkasidan foydalangan. TIF Milliy bankida amalga oshirilgan svop operatsiyalarining o'ziga xos xususiyati shundaki, mijoz svop bitimining ikkinchi qismi (forward shartlari) bo'yicha majburiyatlarini bajara olmasa, valyuta mablag'larining qayta almashinuvi bekor qilinadi. Boshqacha, aytganda, svop bitimining forward qismi bekor qilingach, u oddiy spot bitimiga aylanib qoladi.

Shuningdek, TIF Milliy bankida mijozga uning ixtiyoridagi so'm mablag'lari evaziga xorijiy valyutani spot shartlarida etkazib berishni ko'zda tutuvchi svop bitimi shakli ham belgilangan bo'lib, unda svop foizlari sifatida TIF Milliy bankining tegishli xorijiy valyutadagi kreditlari uchun belgilangan foiz stavkalari olinadi. Bunday svop bitimi bir oygacha tuzilishi va tomonlar kelishuvi bilan bu muddatning uzaytirilishi mumkinligi belgilangan. Bu holatda ham, TIF Milliy banki mijozini xorijiy valyutada kreditlagani holda, bitim muddatiga qadar mijozning so'mdagi mablag'laridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Valyuta bozorining barcha sohalarida bo'lgani kabi, hosilaviy valyuta operatsiyalarini tartibga solish va nazorat qilishning ham asosi bo'lib hisoblanuvchi huquqiy me'yoriy baza mavjuddir. Hosilaviy valyuta bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari ham xalqaro miqyosda, ham milliy iqtisodiyotlar miqyosida qubul qilingandir. Aksariyat mamlakatlarda hosilaviy valyuta valyua bozorining asosi to'g'risidagi me'yoriy talablar asosan moliya bozorlari yoki qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi tegishli qonunlarda aks ettiriladi. Xalqaro miqyosda esa hosilaviy valyuta bozorining huquqiy asosi sifatida Xalqaro svop va derivativlar assotsiatsiyasi (XSDA) tomonidan imzolangan kelishuv va hujjatlarni ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda hosilaviy valyuta bozori hajmi jahon YaIMning 10 barobaridan ortib ketgani hech kimga sir emas. Albatta, bu deyarli hech narsa bilan ta'minlanmagan pul oqimlari jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak hosilaviy valyuta bozori nazoratini yanada kuchaytirish va uning doimiy monitoringini olib borish talab etiladi. Quyida xalqaro miqyosda mavjud hosilaviy valyuta operatsiyalarining me'yoriy-huquqiy asoslari bilan tanishib chiqamiz.

Ma'lumki, hosilaviy valyuta valyua operatsiyalarining o'zi ikki turga ya'ni birjadagi va birjadan tashqari joriy hamda hosila-moliyaviy vositlarga ajratiladi. Birjadagi derivativlarning nazorati bir muncha kuchlidir. Chunki birjada kontragentlarga ma'lum darajada talab qo'yiladi. Bu esa, ularning risklilik darajasini kamaytiradi. Misol uchun Chikago tovar birjasi (SME), Chikago muddatli tovar

birjalarini (SVOT), London xalqaro moliyaviy fyucherslar birjasи va Nyu-York birjalarida qat'iy belgilab qo'yilgan talablar asosida operatsiyalar amalga oshiriladi.

1974 yilda AQShda fyuchers bitimlari bozorini tartibga solish va nazorat qilish maqsadida Tovar fyucherslari bilan savdo kengashi tashkil etiladi. Bu kengashning asosiy vazifasi – bu fyuchers bitimlarini amalga oshiruvchi birjalarni litsenziyalash va bitimlarni tasdiqlashdir. Birjadagi har qanday bitim amalga oshirilganida, unga o'zgartirish kiritilganida, kengash tomonidan tasdiqlanishi kerak bo'lган. Bitimlarni tasdiqlashda kengash bitimning iqtisodiyotga ta'siriga, ya'ni bitimni tuzishdan ko'zlangan maqsadga katta e'tibor qaratgan. Bundan tashqari Tovar fyucherslari bilan savdo kengashi fyuchers bitimlari savdosi bilan shug'ullanishga talabgor shaxslarga litsenziya berish bilan shug'ullangan.

1982 yilda Milliy fyuchers assotsiatsiyasi tashkil etilishi bilan Tovar fyucherslari bilan savdo kengashining ba'zi vakolatlari unga o'tgan. Milliy fyuchers assotsiatsiyasi asosan fyuchers bitimlari bilan bog'liq nizoli va vaziyatlarni hal qilish, firibgarlik va tovlamachilikka qarshi kurashish bilan shug'ullanadi. Bunda assotsiatsiyasi havfsizlik nuqtai nazaridan har qanday bitimni tekshirib chiqishi mumkin.

So'nngi yillarda fyucherslar bilan savdo operatsiyasining ba'zi aspektlari Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha kengash, Federal Rezerv Tizimi va AQShning Moliya Vazirligi tomonidan boshqariladi. Misol uchun Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha kengash moliya bozorlarida yangi fyuchers bitimi tuzilishiga veto qo'yish huquqiga egadir. Shunday bo'lsa ham, fyuchers va optionlar bilan savdo bozori nazorati uchun asosiy javobgar – bu Tovar fyucherslari bilan savdo kengashidir.

Birjadan tashqari hosila-moliyaviy vositalarni boshqarish va nazorat qilish bir muncha qiyin vazifadir. Chunki ularni tartibga solish uchun kuchli tizim talab etiladi. Aynan shu maqsadda 1985 yilda Xalqaro svop-dilerlari assotsiatsiyasi tashkil etiladi. Keyinchalik hosila-moliyaviy vositalarning turlari ortib borishi bilan bu tashkilotning nomi Xalqaro svop va derivativlar assotsiatsiyasiga (XSDA) almashtiriladi. Bu tashkioltga 57 ta mamlakat a'zodir. Uning shtab-kvartirasi Nyu-York shahrida joylashgan. Tashkilotning asosiy hujjati – bu XSDA Bosh Kelishuvindir. Bu kelishuv 1992 yilda nashr qilingan. Uning ikkinchi nashri 2002 yilda, ya'ni 90 yillar oxiridagi moliya bozoridagi inqirozga javoban nashr etilgan.

Bundan tashqari, XSDA Xalqaro Islom Moliya Bozori bilan hamkorlikda Tahavvut (Tahawwut) Bosh Kelishuvini ishlab chiqqan. Ma'lumki, Islom bank tizimi o'zining noan'anaviyligi bilan ajralib turadi. Bu tizimda hosila-moliyaviy vositalardan qo'llanilmaydi. Aynan shu muammoni oldini olish maqsadida XSDA Tahavvut Bosh Kelishuvini, ya'ni Islom bank tizimida hosila-moliyaviy operatsiyalarni joriy qilishning huquqiy asosini imzolagan.

2009 yilda XSDA o'zining "Katta Protokol" nomli hujjatini nashr qildi. Bu jahon moliyaviy inqiroziga javoban amalga oshirilgan tashabbus edi. Unda asosiy e'tibor kredit derivativlari, xususan kredit defolt svopi operatsiyalarining tubdan islohotiga qaratilgan. Bunda kredit defolt svopi operatsiyalarida ham kliring va netting kabi vositalardan foydalanish tavsiyalari ishlab chiqilgan. Kredit derivativlariga kliring va nettingni qo'llanishi ularning risklilik darajasini kamaytirishi animdir. Bundan

tashqari XSDA a'zo mamlakatlarning qonunchiliklaridagi hosila-moliyaviy vositalarga bog'liq hujjatlarni nazorat qiladi va uni optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.

Xalqaro miqyosda XSDA tashkiloti hujjatlaridan tashqari, 1993 yilda Global derivativlarni o'rganish bo'yicha guruhi (Global Derivatives Study Grup) tomonidan "Derivativlar: Amaliyat va Tamoyillar" (Derivatives: Practices and Principles) mavzusida taqdiqoqni ishlab chiqilgan. Bu hujjatda asosan hosila-moliyaviy vositalar bozoridagi risklar to'g'risida fikr yuritilgan. Ma'lumki hosila-moliyaviy vositalar bozoridagi mavjud eng katta risk – bu bozor riskidir. Aynan shu bozor riskini aniqlash va uni boshqarish bo'yicha bu hujjatda Value at Risk (VaR) usuli yoritib berilgan va undan foydalanish tavsiya qilingan. Keyinchalik 1995 yilga kelib Bazel qo'mitasi bank kapitaliga qo'yiladigan talablarni aniqlashda VaR usulidan foydalanishni tavsiya etadi.

Dunyodagi eng katta hosila-moliyaviy vositalar bozori – bu albatta AQShga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkinki, AQShda xosila-moliyaviy vositalar to'g'risida qonun hujjatlari soni eng ko'pdir. Misol uchun 1933 yilda qabul qilingan "Glass-Stigel" qonuni banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini deyarli cheklab qo'ygan edi. Bunga ko'ra banklar investitsion faoliyat bilan to'g'ridan-to'g'ri shug'ullana olmas edilar. Lekin 1999 yilda bu qonun bekor qilinadi. Uning o'rniga esa yangi qonun "Gremm-Lich-Blayl" qonuni qabul qilanadi. Buning natijasida AQSh banklariga o'zlarining operatsiyalarini amalga oshirishda katta erkinlik taqdim etiladi. Banklar xoldinglari kengaygan holda Moliyaviy xolding kompaniyasiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ldilar, ya'ni investitsion banklar, tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari bitta tizim ichida bo'lishlari mumkin edi. Bu esa tizim riski degan tushunchani yuzaga keltirdi. Ko'p iqtisodchi olimlarning fikricha, aynan shu qonunning qabul qilinishi jahon moliyaviy inqirozi yuzaga kelishining dastlabki sabablaridandir.

Inqirozdan keying davrda, ya'ni 2010 yilning iyul oyida AQSh huqumati tomonidan 2300 betdan iborat "Dodd-Frenk" qonuni qabul qilinadi. Bu qonun hujjatida asosiy e'tibor inqirozni keltirib chiqargan omillar ustidan nazoratni kuchaytirishga qaratilgan edi. Bu qonunga muvofiq barcha hosila-moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar birja orqali amalga oshirilishi ta'minlash uchun takliflar ishlab chiqilgan. Ya'ni bunday operatsiyalar ikki bank orqali "telefon orqali" amalga oshirilishi mumkin emas. Derivativlar bilan operatsiyalar faqatgina birjada yoki kliring palatasi ishtiroki bilan amalga oshirilishi talab etilgan. Bundan tashqari bu qonunda moliya tashkilotlarining hosila-moliyaviy vositalar bilan operatsiyalarini amalga oshirishdagi "richag"ning maksimal darajalari qat'iy belgilab qo'yilgan. Hosila-moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar muddatiga ham ba'zi talablar ishlab chiqilgan. Bu qonun qabul qilishida moliya bozorining etakchi ishtirokchilari, xususan, Uorren Baffet qarshilik bildirgan edilar. Chunki derivativlar bilan opertsiyalarga limitlarning o'rnatilishi ularning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

"Dodd-Frenk" qonunining to'liq ishlab ketishi uchun yana 240 dan ortiq qonun osti hujjatlarini qabul qilinishi talab etiladi. Qonun darhaqiqat AQSh iqtisodiyoti uchun qat'iy cheklovlar qo'yishi bilan izohlanadi. Chunki aynan shuni vaziyat talab etmoqda, ya'ni nazoratni kuchaytirish lozim. AQSh iqtisodiyotiga 66 yil amal qilgan "Glass-

Stigel” qonuni ham aynan shunday qiyin vaziyatda va qat’iy cheklovlari bilan qabul qilingan edi.

O’zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muddatli valyuta vositalariga ham ba’zi talablar qo’yilgan. Bu talablar quyidagilardan iborat:

“Bank tomonidan forward kelishuvlari, svoplar, optionlar va shunga o’xshash hosilaviy shartnomalar amalga oshirilganda, u bitimlar to’liq nominal qiymatida kredit tavakkalchiliga uchramaydi. Bank uchun agar shartnoma majburiyatlarini kontragentlar tomonidan bajarilmagan bo’lsa, naqd pul mablag’lari oqimini almashtirishning potentsial qiymati tavakkalchilik hisoblanadi.

Banklar ichki va tashqi bozorlarda Bazel kelishuvi talablariga muvofiq bozor asosida bitimlar qiymatini belgilash uchun etarli darajada rivojlanmas ekan va banklar bunday operatsiyalarni o’tkazishga tayyorligini ko’rsata olmas ekan, aktsiyadorlik kapitali, oltindan tashqari boshqa qimmatbaho metallar va boshqa tovarlarga asoslangan forward va svop kelishuvlari, optionlar va boshqa shunga o’xshash hosilaviy bitimlar tuzishga haqli emaslar. Hosilaviy vositalarni o’z ichiga oluvchi operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsatnoma Markaziy bank tomonidan beriladi.

Hozirgi kunda foiz stavkasi va valyuta bilan bog’liq barcha shartnomalar uchun banklar “dastlabki tavakkalchilikka moyillik usuli”ni (DTMU) qo’llashlari mumkin. Bu usulga muvofiq qo’shimcha ravishda kapital bilan ta’minalash miqdori shartnoma turi, uni to’lash sanasi va nominal qiymatidan kelib chiqqan holda qayta hisoblash omili yordamida aniqlanadi.

Bu usul asosiy omili to’lash muddati, foiz stavkalari hamda narxlar tavsifi va ularning o’zgaruvchanligi bo’lgan bitim narxlarini tashkil etishga bozor qonuniyatlarini asosida yondoshishni tan olmaydi. Bozor asosida yondoshish shartnomani aniqroq baholash imkonini beradi. Biroq, DTMU usuli barcha banklar tomonidan bozor usulidan foydalanish uchun sharoitlar yaratilguncha qo’llanishi shart.

Hosilaviy valyuta derivativlarining balans ekvivalenti hisoblash omilini har bir vositaning asosiy nominal qiymatiga ko’paytirish orqali aniqlanadi (1-jadval). Hisoblash omili miqdori vosita tavsifi va barcha vositalar bo’yicha qolgan qoplash muddatiga bog’liq, boshlang’ich qoplash muddati qo’llaniladigan valyutaviy shartnomalar va oltin bundan mustasno tavakkalli aktivlar umumiy summasidan chegirmalar kredit va lizingga doir yuzaga kelishi mumkin bo’lgan zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan maxsus zaxiralarni o’z ichiga oladi”⁶.

Yuqorida ko’rib chiqqanimizdek, milliy iqtisodiyot va xalqaro miqyosda hosila-moliyaviy vositalar bozorini huquqiy bazasi yaratilgandir. Hosila-moliyaviy vositalar bozori o’ziga xos innovatsion instrumentlar bozoridir. Bu bozorni boshqarish va tartibga solish uchun esa amaldagi qonun bazasini doimiy tarzda yangilab turish talab etiladi.

1-jadval

Hosilaviy valyuta derivativlarini hisoblash omili⁷

To’lov muddatlari	Hosilaviy valyuta derivativlari
-------------------	---------------------------------

⁶ ЎзР МБ “Тижорат банклари капиталининг этарлилигига қўйиладиган талаблар тўғрисида” низом, 7-хатбоши

⁷ ЎзР МБ “Тижорат банклари капиталининг этарлилигига қўйиладиган талаблар тўғрисида” низом.

	Shartnomaning foiz stavkasiga asoslangan	Shartnoma va oltin almashuv kurslariga asoslangan
Bir yilgacha	0,5%	2,0%
Bir yildan ikki yilgacha	1,0%	5,0% (masalan 2%+3%)
Qo'shimcha har bir yil uchun	1,0%	3,0%

Bu paragrafga xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, har bir faoliyat turida bo'lgani kabi muddatli valyuta derivativlari bilan operatsiyalarda ham huquqiy baza mavjuddir. Milliy iqtisodiyotlar darajasida har bir mamlakat tomonidan o'ziga xos, o'z imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda, muddatli valyuta derivativlari bilan operatsiyalarni tartibga solish bo'yicha me'yoriy xujjatlar ishlab chiqilgan. Xalqaro miqyosda esa Xalqaro svop va derivativlar assotsiatsiyasi muddatli valyuta derivativlari bilan operatsiyalarni tartibga solish bilan shug'ullanadi. Aynan shu tashkilotning har bir kelishuvi xalqaro muddatli valyuta derivativlari bilan operatsiyalarning huquqiy asosini tashkil etib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari birjada amalga oshiriladigan muddatli valyuta derivativlari bilan bog'liq operatsiyalar yirik birjalar tomonidan (Chikago, Londan kabilar) belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari moliyaviy inqirozdan keyingi davrda AQSh hukumati tomonidan Dodd-Frenk qonunining qabul qilinishi, zamonaviy muddatli valyuta derivativlari bozoridagi operatsiyalarni isloh qilish uchun qo'yilgan ilk qadam bo'ldi. Chunki bugungi kunda muddatli valyuta derivativlari bozori hajmi bo'yicha eng yirik bozor bo'lib hisoblanadi. Bu bozorni nazorat qilish va tartibga solish, bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Muddatli valyuta derivativlari bozori qanday qilib shu darajada kengayib ketgani, ularning bugungi kunda moliya bozorlaridagi umuman jahon iqtisodiyotida tutgan o'rnnini tahlil etish tadqiqotimizning eng asosiy maqsadlaridan biridir.

Birja so'zi tarixan savdo qiladigan joy deb tushiniladi, birinchi birjaga 15- asrda asos solingan deb hisoblanadi, dunyodagi birinchi birja 1602 yilda Amsterdam shahrida ochilgan. Fond birjasi - maxsus tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar bozori.⁸

Fond birjasi - bu qimmatli qog'ozlar (asosan aktsiyalar) muomalasini ta'minlaydigan tashkilot. Birjada sotiladigan qimmatli qog'ozlar listing tartibidan o'tishi kerak. Faqat eng yaxshi qimmatli qog'ozlar birjada sotiladi va sotib olinadi⁹.

Fond birjasi — ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtida va belgilangan joyda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs¹⁰.

Derivativlar asosan iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlar amaliyotida rivojlangan va shakllangan bo'lib, mamlakatimiz olimlari tomonidan derivativlar to'g'risida etarli

⁸ "Биржалар ва биржа фаолияти тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Конуни

⁹ "Қимматли қоғозлар бозори тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Конуни

¹⁰ . Қимматли қоғозлар бозорида инвестиция воситачисининг фаолияти тўғрисида" Низоми

keltirilgan tushuntirishlar, ta’riflarni uchratishimiz mushkul. Shuningdek me’yoriy xujjatlarimizda ham derivativlar to’g’risida etarli ma’lumotlar shakllantirilmagan. Bu holatni yurtimizda derivativlar bilan bog’liq operatsiyalarning deyarli amalga oshirilmasligi bilan izohlashimiz mumkin.

Muddatli bozorlarning haqiqatda rivojlanishi XX asrga to’g’ri keladi. Birinchilardan bo’lib iqtisodiy-teoriya sifatida ushbu bozorga jiddiy e’tibor bergan Dj.M.Keyns hisoblanadi. Uning etakchi izdoshlari bo’lib Dj. Xiks va N.Kaldorlar hisoblanadi. Ular muddatli bozorni tahlil qilish uchun poydevor qo’yishdi.

Derativlar moliya bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biridir. Moliyaviy globallashuv sharoitida derivativlar bozor iqtisodiyotiga sezilarli darajada keng tarqaldi. Keng imkoniyatlardan kelib chiqib, derivativlar bozori ishtirokchilarning keng doirasini jalb qilmoqda: xususiy spekulyantlardan tortib to yirik tashkilotarning risk-menejerlarigacha.

Toronto universitetining professori Xoll derivativlar tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: "Derativlar bu moliyaviy instrumentlar bo’lib, moliya bozorida iqtisodiy agentlar tomonidan investitsiyalash, spekulyatsiyalash va xedjerlash maqsadida foydalaniladi.¹¹ Shuningdek uning quyidagi ta’rifini ham ko’rishimiz mumkin: “Hosilaviy moliyaviy vositalar, derivativlar shunday moliyaviy xujjatki, uning narxi boshqa bazaviy o’zgaruvchilarga bog’liq bo’ladi. ¹² Shu o’rinda u derivativlarning bahosi ham bazaviy o’zgaruvchilarning narxiga bevosita bog’liq ekanlini, ham boshqa xilma-xil unga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan faktorlarga, misol uchun (cho’chqaning narxiga yoki ma’lum tog’ chang’isi kurortlariga yog’gan qorning miqdoriga) ta’kidlab o’tadi.

Derativlar to’g’risida Jon Viley va Sonsning ta’rifi Xollning ta’rifiga o’hshash: “Derativ bu ikki va undan ortiq tomonlarning kelishuvi bo’lib, qaysiki bazaviy aktivning kelajakdagи bahosiga asoslangan bo’ladi”.¹³

Yuqoridagi keltirilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlab o’tishimiz mumkinki, derivativlar o’zлari hosil bo’lgan bazaviy aktivlarga bog’liq bo’ladilar, ya’ni ularsiz xech qanday qiymatga ega emaslar.

Shunday qilib, hosilaviy moliya vositalari qimmatli qog’ozlar, foiz stavkalari, valyutalar, statistika va boshqalar bo’lishi mumkin bo’lgan ma’lum bir asosiy bazaviy aktivga ega bo’ladi.

Xau va Lo derivativlarni investitsiya vositasi sifatida qarab, ularga qo’yidagicha tariflaydi: ”Hosilaviy moliyaviy vositalar bahosi nisbatan kam bo’lgan kompleks investitsiya strategiyalari uchun juda yaxshi almashtiruvchi bo’lib, investorlar uchun bozorlarni to’ldirish imkonini beradi”¹⁴

Derativlardan foydalanish o’lchamli to’siqlar mavjud bo’lishi lozimligi Xogan va Malmkistlar tomonidan ta’kidlab o’tilgan bo’lib, shu bilan bir qatorda daromadlarning maksimallashtirilishiga ko’mak berishiga qo’shiladilar. Ya’ni

¹¹ HULL, J. (2002) Опционы, фьючерсы и другие производные финансовые инструменты, 5-е издание. : Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д.Вильямс”

¹² HULL, J. (2007) Опционы, фьючерсы и другие производные финансовые инструменты, 6-е издание. : Пер. с англ. – М.: ООО “И.Д.Вильямс” – 1056 с.

¹³ John Wiley and Sons (2002) Деривативы. Курс для начинающих. Пер. с англ.- М:Альпина Паблишер

¹⁴ . HAUGH, M.B. – LO, A.W. (2001), “Asset allocation and derivatives”, Quantitative Finance, Vol. 1, No. 1, pp. 45-72.

derivativlardan xaddan ziyod ko'p foydalanish ma'lum risklarni vujudga keltirishi mumkinligini va shuning uchun ulardan foydalanishda ma'lum chegaralar o'rnatilishi lozimligi kelib chiqadi. Shu bilan bir qatorda ular orqali daromadlarni oshirish imkonи borligi Xogan va Malmkistlar tomonidan aytib o'tilgan.¹⁵

Derivativlar asosan 4 turga bo'linadi: svop, forward, fyuchers, option.

Derivativlardan asosan banklar o'z faoliyati bilan bog'liq turli xil moliyaviy xatarlarni himoya qilish uchun foydalanadilar. Banklar uzoq muddatli ssudalarni (ya'ni ipoteka kreditlarini) berish uchun qisqa muddatli mablag'larni (asosan, depozitlarni) yig'ib olishadi va bu ularning balanslaridagi vaqt oralig'ini aniqlaydi; Bo'shliq qanchalik keng bo'lsa, banklar balanslari foiz stavkalarining kutilmagan o'zgarishiga duchor bo'lish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. ¹⁶ Derivativlardan foydalanish ushbu nomutanosiblikdan kelib chiqadigan xavflarni himoya qilish strategiyasini anglatadi¹⁷.

Ba'zan derivativlar "bozor" orqali risklarni taqsimlashga imkon beradi. Shunga qaramay, xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarda va 2007-2008 yilda boshlangan moliyaviy inqirozda, avvalambor derivativ va banklar bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

So'nggi 40 yil davomida derivativlar faoliyati ko'lami keskin o'sib bordi va qaytaqayta moliyaviy derivativlarni sotib olgan va sotayotgan banklar ushbu kengayishning markazida turibdi. 90-yillarning boshlariga qadar "derivativ" so'zi Buyuk Britaniya va AQShda normativ hujjatlarda uchramagan, birja (ET) va birjadan tashqari (OTC) derivativlar bozorining statistikasi faqat 80-yillarning oxirlarida to'plana boshlagan.¹⁸

Derivativlar bilan ishslash ko'p ko'nikmalarni va katta miqdordagi moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi, bu ko'p holatlarda faqat katta miqdordagi yirik banklar ta'minlay oladi. ¹⁹ Bu avvalgi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan bo'lib, u banklar hajmi va derivativlardan foydalanish o'rtasida ijobiy aloqani topdi va bu o'z navbatida etarlicha katta faoliyat ko'lamiga ega bo'lgan banklar derivativlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy manbalarga ega bo'lishini anglatadi. Ushbu cheklash guruh a'zosi bo'lgan kichik banklar uchun qulaydir. ²⁰ Banklarning kreditlash qobiliyati va ularning derivativlar bozorida ishtirok etish to'g'risidagi qarorlari o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik Smit va Shulz modeliga ko'ra, xedjerlash faoliyati pul oqimi tafovutini kamaytirish orqali bankrotlik ehtimolini pasaytiradi.²¹

Banklar turli sabablarga ko'ra derivativlar bozorida ishtirok etishga qaror

¹⁵ HOGAN, A.M.B. – MALMQUIST, D.H. (1999), "Barriers to depository uses of derivatives: an empirical analysis", Journal of Multinational Financial Management, Vol. 9, No. 3-4, pp. 419-440.

¹⁶ Flannery, M., & James, C. (1984) The Effect of Interest Rate Changes on the Common Stock Returns of Financial Institutions. The Journal of Finance, 39(4), 1141-1153.

¹⁷ Sinkey, J.F. and D.A. Carter. (2000). "Evidence on the financial characteristics of banks that do and do not use derivatives." The Quarterly Review of Economics and Finance 40: 431-449.

¹⁸ ISDA. (2010). 20th Anniversary Special Report (<http://www.isda.org/anniversary/pdf/isda.pdf>)

¹⁹ Hunter W. and Timme S. (1986), "Technical change, organization form, and the structure of bank production", Journal of Money, Credit and Banking, 18, 2, 152–166.

²⁰ Sinkey, J.F. and D.A. Carter. (2000). "Evidence on the financial characteristics of banks that do and do not use derivatives." The Quarterly Review of Economics and Finance 40: 431-449.

²¹ Smith, C.W., Jr., and R.M. Stulz. 1985. "The determinants of firms' hedging policies." Journal of Financial and quantitative Analysis 20: 391-405.

qilishadi.²² Ular iqtisodiy o'zgaruvchilarning kutilmagan harakatlaridan himoya qilish, savdo yoki brokerlik-dilerlik xizmatlari ko'rsatish uchun derivativlardan foydalanishlari mumkin. Banklarning derivativ bozorda ishtirok etish darajasiga ularning o'ziga xos moliyaviy xususiyatlari ham ta'sir qiladi. Birinchidan, bank hajmi derivativlardan foydalanish darajasini aniqlashda muhim o'zgaruvchi ekanligini kutishimiz mumkin. Ushbu bozorlarda miqyosli iqtisodiyot rol o'ynashi kerakligi sababli, katta banklar boshqarish uchun zarur bo'lgan resurslarga ega bo'lismi ko'proq.

Aktivlar bo'yicha, banklarning daromadliligi, muddati yoki likvidliligi bilan ajralib turadigan moliyaviy vositalar o'rtasida resurslarni taqsimlash tanlovi ularni har xil xatarlarga duchor qiladi. Banklar, umuman olganda, xavfli balans tuzilmalarini himoya qilish uchun derivativlardan foydalanishlari mumkin.

Oddiy faoliyati davomida banklar qisqa muddatli majburiyatlarni, odatda depozitlarni uzoq muddatli aktivlarga aylantiradilar Aktivlar va passivlar o'rtasidagi har xil muddat foiz stavkalari o'zgarganda xavf manbai bo'lishi mumkin. Muddatdagi nomuvofiqlik balansda ham, aktivlar va majburiyatlarning muddati o'rtasidagi bog'liqlikni yaxshilash orqali va derivativlar yordamida boshqarilishi mumkin.

Banklar vositachilik rentabelligini, ya'ni foiz daromadlari va foiz xarajatlari o'rtasidagi farqni boshqarish uchun ham derivativlardan foydalanishlari mumkin. Bir tomonidan, derivativlar shunchaki foizlarning rentabelligini himoya qilish uchun ishlatalishi mumkin edi.²³ Boshqa tomondan, ular derivativlarda uzoq yoki qisqa pozitsiyalarni egallab, foiz stavkalarini oshirish uchun ishlatalishi mumkin. Ushbu ikkita effektni ajratish uchun ikkita turli o'zgaruvchidan foydalanamiz. Xedjerlash maqsadlarida foydalanish foiz marjasini bilan boshqariladi, ya'ni ssudalar bo'yicha daromadlar va moliyalashtirishga to'langan foizlar o'rtasidagi farq. Savdo va brokerlik-dilerlik maqsadlarida foydalanish derivativlar faoliyatidan olingan sof foyda bilan boshqariladi. Ikkala holatda ham biz ushbu o'zgaruvchilar va derivativlardan foydalanish darajasi o'rtasidagi ijobjiy munosabatni kutamiz.

Derativlarning bank faoliyatiga ta'siri to'g'risidagi aralash natijalar, ehtimol, spekulyatsiya qilish va xedjerlangan derivativ faoliyatni amalda ajratib ko'rsatish qiyinligi va yuqoridagi tadqiqotlar keng bozor va spekulyatsiyaga ega bo'lgan yirik banklar namunasi asosida olib borilishi bilan izohlanadi. Shu sababli, yuqoridagi tadqiqotlar natijalari, ehtimol, xedjerlashtirilmagan faoliyat, ayniqsa spekulyatsiya faoliyati natijasida buzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori etarli darajada rivojlanmaganligi uchun portfel investitsiyalar asosan banklar tomonidan amalga oshirilmoqda. Banklar investitsion faoliyatining eng muhim xususiyati shundaki, ular bunda qarzga olingan mablag'lardan foydalanib ish ko'radilar. Bankning daromadi investitsiyalardan olingan daromad bilan kreditorlar oldidagi majburiyatlarini bajarishdagi xarajatlar o'rtasidagi tafovut sifatida hosil bo'ladi. Shuning uchun investitsiyadan daromad kelib tushishi vaqtin qarz mablag'lari bo'yicha

²² Sinkey, J.F. and D.A. Carter. (2000). "Evidence on the financial characteristics of banks that do and do not use derivatives." The Quarterly Review of Economics and Finance 40: 431-449.

²³ Sinkey, J.F. and D.A. Carter. (2000). "Evidence on the financial characteristics of banks that do and do not use derivatives." The Quarterly Review of Economics and Finance 40: 431-449.

xarajatlari to'lab berilishi vaqtiga muvofiq kelishi lozim. Qimmatli qog'ozlar portfelini eng kam xatar bilan shakllantirish uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- likvidli qimmatli qog'ozni uning nominalidan past bo'limgan bahoda sotish yo'li bilan zarur paytda portfeldan chiqarib tashlash mumkinligi;
 - daromadlilik
 - har bir daqiqada portfel eng yuqori qiymatiga ega bo'lishi lozimligi; - muddatlilik
 - qimmatli qog'ozlar daromad olinishi muddatlari bo'yicha taqsimlanganligi;
 - qiymati qaytarilishi – qimmatli qog'ozni xarid bahosidan past bo'limgan bahoda sotish mumkinligi;
 - portfelda qimmatli qog'oz har bir toifasi muayyan salmog'iga riox qilinishi.
- Bankning investitsion siyosati xatarning eng past darajasida eng yuqori daromad olishga qaratilgan.
- Quyidagi 4-jadvalda derivativlar turlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

4-jadval

Derivativ shartnomalar turlari²⁴

²⁴ <https://tadqiqot.uz/wp-content/uploads/2020/06/economic-2020-07.pdf>

Базис актив	Шартнома турлари					
	Биржа деривативлари		Биржадан ташқари деривативлар			
	Exchange-Traded Futures	Exchange-Traded Options	OTC Swap	OTC Forward	OTC Option	
Капитал	DJIA Index Future, Single stock Future	Option on DJIA Index Future Single-share Option	Equity Swap	Back-to-back Repurchase Agreement	Stock Option Warrant Turbo warrant	
Фонд ставкаси	Eurodollar future Euribor future	Option on Eurodollar Future Option on Euribor future	Interest Rate Swap	Forward Rate Agreement	Interest Rate Cap and Floor, Swaption, Basis Swap, Bond option	
Кредит	Bond future	Option on bond future	CDS, Total Return Swap	Repurchase Agreement	CDO	
Валюта	Currency future	Option on currency future	Currency Swap	Currency forward	Currency option	
Товар	WTI crude oil futures	Weather derivative	Commodity Swap	Iron ore Forward Contract	Gold Option	

Kutilayotgan daromadni ololmaslik xatarini ikki qismga ajratish mumkin:

- bozor xatari, bunda daromadning o'zgarishlari barcha qimmatli qog'ozlarning daromadligiga bir paytning o'zida ta'sir etuvchi iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan kelib chiqadi;
- o'ziga xos xatar, bunda daromadning o'zgarishi, muayyan kompaniyagagina taalluqli bo'lган hodisalardan kelib chiqadi.

Qayd etilganidek, qimmatli qog'ozlarning xarakterli xususiyati shundaki, daromad qanchalik yuqori bo'lsa, xatar shunchalik yuqori bo'ladi, eng yuqori daromadga erishish uchun bank o'z investitsion portfelia qimmatli qog'ozlarni har xil turlarini kiritadi;

- xatar darajasi past va barqaror daromadli davlat obligatsiyalari;
- aktsiyalar;
- depozit sertifikatlari, veksellar;
- hosilaviy qimmatli qog'ozlar (fyucherslar, optionlar).

Ma'lumki derivativlar bozori birja (Exchange trade) va birjadan tashqari (Over The Counter) bozorlarga bo'linadi.

Bank faoliyatidagi xatar darajasini minimallashtirishda pul mablag'lari kelib tushishi va mablag'lar sarflanishini vaqt bo'yicha muvofiqlashtirish juda muhim vazifadir. Davriy ravishda, kreditorlarga to'lovlarни bajarishi muddatlari etib kelganda tijorat banklari pul mablag'larining bir qismini investitsion portfeldan bo'shatib oladilar. Bu maqsadda bank investitsiyalarni ham, jalg etilgan mablag'larni ham vaqt va hajmi bo'yicha diversifikatsiyalaydi. Masalan, bank resurslarni 3,6,9 oy muddatlariga jalg etgan bo'lsa, portfeli ham mablag'larni shu muddatlarda daromadlarini boy bermasdan portfeldan bo'shatib olishni rejalashtirib shakllantirishi lozim.

Jahon derivativ bozorining hajmi juda katta hisoblanadi. Xalqaro hisob-kitoblar

bankining (BIS) ma'lumotlariga ko'ra birjadan tashqari (OTC) derivativlar bozorida mavjud shartnomalarning umumiyligi miqdori 2018 yil yakunlari bo'yicha 544 trln.AQSh dollaridan 2019 yil yakunlari bo'yicha 559 trln.AQSh dollarini tashkil qildi. Shuningdek OTC derivativlar bozorining yalpi bozor qiymati ijobiy va salbiy qiymatlarini qo'shib hisoblaganda evro foiz stavkasi derivativlarining o'sishi hisobiga 9.7 trln.AQSh dollaridan 11.6 trln.AQSh dollariga etdi. Solishtirish uchun jahon YalIM hajmi 2019 yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra jami 88,1 trln.AQSh dollarini tashkil qildi va ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan 6,3 barobardan ko'proq qiymatga bo'lgan birjadan tashqari derivativlar bozorida shartnomalar tuzildi.

2-jadval ma'lumotlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak muddatli shartnomalar ichida Foiz stavkasi bo'yicha shartnomalar 80.4 foiz ulush bilan eng katta salmoqqa ega ekanligi ko'rishimiz mumkin. Bu holat o'tgan yillarda ham takrorlanganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi eng katta ulush valyuta derivativlariga to'g'ri kelib, ularning ulushi 16.5 foizni tashkil qilgan. Agar ikki valyuta va foiz stavkasi bo'yicha shartnomalarni qo'shib hisoblaganda butun birjadan tashqari derivativlar bozoriining 96.9 foizi tegishli ekanligini ko'rishimiz mumkin, bozorda asosan valyuta va foiz stavkasi derivativlari bo'yicha operatsiyalar amalga oshiriladi.

Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida kredit derivativlaridan foydalanish sababli yuzaga kelganligi ko'pchilikka ma'lum. 2-jadvalda kredit derivativlari, xususan CDS (Credit default swaps, kredit-defolt svoplari) hajmi 2019 yil 2 yarim yilligida holatiga birjadan tashqari derivativlar bozorining 1.45 foizini tashkil qilgan va boshqa derivativlarga, misol uchun foiz stavkasi bo'yicha shartnomalari nisbatan juda kichikdir

5-jadval

Global birjadan tashqari (OTC) derivativlar bozori to'g'risida ma'lumot mlrd. AQSh dollari²⁵

²⁵ Bank for International Settlements (<https://stats.bis.org/statx/srs/table/d5.1,2>)

млрд. АҚШ доллар

	Муддатли шартномлар сүммаси				Ялпи бозор қиймати			
	H1 2018	H2 2018	H1 2019	H2 2019	H1 2018	H2 2018	H1 2019	H2 2019
Барча шартномалар	594832	544383	640351	558505	10326	9662	12061	11598
Валюта шартномалари	95798	90658	98560	92177	2620	2257	2229	2230
Фоиз ставкаси шартномалари	481086	436832	523960	448965	6644	6400	8806	8352
Капитал шартномалари	7071	6419	7046	6874	608	571	579	583
Товар шартномалари	2133	1903	2114	2124	207	220	198	197
Кредит деривативлари	8581	8372	8418	8119	238	191	235	222
Бошқа деривативлар	164	199	253	246	9	22	14	15
Ялпи кредит риски					2570	2274	2662	2360

Ammo shuni yodda tutish kerakki, ushbu jadval bizga faqat ma'lumot beradi, ya'ni ushbu derivativlarning risklilik darajasi to'g'risida hech narsa aytmaydigan shartli miqdorlar hisoblanadi. Foiz stavkasi bo'yicha shartnomalari hajmi kattaroq bo'lishi mumkin, ammo kredit derivativlari yanada xavfliroqdir.

Shuningdek bozor yalpi qiymati (Gross market values) 2019 yil yakuni bo'yicha 11 598 mlrd.AQSh dollarini tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 936 mlrd.AQSh dollarga oshgan.

Birja derivativlar bozori hajmi birjadan tashqari derivativlar bozoriga nisbatan kichik hisoblanadi. Xalqaro hisob-kitoblar bankining (BIS) ma'lumotlariga ko'ra 2019 yil dekabr oyida birja fyuchers va optionlarining ochiq pozitsiyasi jami 96,45 trln.AQSh dollarini tashkil qildi.²⁶ Birja derivativlar bozorining hajmi birjadan tashqari derivativlar bozoriga nisbatan kichikligining asosiy sabablari bo'lib, standartlashgan shartnomalardan foydalanilishi, nazoratning birja tomonidan kuchli olib borilishi va xarajatlarning yuqoriligi hisoblanadi.

Global derivativlar bozorida AQSh tijorat banklari etakchi o'rnlarda turadi.


Yirik moliyaviy institutlarning kichik guruhi AQSh tijorat bank tizimida derivativlar faoliyatida ustunlik qilishda davom etmoqda. 2019 yilning to'rtinchi choragida to'rtta yirik tijorat banklari bank sohasining umumiyligini 85,7 foizini va sof kreditlar bo'yicha sof qarzdorlikning 83,2 foizini (NCCE- net current credit exposure) tashkil etdi.²⁷

AQSh tijorat banklari va jamg'arma uyushmalarining derivativ shartnomalarining tarkibini 2005 yildan 2019 yilga qadar ko'radigan bo'lsak 1-rasmida keltirilganidek

²⁶ <https://stats.bis.org/statx/srs/table/d1>

²⁷ OCC, Office of the Comptroller of the Currency: Quarterly Derivatives: Fourth Quarter 2019, Washington, D.C., March 2020, 49. (<https://www.occ.gov/publications-and-resources/publications/quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities/index-quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities.html>)

asosiy ulush svoplarga to'g'ri keladi va bu umumiylahon derivativlar bozori tendentsiyasiga mosdir. Bu muddat orlag'ida svoplarning ulushi 53-68 foiz oralig'ida bo'lib, eng yuqori miqdori 2010 yilda 149 331 mlrd.AQSh dollarini tashkil qilgan. 2019 yil 2-choragida jami derivativ shartnomalar miqdori 204 874 mlrd.AQSh dollarini tashkil qilgan va bu butun derivativlar bozorining 28 foizini tashkil qiladi. Bundan ham ko'rishimiz mumkinki AQSh tijorat banklari va jamg'arma uyushmalarining derivativlar bozorining eng yirik ishtirokchilari hisoblanadi va ularda sodir bo'ladigan o'zgarishlar butun bozorga ta'sir etadi.




1-rasm. Derivativ shartnomalar turlari bo'yicha ma'lumot. AQSh tijorat banklari va jamg'arma uyushmalari, mlrd.AQSh doll.²⁸

Bu narsani 2008 yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy inqirozida ham kuzatilgan, ya'ni o'sha davrda AQSh tijorat banklari kredit derivativlari o'zinining tarixdagi eng yuqori ko'rsatkichi 16 441 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilgan va bu butun bozorga ta'sir qilgan. Solishtirish uchun 2019 yil 4- choragida kredit derivativlari miqdori 3 945 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi va bu derivativlar bozorining 2.3 foizini tashkil qiladi.

Quyidagi 2-rasmdan ko'rishimiz mumkinki AQSh tijorat banklari va jamg'arma uyushmalarining derivativ shartnomalarining asosiy qismi foiz stavkasi derivativlariga to'g'ri keladi. 2006 yildan 2019 yilga qadar bo'lgan davrni ko'radigan bo'lsak foiz stavkasi derivativlarining ulushi 73-84 foiz oralig'ida bo'lgan.

²⁸ OCC, Office of the Comptroller of the Currency: Quarterly Derivatives: Fourth Quarter 2019, Washington, D.C., March 2020, 49. (<https://occ.gov/publications-and-resources/publications/quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities/index-quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities.html>)



2-rasm. Derivativ shartnomalar bazis aktivlari bo'yicha ma'lumot. AQSh tijorat banklari va jamg'arma uyushmalari, mlrd.AQSh doll.²⁹

2019 yil 4-chorak holatiga foiz stavkasi derivativlari miqdori 125 056 mlrd.AQSh dollarini tashkil qilgan va jami derivativlardagi ulushi 73 foizni tashkil qilgan. Keyingi eng katta ulush valyuta derivativlari to'g'ri kelmoqda. 2019 yil 4-choragida valyuta derivativlari miqdori 37 170 mlrd.AQSh dollarini va umumiylar shartnomalarning 22 foizi to'g'ri kelgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki AQSh tijorat banklari va jamg'arma uyushmalarining derivativ operatsiyalarining asosini foiz stavka va valyuta derivativlari tashkil qiladi va bu global derivativlar bozori tendentsiyasiga to'g'ri keladi.

AQSh derivativlar bozorida 4 ta yirik tijorat banklari ustunlik qiladi. Bular: JP Morgan Chase Bank, Bank of America, Citibank hamda Goldman Sachs banklari hisoblanadi va ushbu banklar global derivativlar bozorining eng yirik 10 ta ishtirokchisi bo'lib ham hisoblanadi.

6-jadval

AQSh derivativlar bozori va undagi 4 ta ustun tijorat banklari to'g'risida ma'lumot³⁰

mlrd.AQSh doll.


²⁹ OCC, Office of the Comptroller of the Currency: Quarterly Derivatives: Fourth Quarter 2019, Washington, D.C., March 2020, 49. (<https://occ.gov/publications-and-resources/publications/quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities/index-quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities.html>)

³⁰ Office of the Comptroller of the Currency (<https://occ.gov/publications-and-resources/publications/quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities/index-quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities.html>)

	Топ 4	Бошқа Банклар	Жами	Топ 4 улуши %	Бошқа банклар улуши %
Futures & Forwards	25 625	9 162	34 787	14,9	5,3
Total Swaps	84 315	12 299	96 615	49,2	7,2
Total Options	33 297	2 820	36 117	19,4	1,6
Credit Derivatives	3 733	212	3 945	2,2	0,1
Жами	146 970	24 493	171 463	85,7	14,3

2019 yil holatiga yuqoridagi 4 ta yirik bankning ulushi butun tijorat banklari va jamg'arma uyushmalari derivativlar bozorining 146 970 mlrd.AQSh dollarini bilan 85,7 foiz ulushni tashkil qildi. Aynan ushba 4 ta bank bozorning holatini belgilab beradi. Agarda (Bis 2019) taqdim qilgan ma'lumotlar bilan taqqoslaganimizda butun birja va birjadan tashqari derivativlar bozorini qo'shib hisoblaganda 4 ta bankning ulushi 20 foizdan ortiig'ini tashkil qiladi. Bundan ham ko'rinish turibdiki ushbu banklar global derivativlar bozoriga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

3-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki top 4 bankning yalpi daromadlari tarkibida savdo daromadlari (naqd va derivativlar bozori bo'yicha) salmoqli o'rinni egallaydi. 2019 yil 4 chorak holatiga JPMorgan Chase Bankning savdo daromadi 12.62 foizni tashkil qildi va Goldman Sachs bankning savdo daromadi 20.02 foizni tashkil qildi. Bu esa o'z navbatida derivativlardan nafaqat risklarni xedjerlash va aktivlar likvidligini ta'minlash, katta miqdorda daromad olish mumkinligini ham ko'rsatadi. Butun AQSh tijorat banklarining savdo daromadi 2019 yil 4-choragida yalpi daromadning 8.77 foizini tashkil qildi.



3-rasm. Top 4 tijorat bankining choraklik yalpi daromadga nisbatan savdo

daromadi (Cash and Derivative Positions), foizda³¹

Xulosa qilib aytganda AQSh tijorat banklari nafaqat AQSh, balki butun global derivativlar bozorining eng yirik ishtirokchilari hisoblanadi va ular bozorning holatini belgilab berishadi.

O'zbekiston Respublikasida derivativ boshqaruvning birlamchi huquqiy bazasi yaratilgan bo'lsada, hamon o'z echimini topmagan bir qator muammolar mavjud:

- tijorat banklarida derivativ vositalar bilan bog'liq bo'lган operatsiyalarni tartibga soluvchi alohida me'eriya xujjat mavjud emas va amalga oshirish tartibi aniq ifodasini topmagan;

- derivativlar vositasidagi operatsiyalarni rivojlantirishda spot operatsiyalari bozorini etarli darajada likvidli emasligi;

- so'mdagi depozit va kreditlarning bozor stavkalarining nobarqarorligi natijasida forvard kurslarining barqarorligiga salbiy ta'sir etmoqda;

- milliy valyuta kursining chet el valyutalariga nisbatan tebranishi yuqoriligi;

- tijorat banklari tomonidan kreditlar asosan qat'iy belgilangan stavkada berilishi foiz stavka derivativlarini amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi.

O'zbekiston Respublikasida derivativlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi. Ammo derivativlar bozori xozirgacha shakllanmagan. Derivativlar bozorini shakllanmaganligining asosiy sabablaridan biri joriy valyuta bozori likvidlik darajasini ta'minlash masalasi o'z echimini topmagan. Bundan tashqari Markaziy bankning valyuta bozoridagi ishtiroki xaddan ziyod faolligi hisoblanadi. Derivativlar vositasida operatsiyalarni amalga oshirish tartibini belgilaydigan me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqish tijorat banklarida derivativ instrumentlar shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shulardan biri Markaziy bank tomonidan "Hosilaviy moliyaviy vositalar turlari to'g'risida"gi yo'riqnomalar ishlab chiqish va unda hosilaviy moliyaviy vositalar (derivativlar) turlari to'liq yoritib berilishi kerak. Shuningdek, halqaro derivativlar bozori ishtirokchilariga xizmat ko'rsatuvchi va nazoratini amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish lozim. Kapital bozorida ma'lum bir ijobiy natijalarga erishilgach, hosilaviy qimmatli qog'ozlar turlari hisoblangan fyuchers va optionlarni ham muayyan mezonlar asosida muomalaga kiritish maqsadga muvofiq. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning extiyojlari va ular bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur hosilaviy moliyaviy vositalar va texnologiyalarni yaratish va boshqalar.

Xalqaro moliya-kredit institutlarining maqsadi.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarining institutsional tuzilishi ko'plab xalqaro tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ularning ba'zi birlari katta vakolatlar va resurslarga ega bo'lган holda xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarini bir maromga solib turadi. Boshqalari esa valyuta va moliya-kredit siyosati masalalari yuzasidan hukumatlararo muhokama etishning forumi shaklida, konsensus hamda

³¹ OCC, Office of the Comptroller of the Currency: Quarterly Derivatives: Fourth Quarter 2019, Washington, D.C., March 2020, 49. (<https://occ.gov/publications-and-resources/publications/quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities/index-quarterly-report-on-bank-trading-and-derivatives-activities.html>)

tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Yana boshqalari esa valyuta-kredit va moliya hamda yalpi iqtisodda mavjud dolzarb muammolarga aloqador axborotlar, statistik va ilmiy-tadqiqot nashrlarini yig'ishni ta'minlaydi. Yuqorida qayd etilgan tashkilotlarning ayrimlari zikr etilgan barcha funktsiyalarni bajaradilar.

Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlarini xalqaro moliya institutlari deb shartli ravishda atash mumkin. Ushbu tashkilotlarni hamkorlikni rivojlantirish hamda murakkab va ziddiyatli jahon xo'jaligining yaxlitligi hamda barqarorligini ta'minlash kabi yagona maqsad birlashtiradi. Umumjahon ahamiyatiga ega bo'lган tashkilotlarga avvalo, BMTning ixtisoslashgan institutlari, ya'ni XVF va Jahon banki guruhi hamda Jahon savdo tashkiloti kiradi. BMTning ayrim ixtisoslashgan organlari xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarining muammolari bilan shug'ullanadilar. Chunki BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha (YuNKTAD) konferentsiyalarida valyuta-kredit masalalari jahon savdosini hamda rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etishining muammolari bilan bir qatorda muhokama etiladi. Konferentsiyaning sessiyalari orasidagi davrda YuNKTAD funktsiyalarini Savdo va rivojlanish bo'yicha kengash bajaradi (bir yilda ikkita sessiya). Jahon valyuta tizimining muammolari "ko'zga ko'rinxaydigan" moddalar bo'yicha hamda "rivojlanishga rasmiy ko'mak" bilan bog'liq jahon savdosini moliyalashtirish bilan bog'liq Qo'mitada muxokama etiladi. Ushbu qo'mita shuningdek rivojlanayotgan mamlakatlarni kapitallarning jahon bozoriga chiqishi muammolari, eksport kreditlari bo'yicha kafolatlar, XX asrning 70-yillarini o'rtalaridan boshlab esa rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari muammolari bilan shug'ullanadi.

BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi bo'lmish Iqtisodiy kengash 4 mintaqaviy komissiyani Evropa, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi uchun tuzgan. Osiyo va Lotin Amerikasi komissiyalarini Osiyo taraqqiyot banki hamda Amerikaaro taraqqiyot bankini tashkil etilishiga ko'maklashgan. Maxsus jamg'armalar esa ushbu tashkilotlarni to'ldiradilar.

"Marshall rejasi"ni amalga oshirilishi munosabati bilan 1948 yilda tashkil etilgan Evropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti keyinchalik Evropa to'lov ittifoqini (1950-1958 yillar) tashkil etishga yo'naltirildi, 1961 yilda esa u Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotiga (IHRT, Parij) almashtirilgan. Hozirda ushbu tashkilot o'zida 30 mamlakatni birlashtirgan bo'lib, bu mamlakatlar hissasiga dunyo aholisining 16 foizi va G'arb dunyosi ishlab chiqarishining 2/3 qismi to'g'ri keladi. IHRT doirasida 30 qo'mita faoliyat ko'rsatadi, shu jumladan eksport kreditlari shartlarini kelishtirish (konsensus), to'lov balansi muammolari bo'yicha ham. IHRTning asosiy maqsadi – bu, a'zo-mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi hamda moliyaviy barqarorlashishiga, erkin savdoga, yosh davlatlarning taraqqiy etishiga ko'maklashishdir. IHRT – rivojlanayotgan mamlakatlarning fikr almashish hamda iqtisodiy siyosatni, xususan valyuta-kredit va moliyaviy siyosatni muvofiqlashtirish

bo'yicha o'ziga xos klubi bo'lib, ilmiy-tekshirish ishini olib boradi, jahon iqtisodiyotining ekonometrik modellari asosida prognozlash hamda xalqaro taqqoslashlarning markazi bo'lib hisoblanadi (yilda 2 marta).

Kreditor mamlakatlarning Parij klubi – bu, rivojlangan mamlakatlarning davlat qarzlari muammolarini o'zaro muvofiqlashtirish, to'lov muddatlarini uzaytirish masalalari muhokama qilinadigan norasmiy tashkilotidir. Birtomonlama moratoriy (to'lov muddatini uzaytirish)dan qochish maqsadida kreditorlar qarzdorlar bilan tashqi zayomlar shartlarini qayta ko'rib chiqish haqida "yuzma-yuz" muzokaralar olib boradi. Ushbu klub faoliyatini boshlanishi Argentina kreditorlari Parijga o'z qarzdorlar bilan muzokaralar o'tkazishga taklif qilingan paytga, ya'ni 1956 yilga to'g'ri keladi. Parij klubini XX asrning 70-yillaridagi davriy yig'ilishlari XX asrning 80-90 yillarida dastlab rivojlanayotgan mamlakatlar, so'ng Sharqiy Evropa va Rossiya davlat qarzini so'ndirish muammosining kuchayishi munosabati bilan aktivlashgan faoliyati bilan almashinildi. Parij klubining yig'ilishlarida XVF, XTRB, YuNKTAD kabi tashkilotlardan kuzatuvchilar ishtirok etadi va odatda tashqi qarzning joriy yilda to'lanishi lozim bo'lgan qismiga aloqador masala ko'rib chiqiladi. London klub qarzdor mamlakatlarning tashqi xususiy qarzdorligini muvofiqlashtirish muammolarini muhokama qiladi.

Davlatlararo muvofiqlashtirishning muammolarini ishlab chiqish XX asrning 70-yillarini o'rtalaridan boshlab "ettilik"ning davlatlar rahbarlari va hukumatlari darajasiga o'tkazilgan. Ushbu "ettilik" Rossiya qo'shilganidan so'ng "o'nlik guruhi"ga aylandi, u esa "ettilik" davlatlaridan tashqari Belgiya, Niderlandlar, Shveytsariya, Shvetsiyani ham o'z ichiga oladi. Ushbu yig'ilishlarda valyuta-kredit muammolariga katta e'tibor qaratiladi hamda har safar liberalizm va xalqaro hamkorlikning tamoyili markazga intilish tendentsiyalari ("har kim o'zi uchun")ga zid ravishda tasdiqlanadi.

Xalqaro moliya institutlari Xalqaro Hisob-Kitob Bankidan (XHKB, 1930 yil) tashqari ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan. Bu davlatlararo institutlar mamlakatlarga kreditlar beradi, jahon valyuta tizimining amal qilish tamoyillarini ishlab chiqadi, xalqaro valyuta-kredit va moliya munosabatlarini davlatlararo tartibga solish bilan shug'ullanadi. Xalqaro moliya institutlarining yuzaga kelishi quyidagi sabablar bilan bog'liq:

-xo'jalik hayotining baynalmilallashuvining kuchayishi, milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi TMK va TMBning tashkil topishi;

-jahon xo'jaligi aloqalarini, shu jumladan valyuta-kredit va moliya munosabatlarini davlatlararo tartibga solishning rivojlanganligi;

-jahon valyuta tizimi, valyuta, kredit, qimmatli qog'ozlar hamda oltin jahon bozorlaridan tashkil topgan jahon iqtisodiyotining beqarorlik muammolarini hamkorlikda hal qilishning zarurligi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning mintaqaviy rivojlanish banklarini yuzaga kelishining o’ziga xos sabablari bo’lib quyidagilar hisoblanadi:

-ushbu mamlakatlar tarafidan siyosiy mustaqillikka erishishi;

-jahon taraqiyotidagi ularning rolini oshib borishi;

-milliy iqtisodiyot muammolarini hal etish maqsadida mintaqaviy hamkorlik va iqtisodiy integratsiyaga intilish tendentsiyalari. Mintaqaviy valyuta va moliya-kredit tashkilotlariga G’arbiy Evropa integratsiyasini rag’batlantirish maqsadida tashkil qilingan EIning institutlari kiradi.

Xalqaro moliya institutlari quyidagi maqsadlarni ko’zlaydi:

-jahon hamjamiyatining xatti-harakatlarini xalqaro moliya hamda jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish maqsadida birlashtirish;

-valyuta va moliya-kreditning muvofiqlashtirilishini davlatlararo miqyosda amalga oshirish;

-jahon valyuta va moliya-kredit siyosatining taktikasi hamda strategiyasini hamkorlikda ishlab chiqish va muvofiqlashtirish.

Ayrim mamlakatlarning xalqaro moliya institutlaridagi qatnashish darjasи hamda ularga bo’lgan ta’sir darjasи ularning ushbu institutlar kapitalidagi badalining kata kichikligi bilan belgilanadi, chunki odatda “ovozlarning tortilgan vazni” tizimi qo’llaniladi. Juhon xo’jaligidagi kuchlar nisbatining o’zgarishi, xususan XX asrning 60-yillarda urushdan keyingi amerikatsentrismiga qarama-qarshi 3 (AQSh, G’arbiy Evropa, Yaponiya) jahon moliyaviy markazining vujudga kelishi xalqaro moliya institutlarining faoliyatida o’z aksini topdi. Masalan Evropa ittifoqi (EI) mamlakatlari XVFda o’z ta’sirlarini kuchaytirib, printsipial masalalar bo'yicha veto huquqiga ega bo’lishdi. Ushbu institutlar faoliyatida 3 markaz o’zaro munosabatlarining 2 tendentsiyasi o’zini namoyon etmoqda. Mazkur tendentsiyalar rivojlangan va rivojlanayotgan hamda MDH davlatlari, Sharqiy Evropa mamlakatlari xalqaro moliyalarini global muammolari bo'yicha kelishmovchiligi va hamkorligi masalalaridan iboratdir.

2. Xalqaro valyuta fondi: maqsadi, nizomi, kredit operatsiyalari

XVF (International Monetary Fund, IMF) – bu, a’zo-davlatlar o’rtasida valyuta-kredit munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda ularga to’lov balansining kamomadi oqibatida yuzaga keladigan valyuta qiyinchiliklari paytida qisqa va o’rta muddatli kreditlarni chet el valyutasida taqdim etish orqali moliyaviy yordam ko’rsatish uchun mo’ljallangan xalqaro moliyaviy tashkilotdir.

XVF BMTning ixtisoslashtirilgan muassasi maqomiga ega bo’lgan tashkilot hisoblanadi. U jahon valyuta tizimining institutsional asosi bo’lib xizmat qiladi.

XVF BMTning Bretton-Wudsda bo’lib o’tgan (AQSh, Nyu-Gempshir, 1944 yil 22 iyul) xalqaro valyuta-kredit konferentsiyasida tashkil ta’sis etilgan. Mazkur

Konferentsiya XVFning Ustavi vazifasini bajaruvchi uning haqidagi Kelishuv Moddalarini qabul qildi. Ushbu hujjat 1945 yilning 27 dekabrida kuchga kirdi. XVF o’z faoliyatini tarkibida 39 a’zo-mamlakatlarga ega bo’lgan holda 1947 yilning 1 martidan boshladi. Valyuta operatsiyalariga esa 1947 yilning 1-martidan boshlab qo’llurdi.

O’sha paytda SSRI Brettonvuds konferentsiyasida ishtirok etgan bo’lsada, biroq Sharq hamda G’arb o’rtasidagi “sovuv urush” oqibatida XVF haqidagi Kelishuv moddalarini ratifikatsiya qilmadi. XX asrning 50-60 yillari mobaynida xuddi shu sabablarga ko’ra XVF dan Polsha, Chexoslovakiya va Kuba davlatlari chiqib ketdi. Maqsadi markazlashtirilgan holda rejalashga asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o’tish hamda milliy iqtisodiyotlarni jahon xo’jaligiga integratsiya qilish bo’lgan islohotlar natijasida sotsialistik hamda ilgari SSRI tarkibiga kirgan davlatlar XX asrning 90-yillarini boshlarida XVFiga a’zo bo’lishdi. (Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Kuba bulardan mustasno). Rossiya Federatsiyasi 1992 yilning 1-iyunidan boshlab, MDH va Boltiq bo’yi davlatlari 1992 yilning aprel-sentyabr davrlarida (Tojikiston 1993 yilning aprel oyida) XVFga a’zo bo’ldilar.

1999 yilda (yanvar) XVFning a’zolari – 182 mamlakatni tashkil etdi. XVF rahbar organlarining muntazam manzili – Vashington (AQSh). Bundan tashqari uning bo’limlari Parij (Frantsiya)da, Jeneva (Shveytsariya)da, Tokio (Yaponiya)da hamda BMT qoshida Nyu-Yorkda joylashgan.

XVFning rasmiy maqsadlari: doimiy faoliyat yurituvchi muassasa doirasida valyuta-moliyaviy jarayondagi xalqaro hamkorlikka imkon to’g’dirish; xalqaro savdoning kengayishi hamda balanslashgan o’sishiga ko’maklashish; valyutalar barqarorligini ta’minlash, valyuta borasidagi tartibga solingan munosabatlarni a’zo-mamlakatlar o’rtasida qullab-quvvatlab turish hamda raqabatbardosh afzallikkarga ega bo’lish maqsadida valyutalarning qadrsizlanishiga yo’l qo’ymaslik; to’lov balansining a’zo-mamlakatlar o’rtasidagi joriy operatsiyalari bo’yicha hisob-kitoblarining ko’p taraflama tizimini yaratishda hamda valyuta cheklovlarini bekor qilishda yordam ko’rsatish; a’zo-mamlakatlarga ularga to’lov balanslaridagi buzilgan muvozanatni to’g’irlash imkoniyatini beruvchi xorijiy valyutadagi mablag’larni vaqtincha taqdim etish.

Jahon valyuta tizimining evolyutsiyasi hamda XVF faoliyatining transformatsiyasi borasida Kelishuv moddalari uch marotaba qayta ko’rib chiqilgan edi. Tuzatishlarning birinchi seriyasi (1968-1969 y.y.) SDR mexanizmi tashkil bo’lishi bilan bog’liq, ikkinchisi (1976-1978 y.y.) Yamayka valyuta tizimining asosiy tamoyillarini belgilab berdi, uchinchi tuzatish (1990-1992 y.y.) o’z moliyaviy majburiyatlarini XVF oldida bajarmagan a’zo-mamlakatlarga aloqador ovoz berishda ishtirok etish huquqini to’htatish sifatidagi jazo choralar qo’llanilishini ko’zda tutgan edi. Bundan tashqari Ustavga SDRni maxsus asosda, bir marotaba muomalaga

chiqarish masalasiga aloqador bo’lgan boshqaruvchilar Kengashi tomonidan qabul qilingan o’zgartirish a’zo-mamlakatlar tarafidan ratifikatsiya qilindi. Shuningdek a’zo-mamlakatlar zimmalariga kapitallarning xalqaro harakatini erkinlashtirish yuzasidan majburiyatlar yuklaydigan o’zgartirishlar tayyorlandi.

Boshqaruv organlarining tarkibiy tuzilishi. XVFning oliy rahbar organi – bu, har bir a’zo-mamlakatdan olingan boshqaruvchi va uning o’rinbosaridan iborat bo’lgan Boshqaruvchilar Kengashidir (Board of Governors). Bular odatda moliya vazirlari yoki markaziy banklarning rahbarlaridir. Kengash tasarrufiga Bitim moddalariga o’zgartirishlar kiritish, a’zo-mamlakatlarni qabul qilish va chiqarish, kapitaldagi ularning ulushlarini aniqlash va qayta ko’rib chiqish, ijrochi direktorlarni saylash kabi Fond faoliyatiga oid tanch masalalarni xal etish kiradi. Boshqaruvchilar o’z sessiyalariga odatda yilda 1 marta yig’ilishadi, biroq ular yig’ilishlarni har qanday vaqtida pochta orqali o’tkazish hamda ovoz berish imkoniyatiga ega.

XVFda ovozlarning “tortilgan” miqdori tamoyili amal qiladi, bu esa a’zo-mamlakatlarning ovoz berish orqali Fond faoliyatiga o’z ta’sirini o’tkazish imkoniyati ularning Fond kapitalidagi ulushi bilan belgilanishini ko’zda tutadi. Har bir davlat Fond kapitalidagi badalining hajmidan qatiy nazar 250 “bazis” ovozga hamda ushbu badalning har 100 ming SDR uchun qo’shimcha bir donadan ovozga egadir. Bunday tartib nisbatan yuqori darajada rivojlangan davlatlarga ovozlarning xal qiluvchi ko’philibini ta’minlash imkonini beradi.

XVFdagi eng ko’p ovozlarga AQSh-17,78% (1998 yilning 30 apreliga), Germaniya-5,53%, Yaponiya-5,5%, Buyuk Britaniya-4,98%, Frantsiya-4,98%, Saudiya Arabistoni-3,45%, Italiya-3,09%, Rossiya-2,9% ega. EIning 15 a’zo-mamlakatini ulushi-28,8%, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT)ga a’zo bo’lmish 29 rivojlangan mamlakatning XVFgi ulushi-63,4% tashkil qiladi. XVF a’zolarining 84%ni tashkil etgan qolgan mamlakatlarning zimmasiga jami ovozlarning faqat 36,6% to’g’ri keladi.

Boshqaruvchilar Kengashida qarorlar odatda ovozlarning oddiy ko’philigi bilan, operatsion yoki strategik ahamiyatga ega bo’lgan o’ta muhim masalalar bo’yicha esa “maxsus ko’philik” ovoz bilan (a’zo-mamlakatlarning tegishli 70% yoki 85% ovozi) ya’ni qabul qilinadi. AQSh va EI ovozlari ulushini XX asrning 70 va 80-yillaridagi birmuncha qisqartirilishiga qaramasdan ular hamon Fondning muhim (tayanch) qarorlariga (qabul qilinishi ovozlarning 85% talab qiluvchi) veto qo’yishlari mumkin. Bu esa AQShni G’arbnинг boshqa etakchi davlatlari bilan birgalikda XVFda qarorlarni qabul qilish jarayoni ustidan nazoratni amalga oshirish hamda o’z manfaatlarda Fond faoliyatini kerakli yo’nalishga burish imkoniyatlariga ega ekanligini bildiradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarga kelsak ular ham bunday imkoniyatlarga nazariy jihatdan ega, negaki ko’p sonli turli-tuman mamlakatlarning o’zaro kelishishi nihoyatda murakkab masaladir.

XVFning 1978 yildan amalda bo'lgan hozirgi Nizomiga muvofiq boshqaruvchilar Kengashi boshqaruvning doimiy faoliyat ko'rsatuvchi yangi organini ta'sis etishi mumkin. Ushbu yangi organ a'zo-mamlakatlarning vazirlari darajasidagi Kengashdan iborat bo'lib, jahon valyuta tizmini yangi sharoitlarga muvofiqlashishi hamda moslashishini kuzatadi. Biroq bunday organ hali tashkil bo'limgan bo'lib, hozirda uning vazifasini jahon valyuta tizimi masalalari bo'yicha Boshqaruvchilar Kengashining Muvaqqat Qo'mitasi bajarmoqda. Ushbu Muvaqqat Qo'mita XVFning 24 boshqaruvchisidan iborat bo'lib, u 1974 yilda ta'sis etilgan, yilda ikki marotaba yig'ilish o'tkazadi. Biroq yuqorida ko'zda tutilgan Kengashdan farqli ularoq u direktiv qarorlar qabul qilish vakolatiga ega emas. Biroq bunga qarmasdan u quyidagi muhim funktsiyalarni bajaradi: Ijro kengashiga rahbarlik qiladi; jahon valyuta tizimi hamda XVF faoliyati bilan bog'liq strategik qarorlarni ishlab chiqadi; boshqaruvchilar Kengashiga XVFning Kelishuv Moddalariga tuzatishlar kiritish yuzasidan takliflarni taqdim qiladi. Shunga o'xshash rolni shuningdek Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Banki (XTTB) hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga real resurslarni etkazish Fondi boshqaruvchilari Kengashining Birlashgan vazirlar qo'mitasi bajaradi.

Boshqaruvchilar Kengashi o'zining ko'p vakolatlarini Ijro kengashiga (Executive Board), ya'ni XVFda ishlar yuritilishi uchun javobgar bo'lgan direktoratga taqdim etdi. Ushbu ish yuritishlar siyosiy, tezkor va ma'muriy jarayonlarning keng doirasini, xususan a'zo-mamlakatlarga kreditlarni taqdim etish hamda ularning valyuta kurslari borasidagi siyosati ustidan nazoratni amalga oshirish kabilarni o'z ichiga oladi. 1992 yildan beri ijrochi direktorlarning soni 24 taga etgan. Ijro Kegashi Fondning Vashington shahrida joylashgan shtab-kvartirasida doimiy asosda faoliyat ko'rsatadi hamda o'z yig'ilishlarini odatda haftada uch marta o'tkazadi. 1992 yildan boshlab ijro direktorlarining soni 24ga etkazildi, ulardan 5tasi Fond kapitalida eng ko'p kvotaga ega bo'lgan Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh, Frantsiya va Yaponiya davlatlari tomonidan tayinlangan; 3tasining har biri bittadan mamlakat, ya'ni Xitoy, Rossiya va Saudiya Arabistoni manfatlarini ifodalaydi; qolgan 16tasi esa geografik joylashuv nuqtai nazaridan mos guruhlarga bo'lingan holda qolgan a'zo-mamlakatlardan saylangan. Ijro direktorlarining saylovi hamda tayinlanishi ikki yilda bir marotaba bo'ladi. Direktor uni saylagan boshqaruvchilarning umumiyo ovozlari bilan teng bo'lgan ovozlar miqdoriga ega bo'ladi. Biroq Ijro kengashidagi qarorlar ko'pchilik holatlarda rasmana ovoz berish orqali emas, balki uning a'zolari o'rtasidagi konsensusga erishish orqali qabul qilinadi.

XVFning Ijro kengashi Fondning boshqaruvchi-direktorni (Managing Director) 5 yil muddatga saylaydi. U Fond ma'muriy apparatini boshqaradi (1998 yilning sentyabr holatiga 122 mamlakatdan 2660 xodim). Boshqaruvchi-direktor (1987 yildan boshlab) Mishel Kamdessyu (1997 yilning 16 yanvaridan faoliyatning 3 davriga

saylangan, Frantsiya), uning birinchi o'rinnbosari (1994 yildan boshlab) Stenli Fisher (AQSh).

Kapital va qarzga olingan resurslar. XVF aktsiyadorlik korxona ko'inishida tashkil qilingan: uning kapitali a'zo-mamlakatlarning obuna ko'rinishidagi badallari hisobiga tashkil topadi. Har bir mamlakat SDRlarda ofodalangan kvotaga egadir. Kvota, a'zo-mamlakatlarning XVF bilan o'zaro munosabatlaridagi tayanch bo'g'in bo'lib, u quyidagilarni belgilab beradi: 1)kapitalga bo'lgan obuna summasini; 2)Fond resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini; 3)SDRlarni navbatdagi taqsimoti paytida a'zo-mamlakat tarafidan ularni olish summasini; 4)mamlakatning Fonddagi ovozlari sonini. Kvotalarning kata-kichikligi mamlakatlarning jahon savdosi hamda iqtisodiyotidagi ulushi asosida quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda belgilanadi: YaIM; to'lov balansi joriy operatsiyalarining hajmi; rasmiy oltin-valyuta zahiralari. Shu sababli kvotalar notekis taqsimlangandir. 1978 yilgacha kvotalarning 25 foizigachasi oltin bilan to'langan, hozirda esa zahira aktivlar bilan (SDR va erkin ayrboshlanadigan valyuta); 75 foizi – milliy valyutada.

Kvotalarni qayta ko'rib chiqilishi har 5 yilda bir marta amalga oshiriladi. 1947 yildan beri kvotalar 9 marta ko'rib chiqilgan. Kvotalarning ko'paytirilishi va a'zo-mamlakatlar sonining o'sishi natijasida Fondning kapitali 1947 yildagi 7,7 mlrd. SDRdan 1994 yildagi 146 mlrd. SDRga, (200 mlrd. AQSh dollaridan ko'proq) etdi. Biroq XVF resurslarining ko'payishi jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) jami o'sishidan va ayniqsa to'lov balansining joriy operatsiyalari bo'yicha xalqaro to'lovlaring o'zgarishidan sezilarli darajada ortda qolib ketmoqda.

XVFga a'zo-ayrim mamlakatlarning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati va ulushining o'zgarishi natijasida neft eksporti bilan shug'ullanuvchi, birinchi navbatda Saudiya Arabistoni, shuningdek Germaniya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning kvotasini ko'payishi boshqa mamlakatlarning kvotalarini o'sishidan ancha ilgarilab ketdi. Natijada ushbu mamlakatlarning XVF kapitalidagi kvotasining ulushi oshib ketdi. Biroq XVF resurslarini o'sishi jahon YaIM o'sishidan sezilarli darajada, to'lov balansi joriy operatsiyalari to'lovlaring hajmi dinamikasidan esa katta darajada orqada qolayotgan edi. A'zo-mamlakatlarga kreditlar taqdim etish uchun XVF kapitalining barcha hajmi ishlatilmayotganligini, balki valyutalarning kichik doirasi, ya'ni Fond tarafidan vaqt-vaqt bilan belgilanadigan "erkin foydalilaniladigan valyutalar" (AQSh dollari, Yaponiya yenasi, Evro, funt sterling) ishlatilayotganligini bu erda hisobga olish lozimdir.

XVFning boshqaruvchilar Kengashi 1998 yilning 30 yanvarida a'zo-mamlakatlar kvotalarining o'nbirinchi bor qayta ko'rib chiqilishi nihoyasida kvotalar umumiyligi summasini 45 foizga oshirish haqida qaror qabul qildi. 1999 yilning 22 yanvarida ushbu qaror kuchga kirdi va natijada Fondning kapitali 212 mlrd. SDR (297 mlrd. AQSh dollari)gacha o'sdi.

Kapitalning so'nggi oshirilishi natijasida sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlarning 25tasi hissasiga umumiy kvotalar summasining 62,8 foizi to'g'ri kelgan, shu jumladan AQSh – 17,5%, Yaponiya – 6,3%, Buyuk Britaniya – 5,1%dan, Italiya - 3,3%, Kanada – 3,0%. Evropa ittifoqi (EI) mamlakatlarining hissasi – 26,7 foizga teng. Rivojlanayotgan mamlakatlar (Bolgariya, Vengriya, Vietnam, Mongoliya, Polsha, Ruminiya, Slovakiya, Chexiya, MDH davlatlari), shuningdek Albaniya, Xitoy va sobiq Yugoslaviyaning hissasi 10,0 foizga, qolgan barcha 127 mamlakatning xissasi esa 27,2 foizga tengdir. Rossiya Federatsiyasi Fonddagi o'zining ulushiga (5,9 mlrd. SDR yoki 8,3 mlrd. AQSh dollari) ko'ra Kanadadan keyingi to'qqizinchi o'rinni egallaydi. MDH va Boltiq bo'yи mamlakatlar kvotalarining summasi 4,46 foizni (9,5 mlrd. SDR yoki 13,3 mlrd. AQSh dollari) tashkil qiladi.

Fond o'z kapitaliga qo'shimcha ravishda qarz vositalarini ham jalb qilish imkoniyatiga ega. Bunga muvofiq "o'nlik guruhi"ga kiruvchi davlatlar yoki ularning markaziy banklari (Belgiya, Italiya, Kanada, Germaniya Federal Banki, Niderlandlar, Buyuk Britaniya, AQSh, Frantsiya, Shvetsiya Davlat Banki, Yaponiya) Fond bilan qarz olish to'g'risida Bosh bitim tuzdilar (GSZ, General Arrangements to Borrow, GAB) hamda ushbu Bosh bitim 1962 yilning 24 oktyabridan kuchga kirgan. 1964 yilda teng huquqli bo'limgan a'zo sifatida Shveytsariya milliy banki ularga qo'shildi (1984 yilning apreldan to'laqonli ishtirok etadi).

Ushbu kelishuvda a'zo-mamlakatlar yoki ularning markaziy banklari tarafidan Fondga revolver asosda 6,5 mlrd. SDR (8,8 mlrd. AQSh dollari) summasida kredit yo'nalishlari ochilishi ko'zda tutilgan edi. Ushbu mablag'lar "jahon valyuta tizimini izdan chiqishini oldini olish yoki ushbu muammoni bartaraf etish" maqsadlariga ishlatilishi holatidagina taqdim qilinar edi. XVF o'z navbatida 3-5 yil muddatga GSZ ishtirokchisi bo'l mish mamlakatlarga zayom taqdim etishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Mazkur mablag'lar GSZ ishtirokchisi bo'limgan mamlakatlarga ham moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadlariga qat'iy mezonlarga rioya etgan holda ishlatilishi mumkin edi. XVF mazkur kelishuvlar doirasida o'zi tarafidan olingan kreditlar bo'yicha foizlarni to'laydi hamda ularni 5 yillik muddat ichida so'ndirish majburiyatini zimmasiga oladi.

GSZ dastlab 4 yilga tuzilgan edi, keyinchalik esa u bir necha bor uzaytirilgan. GSZni 1983 yil dekabr oyida qayta ko'rib chiqish borasida GSZ qatnashchilari kredit limitini 17 mlrd. SDRgacha (24,0 mlrd. AQSh dollariga yaqin) ko'paytirilishiga kelishib olishdi. Mazkur kelishuv bilan Saudiya Arabistoniga bilan xuddi shunday shartlar asosidagi 1,5 mlrd. SDR (2,1 mlrd. AQSh dollari) hajmidagi kredit yo'nalishi haqidagi kelishuv ham bog'liqdir.

1997 yilning 24 noyabrida XVF GSZni yana 5 yilga, ya'ni 1998 yilning 26 dekabridan 2003 yilni 25 dekabriga qadar uzaytirdi. 1998 yilning iyulida GSZ a'zolari bo'l mish mamlakatlar Fondga kreditni mazkur mexanizm doirasida 6,3 mlrd. SDR (8,3

mlrd. AQSh dollariga yaqin) hajmida Rossiyaga moliyaviy yordam ko'rsatish uchun taqdim etishga rozi bo'ldilar. Bu GSZ mablag'larini so'nggi 20 yil ichida ilk bor ishlatalishi hamda ushbu mablag'larni GSZ a'zosi bo'lмаган mamlakat tarafidan olinishining birinchi holati edi.

Moliyaviy inqirozlarga qarshi ta'sir ko'rsatish maqsadida resurslarga bo'lgan talablarning o'sishi munosabati bilan "ettilik" 1995 yilning iyun oyida GSZ doirasidagi kredit limitini ikki barobarga oshirish imkonini beradigan chora-tadbirlarni amalga oshirishni taklif qildi. XVFning ijro Kengashi 1997 yilning 27 yanvarida ishtirokchilari 25 davlat yoki ularning markaziy banklari bo'lgan zayomlar to'g'risidagi yangi Kelishuv (New Arrangements to Borrow, NAB)ni ma'qulladi. Mazkur Kelishuvlarga binoan Fond ushbu davlatlarda zarur bo'lganda 34 mlrd. SDRgacha (47 mlrd. AQSh dollariga yaqin) bo'lgan mablag'larni olishi mumkin edi. Yangi kelishuvlar GSZni o'rnini bosa olmaydi. Biroq Fond tarafidan yuqoridagi ikki mexanizm doirasida olinishi mumkin bo'lgan mablag'larning eng katta hajmi umuman olganda 34 mlrd. SDRdan oshmasligi lozim. XVFni qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash zarurati to'g'ilganda GSZ mazkur qo'shimcha resurslarning navbat bo'yicha birinchi hamda hajm bo'yicha bosh manba bo'lib maydonga chiqishi mumkin.

Kredit operatsiyalarini kengaytirish zaruriyati XVFidan uning moliyaviy bazasini mustahkamlash maqsadida shuningdek ikki taraflama asosda ham jalb qilinadigan qarz mablag'lariga XX asrning 80-yillarida murojaat etishga undadi. Fond qarz mablag'larini Belgiya, Saudiya Arabiston, Shveytsariya, Yaponiya va bir qator mamlakatlarning moliya vazirliklari hamda markaziy banklaridan, shuningdek Xalqaro Hisob-kitoblar Bankidan (XHB) olgan. XVF xususiy banklardan qarz olishga hozircha harakat qilgani yo'q, uning ustavi bunga yo'l qo'ysa ham.

Kredit mexanizmlari. XVF kreditlarni xorijiy valyutada a'zo-mamlakatlarga quyidagi 2 maqsadga taqdim etadi: birinchidan, to'lov balanslari kamomadlarini qoplash uchun, ya'ni davlat moliya organlari hamda markaziy banklarning valyuta zahiralarini to'ldirish uchun; ikkinchidan, makro-iqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgartirishlarni qo'llab-quvvatlash va demak hukumatning byudjet xarajatlarini kreditlash uchun.

Fondning kredit faoliyatini tafsiflash maqsadida uning nizomida quyidagi ikki tushunchadan foydalilanigan: 1)bitim (transaction) – mamlakatlarga valyuta mablag'larini fondning o'z resurslari hisobidan taqdim etish; 2)operatsiya (operation) – qarz mablag'lari hisobidan moliyaviy va texnikaviy vositachilik xizmatlarini ko'rsatish. O'z va jalb qilingan mablag'larni boshqarish bir-biridan alohida ravishda amalga oshiriladi. XVF kredit operatsiyalarini faqat kaznacheyleklar, moliya vazirliklari, barqarorlashtirish fondlari va markaziy banklar kabi rasmiy organlar bilan amalga oshiradi.

Chet el valyutasiga muhtoj bo’lgan mamlakat chet el valyutasi yoki SDRlarni mamlakatning ushbu sotib olinayotgan yoki qarzga olinayotgan valyutaga ekvivalent bo’lgan milliy valyutasi evaziga sotib oladi (purchase) yoki ularni qarzga oladi (drawing). Bunda milliy valyutadagi ekvivalent summa XVFning ushbu mamlakat markaziy bankidagi hisob raqamiga o’tkaziladi. Fondning mexanizmi ishlab chiqilayotganda a’zo-mamlakatlarning valyutalarga bo’lgan talabi bir tekis bo’lishi hamda shu sababli Fondga kelib tushayotgan milliy valyutalar bir mamlakatdan boshqa mamlakatga xech bir qiyinchiliksiz o’tishi ko’zda tutilgan edi. Shunday qilib, bu operatsiyalar tom ma’noda kredit operatsiyalari deb hisoblanmasligi kerak edi. Amalda esa Fondga asosan valyutalari erkin ayirboshlanmaydigan yoki xalqaro hisob-kitoblarda ishlatilmaydigan mamlakatlar kredit olish yuzasidan murojaat qiladi. Buning natijasida XVF a’zo-mamlakatlarga valyuta kreditlarini milliy valyutalarni tegishli summasining “garovi evaziga” taqdim etadi. Garovga olingan ushbu milliy valyutalarga talab yo’qligi sababli ular Fondda emitent mamlakat tarafidan qaytib sotib olingunga qadar qolib ketadi.

XVFning o’z resurslari hisobidan (umumiylar hisobvarag’i) kreditlashning asosi (oddiy) mexanizmlarini ko’rib chiqamiz.

Zahira ulushi. A’zo-mamlakat XVFdan xorijiy valyutani kvotaning 25% doirasida sotib olishi mumkin bo’lgan birinchi portsiyasi Yamayka kelishuviga qadar “oltin ulush” deb, 1978 yildan boshlab esa “zahira ulushi” (Reserve Tranche) deb atala boshlandi. Zahira ulushi a’zo-mamlakat kvota valyutasining mazkur mamlakat milliy valyutasini Fond ihtiyyorida bo’lgan summasidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Agarda XVF ushbu a’zo-mamlakat milliy valyutasining bir qismini boshqa davlatlarga mablag’larni taqdim etishga ishlatsa, unda mazkur mamlakatning zahira ulushi tegishli miqdorga oshadi. A’zo-mamlakat tarafidan Fondga qo’shimcha kredit kelishuvlari doirasida taqdim etilgan zayomlarning summasi uning “kredit pozitsiyasini” tashkil qiladi. Zahira ulushi va kredit pozitsiyasi birgalikda XVF a’zosini bo’lmish mamlakatning “zahira pozitsiyasini” tashkil qiladi.

A’zo-mamlakatlar valyuta mablag’larini XVFdan zahira pozitsiyasi doirasida birinchi talab asosidayoq avtomatik tarzda olishlari mumkin. Bunday qarz olishning yagona sharti bo’lib a’zo-mamlakat tarafidan to’lov balansi kamomadini qoplashga talabning mavjudligini qayd qilish hisoblanadi. Zahira pozitsiyasining ishlatilishi kredit olish sifatida ko’rilmaydi hamda u mamlakatdan vositachilik va foiz to’lovlarini amalga oshirilishini talab qilmaydi hamda olingan mablag’larni Fondga qaytarish yuzasidan majburiyatlarni zimmasiga yuklamaydi.

Kredit ulushlari. A’zo-mamlakat tarafidan zahira ulushidan ortiq miqdorda sotib olinishi mumkin bo’lgan chet el valyutasidagi mablag’lar (zahira ulushini to’liq ishlatilishi holatida mamlakat valyutasidagi XVFning avuarlari kvotaning 100% hajmiga etadi) kvotaning 25 foiziga teng bo’lgan 4ta kredit ulushiga yoki transh (Credit

Tranches)ga bo'linadi. A'zo-mamlakatlarning XVF kredit resurlaridan kredit ulushlari doirasida foydalanish imkoniyati ma'lum bir shartlar bilan cheklangandir. Dastlabki ustavga muvofiq ushbu shartlar quyidagilardan iborat edi: birinchidan, a'zo-mamlakat tarafidan Fondga murojaat etishdan 12 oy avval olingan valyutaning summasi (so'ralayotgan valyutani o'z ichiga olgani holda) mamlakat kvotasining 25 foizidan oshmasligi lozim; ikkinchidan, mazkur mamlakat valyutasining XVF aktivlaridagi summasi kvotasining 200 foizidan ortiq (ro'yhatga olish asosida to'langan 75% kvotani o'z ichiga olgani holda) bo'lishi mumkin emas. Shunday qilib, mamlakat tarafidan Fonddan zahira hamda kredit ulushlaridan foydalanilganligi natijasida olingan kreditning eng katta miqdori kvota hajmini 125 foizini tashkil qilgan edi.

XVFning 1978 yilda qayta ko'rib chiqilgan ustavida birinchi cheklov bekor qilingan edi. Bu Fonddan 5 yilga nisbatan qisqaroq muddat ichida a'zo-mamlakatlarga valyuta olish imkonini berdi. Ikkinci shartga kelsak, Ustav XVFga ushbu shartning amal qilishini to'htatish imkonini beradi. Ushbu asosda zamonaviy holatlarda Fondning resurslari Ustavda qayd etilgan darajadan sezilarli miqdorda katta bo'lgan hajmlarda amalda ishlatiladi. Shu sababli "yuqoridagi kredit ulushlari" (Upper Credit Tranches) tushunchasi XVFning dastlabki davridagi faoliyatidagi o'hshash kvotaning nafaqat 75 foizini, balki birinchi kredit yo'nalishidan katta bo'lgan har qanday summalarini bildiradigan bo'ldi.

"Stend-bay" zahira kreditlari haqidagi kelishuv (Stand-by Arrangements) a'zo-mamlakatga 1952 yildan boshlab XVFdan xorijiy valyutani kelishilgan shartlarga rioya etilishi holatida milliy valyuta evaziga ma'lum bir summa chegarasida hamda kelishuvning harakat muddati davomida olish kafolatini ta'minlaydi. Kreditlar taqdim etishning bunday amaliyoti kredit yo'nalishini ochishdan iboratdir. Mamlakatning so'rovi Fond tarafidan ma'qullangan taqdirda birinchi kredit ulushining ishlatilishi xorijiy valyutani to'g'ridan-to'g'ri sotib olish shaklida amalga oshirilganda, Fond tarafidan yuqoridagi kredit ulushlari hisobidan ajratilayotgan mablag'lar deyarli barcha holatlarda a'zo-mamlakatlar bilan zahira kreditlari haqidagi kelishuvlar orqali amalga oshiriladi.

XX asrning 50-yillarini boshidan 70-yillarning o'rtalarigacha stend-bay kreditlari haqidagi bitimlar bir yilgacha bo'lgan muddatga, 1977 yildan boshlab esa to'lov balanslarining kamomadi ko'lamlari ko'payib ketganligi tufayli 18 oygacha, hatto 3 yilgacha tuziladigan bo'ldi.

Kengaytirilgan moliyalashtirishning mexanizmi (Extended Fund Facility, EFF) 1974 yildan boshlab zahira va kredit ulushlarini to'ldirdi. U valyuta mablag'larini a'zo-mamlakatlarga oddiy kredit ulushlari doirasida ko'zda tutilganga nisbatan uzoqroq muddatlarga hamda kvotalarga nisbatan kattaroq hajmlarda taqdim etish uchun mo'ljallangan. Mamlakatning XVFga kengaytirilgan moliyalashtirish doirasida kredit taqdim etishga iltimos bilan murojaat etishi uchun asos bo'lib ishlab chiqarish, savdo

yoki baho mexanizmidagi nomutanosib tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida kelib chiqqan to'lov balansi muvozanatining jiddiy buzilishi hizmat qiladi. Kengaytirilgan kreditlar odatda 3 yilga, zarur bo'lgan holatlarda esa 4 yilgacha muddatga taqdim qilinadi. Fond tarafidan taqdim qilinadigan valyuta zahira kreditlari haqidagi kelishuvlar (yuqoridagi kredit ulushlari) hamda kengaytirilgan moliyalashtirish doirasida ma'lum bir portsiya (transh)lar bilan kelishuv muddati ichida belgilangan vaqt davrlarida (chorakda bir marta, 6 oyda bir marta yoki ayrim holatlarda oyma-oy) beriladi.

“Stend-bay” hamda kengaytirilgan kreditlarning asosiy maqsadi XVFiga a'zo-mamlakatlarga makroiqtisodiy barqarorlashtirish dasturlari yoki tuzilmaviy islohotlarni amalga oshirishda ko'maklashishdan iboratdir. Fond kreditga murojaat etadigan mamlakatdan ma'lum bir talablarni bajarishni talab qiladi. Bunda mazkur talablarning qat'iyligi bir kredit ulushidan boshqasiga o'tib borish bilan kuchayib boradi. Qarzdor-mamlakatning tegishli moliyaviy-iqtisodiy chora-tadbirlari amalga oshirilishini ko'zda tutgan majburiyatları XVFiga yuboriladigan “istak haqida”gi (Letter of intent) xatda yoki “iqtisodiy hamda moliyaviy siyosat to'g'risidagi memorandumi”da (Memorandum of Economic and Financial Policies) qayd etiladi. Kredit oluvchi mamlakat tarafidan kelishuv bajarilishining holati maxsus maqsadli “sotish mezonlari”ni (Performance criteria) kelishuv bilan ko'zda tutilgan baholash yordamida muntazam kuzatuvlarini amalga oshirish orqali nazorat qilinadi. Agarda XVF mamlakat tarafidan olingan kredit “Fond manfaatlariga zid ravishda ishlatilmoqda”, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmayapti deb hisoblasa, unda u mamlakatning keyingi kreditlanish jarayonini cheklashi hamda navbatdagi kredit transhi taqdim etilishini rad etishi mumkin. Shunday qilib ushbu mexanizm XVFiga iqtisodiy qarz oluvchi mamlakatlarga bosim o'tkazish imkonini beradi.

XVF XX asrning 70-yillarini o'rtalaridan boshlab to'lov balanslari muvozanatsizligini birdan kuchayib ketishi bilan bog'liq asosda yuzaga kelgan xalqaro valyuta munosabatlarining dolzarb muammolarini bartaraf etish maqsadida muvaqqat kredit mexanizmlarini (facilities – mexanizm, tuzilma, tizim, fond) davriy asosda kirta boshladi. Ularni shakllantirish uchun qarz mablag'lari turli tashqi rasmiy manbalardan rivojlangan davlatlar hamda OPEK mamlakatlari bilan kelishuvlarning imtiyozliligi asosida jalb qilinar edi, shu jumladan:

neft fondi (Oil Facility, OF), neft eksportyorlari bo'lmish mamlakatlarga kreditlarni neft hamda neft mahsulotlarining qimmatlashishi oqibatida yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlarni qoplash maqsadida taqdim etish uchun ishlatilgan (1974-1976y.y.). 6,9 mlrd. SDR (8 mlrd. AQSh dollari) hajmida kreditlar ajratilgan edi. Buning uchun zarur bo'lgan resurslarni asosan neft eksportyorlari bo'lmish mamlakatlar qarzga bergen edi. Kredit oluvchilar ichida rivojlanayotgan mamlakatlar miqdor jihatidan ko'p bo'lsada, rivojlangan davlatlarga nisbatan ularning ulushi (1/3)

ancha kam edi. Neft fondidan kreditlarni taqdim etish shartlari qayttiq edi, ya’ni foiz stavkalarning nisbatan yuqoriligi (yillik 7,2% foizdan kam emas), energetika va valyuta borasidagi milliy siyosatni amalga oshirishda XVF tavsiyalarini majburiy bajarilishi. Buning natijasida rivojlanayotgan mamlakatlarning neft fondi mablag’larini olish imkoniyati cheklab qo’yilgan edi; uning kreditlari hisobiga ular qimmatlashgan neft importining qo’shimcha xarajatlarini faqat 1/3 qismini qoplar edilar;

qo’shimcha moliyalashtirishning mexanizmi (Supplementary Financing Facility, SFF), yoki XVF ijro direktori (1979-1982y.y.) ismiga monan “Vitteveena Fondi” (Witteveen Facility). Mazkur mexanizmning asosiy maqsadi – to’lov balanslarining keskin va uzoq vaqt chuziladigan inqirozlarini boshidan kechirayotgan hamda XVF oddiy kreditlarining limitlarini tugatib bo’lgan mamlakatlarga qo’shimcha kreditlarni qarz mablag’lari hisobiga taqdim etishdir. Fondning resurslari (7,8 mlrd. SDR, ya’ni 10 mlrd. AQSh dollaridan ko’p) XVF a’zolari bo’lmish 13 mamlakat hamda Shveytsariya milliy bankidan olingan zayomlar hisobiga shakllantirilgan edi. Mazkur fonddan ajratilgan kreditlarni 26 mamlakat olgan;

XVF resurslarini olishning kengaytirilgan imkoniyati (Policy of Enlarged Acces to Fund's Resources, 1981-1992y.y.). Maqsad – to’lov balanslari kamomadining ko’lami ularning kvotalariga nisbatan nihoyatda katta bo’lgan a’zo-mamlakatlarga qo’shimcha kreditlarni taqdim etishdir. Mazkur mexanizm mamlakatlarning kredit ulushlari hamda kengaytirilgan moliyalashtirish mexanizmi doirasida olishi mumkin bo’lgan mablag’lar hajmiga nisbatan kattaroq hajmdagi mablag’larni va uzoqroq mudatlarga olishga muxtoj bo’lgan paytda tuzatuvchi iqtisodiy choralarini ko’rish maqsadida ishlatilgan. XVFning obuna sifatida jalb qilingan o’z mablag’lari bilan birgalikda boshqa mamlakatlardan qarzga olingan mablag’lar mazkur siyosatni amalga oshirish uchun mo’ljallangan resurslarning manbasi bo’lib xizmat qilgan. XVF a’zolari bo’lmish mamlakatlar kvotalarining oshirilishi munosabati bilan mazkur mexanizm 1992 yilning noyabr oyida bekor qilingan edi.

A’zo-mamlakatlarning XVF resurslarini kredit ulushlari hamda kengaytirilgan moliyalashtirish mexanizmi doirasida olishga ruxsat limitlari Ijro Kegashi tarafidan belgilanadi hamda har yili qayta ko’rib chiqiladi. 1994 yilning oktyabr oyidan boshlab 3 yillik davrga quyidagi limitlar belgilangan edi: kreditlarni a’zo-mamlakat kvotasining 100% hajmida yil mobaynida taqdim etish; mamlakatning avval olingan kreditlar bo’yicha qarzdorligini o’z ichiga olgan kumulyativ miqdori, uning chegaraviy hajmi – kvotaning 300% (hisoblashning sof hisobida, ya’ni mamlakat tarafidan milliy valyutani Fonddan qaytib sotib olgan summalarini hamda so’ndirish uchun rejalangan summalar yirilgani holda). Belgilangan limitlar istisno holatlarda oshirib yuborilishi mumkin. 1977 yilning noyabr oyida Ijro Kengashi 1944 yilda belgilangan limitlarni XVF resurslarini olishga bo’lgan ruxsat siyosatining keyingi ko’rib chiqilishga qadar

qoldirish to'g'risida qaror qabul qildi. XVF zayom summasining 0,5% hajmida vositachilik hamda kreditlar uchun SDRlardagi aktivning foiz stavkasi va bozor stavkalari bilan o'zaro bog'langan foiz haqini oladi. Stavkalar daromadlar, xarajatlar hamda sof foyda bo'yicha rejalashtirilgan ko'rsatkichni baholash negizida moliyaviy yil davomida aniqlanadi. 1997/98 moliyaviy yilda (1-maydan 30-aprelga qadar) yillik foiz stavkasining o'rtacha miqdori 4,65%ni tashkil qildi (bir yil avval 4,51% edi).

Belgilangan muddatning tugashi bilan a'zo-mamlakat teskari operatsiyani amalga oshirishga majbur, ya'ni milliy valyutani Fonddan unga SDRdagi mablag'larni yoki xorijiy valyutani qaytargani holda qaytib sotib olishi (majburiyatni so'ndirishi) kerak. Stend-bay kreditlarining qaytarilishi valyutaning har bir transhini olinish kunidan boshlab $3 \frac{1}{4}$ -5 yil mobaynida, kengaytirilgan moliyalashtirishda esa – $4 \frac{1}{2}$ -10 yil mobaynida amalga oshiriladi. Bundan tashqari qarz oluvchi mamlakat to'lov balansi holatini yahshilanib, valyuta zahirasini o'sib borishi bilan o'zining Fond uchun ortiqcha bo'lib qolgan valyutasini qayta sotib olishlarni muddatidan avval amalga oshirishi zarur. Agarda qarz oluvchi mamlakatning XVFdagi milliy valyutasi boshqa a'zo-davlat tarafidan qaytib sotib olinayotgan bo'lsa, unda ushbu milliy valyuta egasi bo'lmish davlatning XVFdagi qarzdorligi qisqaradi.

3.Jahon banki guruhi

Jahon banki guruhi (JB) – bu, tarkibiga Xalqaro Taraqqiyot va Tiklanish Banki (XTTB), Rivojlanishning Xalqaro Assotsiatsiyasi (RXA), Xalqaro Moliyaviy Korporatsiya (XMK) va Investitsiyalarni Kafolatlash bo'yicha Ko'ptaraflama Agentlik (IKKA) kirgan BMTning ixtisoslashgan moliyaviy muassasasidir. JB tarikibiga kirgan tuzilmalarning faoliyati yagona strategiyaga bo'ysungandir, biroq ushbu tuzilmalarning har biri umumiy maqsadni bajarishga intilgani holda o'ziga xos bo'lган funktsiyalarni bajaradi.

Jahon banki – jahoning eng yirik investitsiya instituti bo'lib, bugungi kunda uning vazifalari rivojlanayotgan hamda o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlardagi qambag'allik va qoloqlik bilan kurashish, iqtisodiy o'sish hamda bozor munosabatlarini rag'batlantirishga qaratilgandir.

Xalqaro Taraqqiyot va Tiklanish Banki (XTTB) – guruh tarkibida bosh institut sifatida Bretton-Vuds kelishuvlari doirasida 1944 yilning iyul oyida XVF bilan birgalikda ta'sis etilgan; faoliyatni 1946 yilning iyul oyidan boshlagan.

Resurslari. XTTBning ustav kapitali aktsiyalariga a'zo-mamlakatlarning obuna bo'lishi orqali tashkil bo'ladi va 1998 yilning 30 iyun holatiga u 190,8 mlrd. AQSh dollarini, obuna kapitali 186,4 mlrd. AQSh dollarini, to'langan kapital esa 11,8 mlrd. AQSh dollarini, ya'ni obuna kapitalini 6%ni tashkil qilgan edi. Bank tarafidan o'z majburiyatlarini so'ndirish uchun mablag'lar etmay qolgan paytda obunaning qolgan qismi talab qilib olinishi mumkin. Biroq bankning faoliyati borasida banday zarurat

paydo bo'lмаган. XTTB о'з ресурсларининг асосиёй қисмини (94%) яхон молия бозорида obligatsiyalarning emissiyasi orqali jalb qiladi.

XTTBning tashkiliy tuzilmasi aktsiyadorlik jamiyatini tamoyili asosida tuzilgan. XTTB органларидаги овозларинг сони унинг устав капиталидаги пай (ulush) билан belgilanadi. Ushbu ko'rsatkich ayrim mamlakatlarning яхон iqtisodiyotidagi ролини o'zgarishiga qarab ularga nisbatan davriy асосда qayta ko'rib chiqiladi. XX асрнинг 70-yillari energetik inqirozi даврида нефт qazib chiqaruvchi ayrim давлатлarning капитали сезиларли darajada o'sdi. 1998 молиавији yili Daniya, Braziliya, Ispaniya, Janubiy Koreya, Turkiyaning aktsiyalari oshirildi.

XTTB faoliyatini tashkil etishning qayd etilgan tamoyiliga muvofiq eng ko'p овоз AQShga tegishlidir. 1998 yilning 30 iyun holatiga AQSh zimmasiga umumiyo овозларинг 16,68% to'g'ri kelgan edi. Bu ularga qabul qilinishi uchun овозларинг 85% zarur bo'lgan muhim qarorlar qabul qilinishidagi veto huquqini ta'minladi. Овозларинг сони bo'yicha ikkinchi о'rinda Yaponiya (8%), undan keyin Germaniya (4,57%), Frantsiya va Buyuk Britaniya esa 4,38%dan.

XTTBning ishchi органлари bo'lib Boshqaruvchilar kengashi hamda Direktorat (ijro etish organi) hisoblanadi. A'zo-mamlakatlarning молия vazirlaridan yoki markaziy banklarning boshqaruvchilaridan tashkil topgan Boshqaruvchilar kengashi o'z sessiyalariga muhim qarorlarni qabul qilish uchun yilda bir marta yig'iladi. Ushbu sessiyalar XVF bilan birgalikda o'tkaziladi. XVFga a'zo bo'lib kirgan mamlakatlar XTTBning a'zolari bo'lishi mumkin. Ushbu talab XTTBning a'zolari o'z valyutamoliyaviy siyosatlarini XVF ustavi talablariga muvofiq olib borishga majbur ekanliklari bilan tushuntiriladi.

XTTBning 24 ijro direktorlaridan 5tasi eng ko'p овозга ega bo'lgan yuqorida zikr etilgan органлар тарafidan tayinlanadi. Ayrim direktorlar alohida давлатдан sayланади, agarda ushbu mamlakat овозларинг tegishli soniga ega bo'lsa. Bunday mamlakatlarga umumiyo овозларинг 2,83%ga ega bo'lgan Saudiya Arabiston, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi kabi mamlakatlar kiradi. Qolgan direktorlar bir guruh mamlakatlardan sayланадиганлар тоифасига kiradi.

XTTB tashkil bo'lishi paytiga uning azolari bo'lib 38ta mamlakat hisoblangan edi. 1998 yilning 30 iyun holatiga a'zo-mamlakatlarning сони 182taga etdi. Shunday qilib, XTTBning a'zolari bo'lib dunyoniing deyarli barcha mamlakatlari hisoblanadi. Bu unga o'z filiallari bilan birgalikda Jahon Banki deb atalishiga to'liq asos beradi. Bank jahon miqyosidagi kapital harakatiga katta ta'sir qiladi.

XTTBning xatti-harakatlari uning органларда etakchilik roliga ega bo'lgan mamlakatlarning siyosatga mayilligidan xoli emasdir. XTTBga rahbar doim AQSh fuqarosi bo'ladi. Biroq shu bilan birgalikda deklaratsiya qilinayotgan qashshoqlikka qarshi kurashish, iqtisodiy o'sish hamda bozor munosabatlarini rag'batlantirish kabi асосиёй маqsadlar gumon ostiga qo'yilishi mumkin emas. Ushbu maqsadlarga

erishishning usullari barcha tarafidan qo'llab-quvvatlanmasa ham. Loyihalarning XTTB tarafidan qilingan yuqori darajadagi malakali ekspertizasiga qarmasdan ular samarasiz bo'lib chiqmoqda, bu esa o'ziga nisbatan tanqidlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

XTTBning kreditlari va kredit siyosati. A'zo-mamlakatlar tarafidan shakllantirilgan kapitalga tayangan holda XTTB jahon kapitallar bozori mablag'larini to'playdi hamda ushbu bozorga chiqishi qiyin bo'lgan davlatlarga vositachi rolini bajargani holda kreditlar beradi. Ssudalar bevosita hukumatlarga yoki ularning kafilligi asosida taqdim etiladi. Mazkur mexanizm hamda asosiy maqsadlar o'zgarmasdan qoladi, biroq XTTBning strategiyasi va taktikasi, u tarafidan ishlatilayotgan instrumentlar jahon xo'jaligidagi aloqalar, alohida hududlardagi holat hamda to'planib borilayotgan tajribaning tanqidiy tahlilining ta'siriga bog'liq holda o'zgarib turadi.

XX asrning 40-yillari hamda 50-yillarini birinchi yarmida XTTBning asosiy maqsadi bo'lib xususiy kapitalni safarbar etgan holda urushdan talofat ko'rgan mamlakatlarga xo'jalik tiklanishiga ko'maklashish hisoblangan. XTTB o'z faoliyatini Marshal dasturi bilan o'zaro muvofiqlashtirgan. Birinchi ssudani Bank 1947 yilda Frantsiya davlatiga 250 mln. AQSh dollari summasiga (XX asrning 90-yillari bahosida tahminan 2,5 mlrd. AQSh dollariga teng) taqdim etgan. Bundan so'ng tahminan shunday summadagi kreditlar Niderlandlar, Daniya, Lyuksemburg davlatlariga berildi. Yirik kreditlarni Evropa davlatlaridan tashqari Yaponiya va Avstraliya davlatlari oldilar. Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida kreditni birinchi bo'lib Chili davlati 1948 yilda, bundan so'ng Meksika, Braziliya va Xindiston davlatlari olgan. Ko'rib chiqilayotgan davr ichida XTTB asosan tuzilmaviy ob'ektlarni kreditlagan. Bank manfaatlari jarayoni asosan alohida loyihalarning samaradorligi muammolari bilan cheklanib qolgan. XTTB loyihalarni moliyalashtirish doirasidan tashqariga deyarli chiqmagan.

XX asrning 50-yillarini o'rtalariga kelib G'arbiy Evropa va Yaponiya iqtisodiyoti tiklangan edi va ular XTTBning moliyaviy vositachi sifatidagi xizmatlariga muxtoj bo'lmay qoldilar. Biroq ichki jamg'armalar me'yorini pastligi hamda jahon kapitallari bozoriga chiqishning cheklanganligi sharoitlarida rivojlanish dasturini bajarishga kirishgan rivojlanayotgan mamlakatlar XTTBning vositachilik roliga ehtiyoji bir vaqtning o'zida o'sdi. XTTB bayrog'i ostida 40 mamlakat uchun maslahat guruhlari tashkil etiladi va donor-mamlakatlar ushbu guruhlar doirasida yordam berishning umumiy strategiyasini ishlab chiqadilar. Bank yirik hajmdagi mablag'larni donor-malakatlar singari Janubiy Koreya va Tayvanga ajratgan. Ushbu mamlakatlar zimmasiga G'arbning ko'magi asosidagi "rivojlanish vitrina"si roli yuklangan edi. XTTB ko'rib chiqilayotgan davr ichida Lotin Amerikasi va Osiyo mamlakatlarini negiziga iqtisodiyotni rejallashtirish hamda davlatning undagi etakchilik roli qo'yilgan taraqqiy etishning strategik yo'nalishini bir-biridan

farqlayotgan edi. XTTB o'zning eng muhim va bevosita vazifasini kapitalga ehtiyoji bor tuzilmaviy ob'ektlarni kreditlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda ko'rgan.

XTTB strategiyasidagi keskin burilishi ma'lum bir darajada uning rahbarligiga 1968 yilda R.Maknamarani kelishi bilan bog'liq. Bank faoliyatining asosiy maqsadi bo'lmish qashshoqlik hamda qoloqlik bilan kurashish o'zgarmasdan qoldi. Biroq investitsiyalar hamda iqtisodiy o'sishni o'stirgan holda yutuqlarga erishish avval ijobjiy bo'lib hisoblangan bo'lsa, XX asrning 70-yillariga kelib ijtimoiy orientirlar imtiyozga ega bo'lib qoladi. Oziq-ovqat, toza suv, turar joy, tibbiy xizmat, maorifga bo'lgan asosiy ehtiyojlarni qondirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Qashshoqlikning asosiy o'choqlari qishloq joylarida joylashganligi sababli asosiy urg'u ularni kreditlashga beriladigan bo'ldi. Ushbu kreditlarning ulushi XX asrning 70-yillarida ikki barobar o'sdi hamda kreditlarning taqdim etilgan umumiyligi summasining 20 foizini tashkil qildi. Infratuzilma muhim yo'nalishlar qatorida qolgan bo'lsada, biroq ulushi 1960 yillardagi 65%dan 1970 yillardagi 37%gacha qisqardi. XTTB investitsiyalari tarkibiy tuzilishini tubdan qayta ko'rib chiqilishi iqtisodiyot o'sishning nisbatan yuqori sur'atlari sharoitida qambag'allik darajasidan pastroq darajada yashayotgan aholi sonining qisqarmaganligi hamda aholining boylar va kambag'allar tabaqalarining daromadlari o'rtaсидаги farq kengayib borayotganligi bilan asoslangan edi. Qashshoqlik bilan kurashishga qaratilgan urinishlar samarasiz bo'lib chiqdi.

Kredit siyosatining asosiy tamoyillaridan birini, xususan ssudalarni aniq bir ob'ektlarga taqdim etish tamoyilini qayta ko'rib chiqishni talab qiluvchi yangi muammolarga XTTB 1980 yilda tuqnash keladi. 1981 yilda Bergning Afrika mamlakatlarini rivojlanish muammolari bo'yicha ma'ruzasi chop etildi. Ushbu ma'ruzada siyosiy omillar ta'siri ostidagi iqtisodiyotdagi tartibbuzarliklar jiddiy ekanligi haqida xulosa qilingan edi. Shu sababli mazkur sharoitlardagi loyihalarni moliyalashtirishning samaraliligiga umumiqtisodiy sharoitga ta'sir etishga harakat qilmasdan ishonish asossiz ekanligi kelib chiqadi.

So'ng 1982 yilda mazkur xulosani boshqa mamlakatlarga, birinchi navbatda Lotin Amerikasi davlatlariga nisbatan ham haqligini tasdiqlovchi qarz inqirozi yuzaga keldi. XX asrning 80-yillarida XTTB tuzilmaviy moslashishga mo'ljallangan kreditlarni taqdim etish amaliyotini kiritadi. Ushbu kreditlar investitsiyaviy loyiha kreditlaridan farqli ularoq o'zaro bog'langan bo'lib hisoblanmaydi hamda ularning asosiy maqsadi iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvatlashdir.

Bank tomonidan berilgan kreditlarning umumiyligi uning 47 yillik faoliyatida 235 mlrd. AQSh dollariga etdi. Bunda ularning 1/3 qismi (80 mlrd. AQSh dollari) 1989-1993 yillarga to'g'ri keladi.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) 1960 yilda tashkil etilgan edi. Ushbu vaqtga kelib kreditlashning ancha-muncha engillashtirilgan bozor sharoitlari

ham mutlaqo to'g'ri kelmaydigan rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi XRAning faoliyat doirasidan tashqarisida qolib ketayotganligi aniqlandi. Shuningdek ular iqtisodiy jihatdan eng qoloq bo'lgan davlatlar ekanligi hisobga olinsa, unda qashshoqlik bilan kurashishning maqsadi mutlaqo samarasiz bo'lib qoladi. XTTB imtiyozli kreditlash fondini tashkil etgan holda rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'lgan o'z ta'sirini XRA orqali sezilarli darajada kengaytirish imkoniga ega bo'ldi. Bunda XRAga dastlab Xindiston, so'ng esa Xitoy kabi davlatlar a'zo bo'ldi. XRAning tashkil etilishi G'arb uchun yana bir muhim ahamiyatga ega edi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning imtiyozli kreditlashning qo'shimcha fondlarini tashkil qilish to'g'risidagi ko'pchilik iltimoslari bunday fond mavjud ekanligi asosida rad qilinayotgan edi.

XRA XTTB faoliyatini to'ldirib rivojlanayotgan mamlakatlarga 10 yillik imtiyozli davrga ega, muddati 35-40 yil bo'lgan foizsiz kreditlarni beradi. Bunda u ma'muriy sarf-xarajatlarga vositachilik haqini olib qoladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasi XRADan kredit olishdan manfaatdordir, lekin assotsiatsiya barchaga ham bunday kreditlarni bera olmaydi. Shuning uchun ham imtiyozli kreditlar 1999 moliyaviy yilda yalpi ichki mahsuloti (YaIM) aholi jon boshiga 925 dollardan oshmagan mamlakatlarga beriladi; bu guruhg'a XX asrning 90-yillarini ikkinchi yarmida 70 mamlakat kirar edi. Biroq XRAda ishtirok etish va uning imtiyozli kreditlariga etishish uchun, avvalo XTTBga kirish kerak edi.

Yuqorida zikr etilgan imtiyozli kreditlash XTTB singari obligatsiyalar emissiyasi hisobiga amalga oshirilishi mumkin emas. XRA resurslari rivojlangan mamlakatlarning badallari hamda XTTB foydasining transferti hisobiga shakllanadi. XRA resurslarining kamayib borishi bilan a'zo-mamlakatlar yangi badallarni beradilar. Biroq ushbu badallar ko'p holatlarda kechikadi va XRA permanent³² asosda inqirozli holatda bo'lib qoladi.

XRA yuridik hamda moliyaviy jihatdan mustaqil institut bo'lib hisoblanadi. Biroq u XTTB bilan bir xil bo'lgan Bankning Prezidenti boshchiligidagi boshqaruv organlariga ega. XRA va XTTB umumiy bo'lgan strategik yo'nalishni amalga oshiradilar. Ko'pchilik loyihibar XRA va XTTB tomonidan hamkorlikda kreditlanadi. Biroq XRA XTTB faoliyatidagi bo'shliqni to'ldirish uchun tashkil qilinganligi sababli, uning kreditlash tarkibiy tuzilmasi Bankning tuzilmasidan farq qiladi.

XRA kreditlarining tarkibiy tuzilishi nisbatan aniqroq ijtimoiy yo'naltirilganlikka ega, ya'ni sog'liqni saqlash, maorif, qishloq xo'jalik hamda qishloq tumanlarini rivojlantirishga ajratilayotgan kreditlarning ulushi yuqori. Muhim farqli tomoni shundaki XTTB 1998 moliyaviy yilda katta hajmdagi resurslarni moliyaviy

³² Перманентли (франц. permanent, лот. permaneo – қолмоқда, давом этмоқда) – узлуксиз давом этувчи, мунтазам.

inqiroz sababli moliyaviy jarayonga yo'naltirishga majbur bo'lган, XRAda esa bunday zarurat yuzaga kelgani yo'q. XRAning mijozlari past daromadga ega hamda jahon moliya bozoriga integratsiya qilinmagan mamlakatlardir. Shu sababli ular moliyaviy inqirozdan chetda qolgan edilar. Shunday qilib kredit oqimlari tarkibiy tuzilishidagi farqlar birinchi navbatda XTTBning qarz oluvchilari bo'lib o'rta daromadli, XRAning qarz oluvchilari bo'lib esa past daromadli mamalakatlar hisoblanganligi bilan asoslangandir.

Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) 1956 yilda AQSh tashabbusi bilan yosh davlatlarning sanoatiga xususiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish va bu mamlakatlarda xususiy sektorni kengaytirish maqsadida tuzilgandir. XMK har holda rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlarda faqat yuqorirentabelli korxonalarini kreditlaydi. Ushbu jumladan ssuda kapitalining asosiy bozorlaridagi o'rtacha yillik stavkalardan yuqori bo'lган kreditlarni nisbatan qimmatligidan kelib chiqadi. XMK kreditlarining muddati odatda 15 yildan oshmaydi, o'rtacha muddat esa 7-8 yildir.

XMK XTTB funktsiyalaridan boshqacharoq vazifalarni bajaradi. Shuning uchun yuridik va moliya tomonidan bu nisbatan mustaqil tashkilotdir, lekin u Jahon banki bilan bir rahbariyatga va bir qator xizmatlarga ega bo'lsada, uning xususiyatliligi shundaki uni mablag'laridan investitsiya olish uchun korxona va tashkilotlarga kredit berilganda XTTB va XRA talab qilganidek a'zo-mamlakatlarga hukumat kafolatlari talab qilinmaydi. Bu xususiy kompaniyalar uchun ular faoliyati ustidan davlat nazoratidan saqlaydi va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga chet el kapitalini jalb qilish manfaatlariga xizmat qiladi.

XMKning boshqa bir farqi shundaki, 1961 yildan boshlab u faqat kreditlar berishga alohida huquqdan tashqari, qurilayotgan yoki kengaytirilayotgan korxonalar aktsiyadorlik kapitaliga keyinchalik ularning aktsiyalarini xususiy investorlarga qayta sotish bilan investitsiyalarini amalga oshirish huquqi berildi.

Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha hartaraflama agentlik (IKHA) rivojlanayotgan mamlakatlarga qilinayoigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarini rag'batlantirish uchun 1988 yilda tashkil qilingan edi.

XTTB guruhining xech bir organi notijorat xatarlari o'sib borayotgan sharoitda xususiy investorlar uchun maksimal kafolatlar bilan ta'minlay olmadi. Bu ko'plab a'zo-mamlakatlarga chet el kapitalining kelishini ushlab turadi. 1988 yilda tashkil etilgan IKHA XTTBning uchinchi filiali sifatida aynan mana shu maqsad uchun xizmat qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda notijorat xatarlaridan ularni sug'urtalash vositasi bilan aktsiyadorlik kapitaliga investitsiyalar va boshqa yo'naliishlarga to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Bunday xatarlar quyidagilar bilishi mumkin: milliy valyutaning erkin ayirboshlashni to'xtatish va bu bilan bog'lik investor mamlakatiga daromadlarni o'tkazish bilan bog'liq

muammolar; investor mulkining ekspropriatsiyasi; harbiy harakatlar; to'ntarishlar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishlari; hukumat qarori natijasida kontraktning bajarilmay qolishi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun IKHA sanab o'tilgan notijorat xatarlaridan faqat kafolatlarnigina emas, balki rivojlanayotgan a'zo-mamlakatlarning hukumat organlariga maslahatlar beradi, siyosatni amalga oshirish va ishlab chiqishga nisbatan dastur va tartib orqali chet el investorlarini qo'llab-quvvatlaydi.

4.Evropa taraqqiyot va tiklanish banki

Evropa taraqqiyot va tiklanish banki (ETTB) 1990 yil 29 mayda bitim asosida tuzilgan xalqaro tashkilotdir. ETTBning ta'sischilari bo'lib 40 mamlakat hisoblanadi – Albaniyadan tashqari barcha Evropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, Meksika, Marokko, Misr, Isroil, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, shuningdek Evropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIH) va Evropa Investitsiya Banki (EIB). SSRI, Chexoslovakiya va Yugoslaviya aktsiyalari ularning bo'linib ketganidan keyin paydo bo'lgan yangi davlatlar o'rtasida taqsimlandi. ETTBning a'zolari bo'lib Evropa mamlakatlaridan tashqari XVF a'zosi bo'lgan har qanday mamlakat bo'lishi mumkin. 1999 yilning 1-yanvar holatiga ETTB aktsiyadorlari bo'lib 60 mamlakat (shu jumladan Evropaning barcha mamlakatlari) hisoblanadi. Bank shtab-kvartirasi Londonda joylashgan. ETTBning maqomi, imtiyozlari va immuniteti hamda Buyuk Britaniyadagi u bilan bog'liq shaxslar ETTB, Buyuk Britaniya hamda Shimoliy Irlandiya o'rtalarida 1991 yilning 15-aprelida imzolangan shtab-kvartira haqidagi Bitimda belgilab berilgan.

ETTB faoliyatining asosiy vazifalari va maqsadlari. ETTBning asosiy vazifasi – Evropaning ilgari sotsialistik bo'lgan mamlakatlarini ochiq, bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyotga o'tishiga ko'mak berish va shuningdek, xususiy va tadbirkorlik tashabbuslarini rivojlanтирishdir.

Bankning Markaziy hamda Sharqiy Evropa mamlakatlarining bozor iqtisodiyotiga o'tishiga ko'maklashish kabi asosiy maqsadini amalga oshirish uchun ETTBning ustavida quyidagilar ko'zda tutilgan:

- raqobatdosh bo'lgan xususiy sektor, birinchi navbatda kichik va o'rta tadbirkorlikning rivojlanishi, shakllanishi va kengayishiga, ko'maklashish;

- yuqorida zikr etilgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy kapitallarni safarbar etish;

- ishlab chiqarish sohasiga hamda xususiy tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy sektor va xizmatlar jarayoniga investitsiyalarni amalga oshirish;

- loyihalarni tayyorlash hamda ularni amalga oshirishda texnik jihatdan ko'maklashish;

- kapitallar milliy bozorlarining rivojlanishini rag'batlantirish;

-iqtisodiy jihatdan manfaatli hamda bir nechta benefitsiar-mamlakat ishtirok etayotgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash;

-ekologiya hamda barqaror rivojlanish borasidagi operatsiyalarini faol amalga oshirish;

-yuqoridagilarni amalga oshirilishiga ko'maklashuvchi boshqa funktsiyalarini bajarish.

Bankning ustavi (1-modda) boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlardan farqli ularoq uning operatsiyalari amalga oshiriladigan mamlakatlar ko'p partiyaviylik, plyuralizm va bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moyil bo'lishligini ko'zda tutuvchi siyosiy mandatga ega.

ETTB xususiy tijorat hamda sanoat korxonalari rivojlanishini faol rag'batlantiradi va o'zining 60%dan kam bo'limgan resurslarini nodavlat sektoriga yo'naltirishga majbur. Bunday loyihalar bo'yicha davlat kafilliklarini taqdim etilishi talab qilinmaydi va ular o'zini-o'zi qoplashning hisob-kitoblari hamda tavakkalchilik darajasini hisobga olish asosida amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, xususiy sektorda operatsiyalar amalga oshirilganda ETTB o'z zimmasiga katta darajadagi tavakkalchilikni olishga tayyor bo'lgan tijorat banki sifatida harakat qiladi.

Bank har qanday manbalardan kelib tushadigan loyihalarni ko'rib chiqish uchun qabul qiladi. Kelib tushgan loyihalarni ko'rib chiqilishida ularning keyingi taqdirini belgilovchi muhim omil bo'lib taqdim etilayotgan materiallarning sifati hamda ularni loyihalarni moliyalashtirish borasidagi jahon standartlariga mosligi hisoblanadi. ETTB tarafidan kreditlashning asosiy ob'ektlari bo'lib xususiy firmalar yoki xususiylashtirilayotgan davlat korxonalari hamda yangidan, shu jumladan xorijiy sarmoya ishtirokida tashkil qilinayotgan qo'shma korxonalar hisoblanadi. Bankning asosiy maqsadi hududdagi investitsiyalarini rag'batlantirish hisoblanadi. ETTB kreditlar hamda kafilliklarni taqdim etish, mablag'larni aktsiyadorlik kapitallariga investitsiya qilishda boshqa investorlar va kreditorlar bilan hamkorlik qiladi. Ushbu faoliyat infratuzilmani yoki davlat sektoridagi xususiy sektor tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan boshqa loyihalarni kreditlash bilan to'ldirilishi lozim. ETTB hududiy hamkorlikni rag'batlantiradi hamda o'zi tarafidan qo'llab-quvvatlanayotgan loyihalar bir nechta mamlakatlarni qamrab olishi mumkin.

O'z faoliyati 1991 yilning aprelida boshlangan paytdan ETTB o'z oldida turgan vazifalarni aniqlashtirib oldi. Ushbu vazifalardan eng muhimi ETTB faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatlarda siyosiy tuzumning o'zgarishi davrida yangi iqtisodiy sharoitlarni yaratishda ko'maklashish bo'ldi; bunda ushbu mamlakatlardagi kishilik jamiyatini to'liq parchalanishi hamda qo'shni davlatlarning xavfsizligini tahdidga qo'yishga olib borishi mumkin bo'lgan chidab bo'lmaydigan ijtimoiy shart-sharoitlarning yuzaga kelishini odini olish zarur bo'lib hisoblanadi. Boshqa vazifalar biznes sohasiga (investitsiyalarini rag'batlantirish, tijorat amaliyotini takomillashtirish,

xususiy lashtirish va tuzilmaviy qayta qurish), infratuzilmaga (aloqa tarmoqlarini, energetika tizimlarini, munitsipal xizmatlarni va uy-joy xo'jaligini tiklash, modernizatsiya qilish va kengaytirish) va ekologiyaga (siyosatni takomillashtirish va atrof-muhitni tiklashda to'g'ri investitsiyalar) aloqadordir.

ETTB kredit faoliyatini amalga oshirgani holda:

-rivojlangan mamlakatlarda bank ishining qabul qilingan standartlari asosida moslanuvchan kreditlash uchun turli-tuman instrumentlardan foydalanadi;

-xususiy sektor tashabbusini qo'llab-quvvatlaydigan sektorlar bo'yicha ko'zda tutilgan va tutilmagan operatsiyalar strategiyasidagi vazifalarni amalga oshirishni o'zida mujassamlashtiradi;

-xususiy investorlar, ularning konsultantlari va tijorat banklari bilan hamkorlik qiladi;

- rivojlanishning uzoq muddatli rejalarini amalga oshirishda hukumat bilan hamkorlik qiladi;

-xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshiradi;

-davlatlararo va mintaqaviy yondashularni monand ravishda birgalikda amalga oshiradi;

-atrof-muhitni saqlash hamda yaxshilashni ta'minlashga harakat qiladi.

ETTB qarorlarni qabul qilishda direktorlar Kengashi tarafidan tasdiqlangan asosiy faoliyat borasidagi siyosat hamda mamlakatlar bo'yicha strategiyaga asoslanadi. Mamlakatlar bo'yicha strategiyalar siyosiy hamda iqtisodiy voqealarning sharhini o'z ichiga oladi va faoliyatning imtiyozli jarayonlarini aniqlab beradi. Bank tarafidan aniqlangan yordamga bo'lgan ehtiyojlar hududning ko'pchilik mamlakatlari uchun qator holatlarda umumiy xarakterga egadir, har bir mamlakatdagi ishlab chiqarish investitsiyalarini rag'batlantirishga intilish ushbu strategiyalarni o'zaro birlashtiradi.

Ko'pchilik davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy barqarorsizlik, ishlab chiqilgan qonunchilik bazasining yo'qligi hamda bozor sharoitlarining noaniqligi tufayli kelib chiqqan siyosiy, tashkiliy va iqtisodiy sohalardagi qiyinchiliklarni boshidan kechirmoqda. Bular ayrim holatlarda ETTB tarafidan ajratilgan mablag'larning ishlatilishida uzilishlarga olib kelgan. Ushbu omillarni hisobga olish ETTBga loyihalar tanlovini etarli darajada aniq bo'lgan modellarini ishlab chiqish imkonini berdi.

ETTB o'z faoliyatida xususiy sektorda loyihalar moliyalashtirilishining kengayishiga nisbatan xalqaro investorlar hamda banklarda saqlanib kelayotgan vazminlik bilan to'qnash keldi. Bu esa ETTBni investitsiyalar katalizatori sifatidagi ahamiyatini ko'rsatib berdi. Ayrim hukumatlarning o'z mamlakatlaridagi infratuzilma borasidagi loyihalarga kafilliklar taqdim etishni xohlamasligi ham ETTB operatsiyalariga to'sqinlik qiladi. Texnik hamkorlik yo'nalishidagi faoliyat ETTBning investitsiyalari va kreditlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita qo'llab-quvvatlaydi;

uning e'tibori asosan loyihalarni tayyorlash, sektorlar bo'yicha izlanishlarga hamda maslahat turidagi xizmatlarga qaratilgandir. Shu sababli ushbu e'tiborning ETTB faoliyatidagi ahamiyati kattadir. ETTB faoliyatining muhim jihatlaridan biri bo'lib barcha mamlakatlardagi va turli darajalardagi boshqaruv kadrlarni tayyorlash hamda mutaxassislar malakasini oshirish hisoblanadi. Shu sababli o'qitish ETTB faoliyatining negiziga qo'yilgan bo'lib, uning barcha loyihalari ijro etilishida amalga oshiriladi. Ushbu sayi-harakatlar doirasida ETTB hamda 5 xalqaro sponsor-tashkilotlar (XVF, XTB, XXB, EI va IHTT) tashabbusiga muvofiq 1992 yilda sobiq sotsialistik mamlakatlarga bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlay oladigan bank va xo'jalik sohalari kadrlarini tayyorlash ishida yordam qilish maqsadida Birlashgan Vena instituti ochilgan edi.

ETTBining tashkiliy tuzilmasi. ETTB faoliyatiga rahbarlikni boshqaruvchilar Kengashi, direktorlar Kengashi va prezident amalga oshiradi. Boshqaruvchilar Kengashi ETTBning oliy boshqaruv organi bo'lib, Bankning har bir a'zosidan 2 tadan vakilni (boshqaruvchi va uning o'rinnbosari) o'z ichiga oladi (mamlakat yoki xalqaro tashkilotdan). ETTB a'zosining xohishiga qarab uni vakili (boshqaruvchi yoki uning o'rinnbosari) istalgan paytda qaytib chaqirib olinishi mumkin. Boshqaruvchi o'rinnbosari ovoz berishda faqat boshqaruvchi yo'q bo'lган paydagina ishtirok etishi mumkin. Yilda bir marta bo'ladigan yig'ilishda Kengash boshqaruvchilardan birini keyingi rais saylangunga qadar rais vazifasini bajaruvchi sifatida saylaydi.

Boshqaruvchilar Kengashining vakolatlariga quyidagi masalalarni hal qilish kiradi:

- 1) ETTBka yangi a'zolarni qabul qilish, ularni qabul qilish shartlarini aniqlash, Bankka a'zoligini to'xtatish;
- 2) ETTB prezidenti va direktorini saylash, direktorlar va ularning o'rinnbosarlari mukofot pullari miqdorini, shuningdek prezident bilan tuziladigan bitimning boshqa shartlarini belgilash;
- 3) ETTBning chiqarishga ruxsat etilgan ustav kapitalini ko'paytrish yoki kamaytirish;
- 4) boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik to'g'risida bosh kelishuvlar (bitimlar) tuzishga vakolatlar berish;
- 5) ETTBning umumiy balansini (audit hisoboti ko'rib chiqilganidan so'ng) tasdiqlash hamda foya va zararlar hisobvaraqlari, zahiralar hajmini aniqlash, foydani taqsimlash, ETTB faoliyatini uzil-kesil to'xtatishi hamda uni aktivlarini taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish;
- 6) ETTBni ta'sis etish to'g'risidagi Bitimga o'zgartirishlar kiritish, Bitimning izohi yoki uni Kengash direktorlari tarafidan qo'lash bilan bog'liq apellyatsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Direktorlar Kengashi vakolatiga ETTB faoliyatining joriy masalalari va shuningdek unga boshqaruvchilar Kengashi tomonidan yuklatilgan alohida

vakolatlarni amalga oshirish kiradi. Ularning ichida: 1)boshqaruvchilar Kengashi ishiga tayyorgarlik ko'rish; 2)boshqaruvchilar Kengashi ko'rsatmalari doirasida ETTBning kreditlar, kafolatlar, aktsiyadorlik kapitaliga investitsiyalar berish, kreditlar jalg qilish, texnik yordam ko'rsatish va boshqa operatsiyalariga nisbatan siyosatini aniqlash va qarorlar qabul qilish; 3)yillik majlisdagi boshqaruvchilar Kengashi tasdig'igiga moliyaviy yil uchun auditorlar tomonidan ko'rib chiqilgan hisobotni tayyorlash; 4)ETTB byudjetini tasdiqlash.

Direktorlar Kengashi 23 a'zodan iborat: 11 direktor EIga a'zo-mamlakatlar va EIBga a'zo boshqaruvchilar tarafidan; 4 direktor – ETTBdan yordam olish huquqiga ega bo'lgan Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlaridan; 4 direktor Evropaning qolgan boshqa mamlakatlaridan; 4 direktor Evropa mamlakatlari bo'limgan mamlakatlardan saylanadi. Direktorlar har uch yilda saylanadi. Ovoz berishda oddiy ko'pchilik ustunlikka ega bo'ladi, lekin umumiy ovozning 2/3 qismidan kam bo'lmasligi kerak. Har bir a'zoning ovozlari soni u obuna bo'lgan aktsiyalarning miqdoriga teng bo'ladi.

ETTB prezidenti umumiy ovozlar sonining yarmidan ko'prog'ini tashkil etuvchi boshqaruvchilar umumiy sonidan ko'pchilik ovoz bilan 4 yilga saylanadi. ETTB prezidenti bankning joriy faoiyatini direktorlar Kengashi rahbarligi ostida boshqaradi. U ovoz berishlarda qatnashmaydi, lekin ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda hal qiluvchi ovozga ega bo'ladi, boshqaruvchilar Kengashi majlislarida qatnashishi va direktorlar Kengashiga raislik qilishi mumkin.

ETTB resurslarining shakllanishi. ETTBning chiqarishga ruxsat etilgan 10 mlrd. EKYuga teng bo'lgan aktsiyadorlik kapitali dastavval har biri 10 000 EKYU qiymatidagi nominalga ega 1 mln. dona aktsiyaga bo'lingan edi, shu jumladan puli to'lanadigan hamda puli talab bo'yicha to'lanadigan aktsiyalarga bo'lingan. To'lanadigan aktsiyalarning chiqarilgan dastlabki summasi 3 mlrd. EKYuni tashkil qilgan yoki chiqarishga ruxsat etilgan aktsiyadorlik kapitalining 30 foizini, aktsiyalarning 70 foizi esa to'lanmagan aktsiyalar bo'lib, ETTB majburiyatlarini to'lash zarur bo'lib qolganda qaytib talab qilib olinishi mumkin. Bundan tashqari 125 aktsiya ETTB a'zolari o'rtasida taqsimlanishi taqiqlangan edi.

1997 yilning boshida ETTB kapitalini 2 barobarga, ya'ni 20 mlrd. EKYugacha oshirish to'g'risidagi qaror kuchga kirdi. Chiqarilishga ruxsat etilgan kapitalning 10 mlrd. EKYuga oshirilgan qismidan 2,25 mlrd. EKYU 8 qismdan va o'zaro teng bo'lgan, birinchi navbatda to'lanishi lozim bo'lgan yillik badallardan iborat. Qolgan 7,75 mlrd. EKYU talab bo'yicha to'lanishi lozim. ETTB kapitalidagi ishtirok nisbatlarini uning aktsiyadorlari o'rtasidagi taqsimoti sezilarli darajada o'zgarmadi.

EI, EIB a'zo-mamlakatlar va EIining o'zi ETTB ustav kapitalida 51% kvotasiga egadir, Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari – 13%, qolgan Evropa mamlakatlari – 11%, evropa mamlakatlari bo'limganlar – 24%. Kapitalda ko'proq hissa bilan AQSh

– 10%, Italiya, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya va Yaponiya – 8,5%dan. Ustav kapitalining ko'lami har 5 yilda bir marta ko'rib chiqiladi.

ETTBning kredit-investitsiya siyosati. ETTB o'z faoliyatida xo'jalik yuritishning bozor usullariga o'tayotgan davlat va xususiy sektor korxonalariga xizmat ko'rsatishda operatsiyalarning quyidagi shakllaridan foydalilanildi:

1)ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlariga kreditlarni taqdim etish (hamkorlikda moliyalashtirishni o'z ichiga logan holda);

2)kapitalni investitsiyalash;

3)qimmatli qog'ozlarni kafolatlangan asosda joylashtirish;

4)kapital bozorlariga kafillikkarni berish hamda boshqa shakllarga ko'maklashish orqali chiqishni engillashtirish;

5)maxsus fondlar resurslarini ularning ishlatilishini belgilab beruvchi kelishuvlarga muvofiq ravishda joylashtirish;

6)zayomlarni taqdim etish (hamkorlikda moliyalashtirishni o'z ichiga olgan holda) hamda infratuzilmani qayta qurish va rivojlantirishga mo'ljallangan texnik yordamni ko'rsatish (shu jumladan tabiat muhofazasi dasturlari).

ETTB eksport kreditlari bo'yicha kafolatlar bermaydi va sug'urtalash bilan shug'ullanmaydi. ETTB tashkil topgan paytdan boshlab 1999 yilning boshigacha Bank direktori Kengashi summasi 55 mlrd. AQSh dollaridan ziyodroq bo'lган 800dan ortiq loyihalarni ma'qullagan. ETTB moliya-kredit siyosatining muhim yo'nalishlaridan moliyaviy sektor, energetika, telekommunikatsiya infratuzilmasi, transport va agrobiznesni ajratib ko'rsatish mumkin. Xususiy lashtirish kabi soha ham muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy sektor. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida sobiq sotsialistik mamlakatlarning kredit-moliya muassasalari jiddiy muammolarni meros sifatida qabul qilib olishdi: umidsiz kreditlar, moliya zahiralarini cheklanganligi, kapitallashtirish jarayonining sekinligi va moliyaviy sektorning o'ta monopolashganligi. Bu o'z navbatida davlat korxonalarini kredit muassasalarining aktsiyadorlari bo'lishi bilan bir vaqtda, uning yirik qarz oluvchilari bo'lib maydonga chiqishi bilan asoslangandir. Kredit-moliya muassasalarini kreditlar taqsimotining markazdan rejallashtiriladigan passiv vositachilaridan bozor tamoyillari asosida erkin raqobat sharoitlarida resruslardan foydalanishning muhim funktsiyasini bajara oladigan maxsus turdag'i korxonalarga aylantirish Bilan bog'liq muammo eng murakkab muammoga aylandi. Moliya-kredit tizimini bozor iqtisodiyoti darajasigacha ko'tarish hamda uni xususiy lashtirish jarayoniga tayyorlash imkonini beradigan tuzilmaviy isloh qilinishini talab qiladi.

ETTB moliyaviy sektorni taraqqiy ettirishning umumiyy strategiyasi hamda rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan maslahat xizmatlarini erkin bozor iqtisodiyoti sharoitlarida banklar funktsiyalarini bajara oladigan muassasalarga maqsadli investitsiyalar bilan birgalikda olib boradi. Bir vaqtning o'zida ETTB

banklarni xususiy lashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni olib boradi hamda xususiy banklarning mustahkamlanishiga, yangi institutlarni investitsiyalar hamda texnik hamkorlik yordamida barpo etilishiga ko'maklashadi. Ko'pchilik mamlakatlarda Bank pul mablag'larini yirik xorijiy banklar yoki investorlardan ololmaydigan kichik va o'rta korxonalarini kreditlash masalalari bilan shug'ullanadi. Markaziy va Sharqi Evropaning ayrim mamlakatlaridagi kichik va o'rta korxonalar xalqaro hamda mahalliy banklarning ishtirokida ETTB tarafidan qo'llab turiladigan bir qator agentlik kredit yo'naliishlaridan foydalanishlari mumkin. agentlik yo'naliishlari banklar tarafidan kichik va o'rta biznes korxonalariga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, xalqaro kredit resurslarini jalg etish, qarz oluvchi korxonalarining mavjudlarini kengaytirish yoki yangilarini yaratish hisobigan ishlab chiqarish hamda ish joylarini barpo etishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan edi.

Energetika. ETTBni Evropaning sobiq sotsialistik mamlakatlarida energetika sektorini rivojlanishiga jalb qilinish zaruriyati bu mamlakatlarda 1991 yildagi enegetika inqirozi bilan bog'liqdir. Ushbu inqiroz sobiq Ittifoq davlatlaridan energetika tashuvchilarni qisqargani va ularning narxini jahon baholari darajasiga ko'tarilgani bilan ifodalanadi. ETTB amaldagi energetik quvvatlarni modernizatsiyalash va iste'molchilar tomonidan energiyadan foydalanishni oqilona holatga keltirish bilan bog'liq loyihalarni faol ravishda amalga oshira boshladi. Bu loyihalarni amalga oshirish energetika manbalariga bo'lган ichki va jahon narxlarini yaqinlashtirishga yo'naltirilgan baholash sohasidagi islohotlar bilan birgalikda bo'lishi kerak edi. Mavjud neft va gaz tabiiy qazilmalaridan to'liqroq hamda samaraliroq foydalanish imkonini beradigan yangi texnologiyalarga ega xorijiy investorlarni jalb etish ushbu jarayonlarda ijobjiy rol o'ynaydi. Bunda xorijiy firmalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarini barpo etish hamkorlikning peshqadam shakllaridan biriga aylanadi. ETTB bunda loyihani amalga oshirishga mo'ljallangan kreditning faqat bir qisminigina taqdim qiladi.

Telekommunikatsiyalar. Zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlarining mavjudligi sobiq sotsialistik mamlakatlarning ichki bozorlari integratsiyasini va ularni jahon bozorlari bilan aloqasini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish bozor iqtisodiyotini to'laqonli rivojlanishining majburiy sharti bo'lib hisoblanadi. Telekommunikatsiyalar sohasida ETTB aloqa tarmoqlarining kengayishiga, xizmatlar assortimentining ko'payishiga hamda tashkiliy islohotlarga olib keladigan davlat va xususiy sektor tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi. Bu sektordagi ETTBning asosiy ustivor yo'naliishi telekommunikatsiyalarning davlat tarmog'i tuzilmasini mustahkamlash hisoblanadi.

Transport. Shahar va qishloq joylaridagi avtomobil hamda temir yo'llarining amaldagi tizimini tiklash va modernizatsiya qilishni ko'pchilik mamlakatlarda ko'pincha ustivor masalalarga qo'shishadi. Ushbu masalalarga e'tiborsizlikning

natijasi bo'lib tez-tez sodir bo'lib turadigan avariylar, yo'l harakitini izdan chiqishi hamda yuk va yo'lovchilarni xavfsiz hamda samarali asosda tashishni qiyinlashtiruvchi boshqa muammolar hisoblanadi. Shu sababli ETTB tarnsport borasida birinchi darajali e'tiborni mazkur muammolarni hal etuvchi hamda Markaziy va Sharqiy Evropaning G'arb va Sharqda joylashga hamda atrof muhit sog'lomlanishiga xissa qo'shayotgan qo'shnilar bilan integratsiyasiga ko'maklashuvchi loyihalarga beradi. ETTB transport tizimining balanslashgan rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi, chunki transportning har bir turi o'zi uddalay oladigan transport oqimlarini jalg qiladi va shunday yuk tashish xizmatlarini amalga oshiradi. ETTB sog'lom raqobat Sharq va G'arb mamlakatlari tarafidan maqbul qarorlar qabul qilinishiga ko'maklashadi hamda transport tizimlarini rivojlantirish birinchi navbatda iqtisodiy ustivorliklar va texnik samara bilan belgilanishi kerak deb hisoblaydi.

Yuqoridagilar Sharqiy Evropa mamlakatlari uchun avtomobil xizmatlari ko'lamenti hamda ularga qilinayotgan investitsiyalar hajmini o'stirish, temir yo'llarni tuzilmaviy qayta qurilishi zarurligini bildiradi. Temir yo'llarni tuzilmaviy asosda qayta qurish hamda ularni raqobatdosh iqtisodiyotning yangi sharoitlarida boshqa vazifalarni bajarishga tayyorlash masalalari bo'yicha ayrim mamlakatlar bugungi kun holatiga ijobjiy natijalarga erishdi. Shu sababli ETTB temir yo'llarning istiqboldagi roli hamda ushbu yo'nalishdagi tegishli xatti-harakatlarni aniqlash maqsadida sakkiz mamlakatda izlanishlarni boshlab yubordi. ETTB Jahon Banki bilan birgalikda shunga o'xshash ishlarni mintaqaning boshqa mamlakatlarida ham olib bormoqda. Transport mashinasozligini rivojlantirish bilan bog'liq loyihalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kreditlash – iqtisodiy rivojlanishning birgina instrumenti xolos. Bu bilan birgalikda davlat siyosati, tashkiliy islohotlar, investitsiyalarni nisbatan takomillashgan asosda rejorashtirish barobar darajada muhimdir; buning munosabati bilan ETTB mazkur sohalarda yanada taraqqiy etishga urg'u bermoqda.

Agrobiznes. Bu sohada ETTB o'zining asosiy harakatlarini qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi zamonaviy korxonalar qurilishini, oziq-ovqat mahsulotlarini sotish hamda taqsimlash infratuzilmasini rivojlantirishni kreditlashga qaratgandir. Xususan, ETTB bir nechta mamlakatlarda ulgurji bozorlar barpo etish loyihasi ustida ishlamoqda. Xususiy agrobiznesni kreditlash odatda mahalliy yirik banklarga ochiladigan hamda faqat agromahsulotlarni qayta ishlash va ularni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xususiy tadbirkorlar foydalanishi uchun mo'ljallangan kredit yo'nalishlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizm xususiy sektorni ham mahalliy ham xorijiy valyutada kreditlash uchun mo'ljallangandir.

Xususiyashtirish. Xususiyashtirishni jadallashtirishga ko'maklashish ETTBning har bir aniq mamalakat bo'yicha strategiyasidagi birinchi darajali vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. ETTBda xususiyashtirish sifatida tushuniladigan chora-tadbirlar qatoriga davlat korxonalarini nafaqat xususiy mulkchilikka o'tkazishni,

balki xo'jalik yuritishning bozor usullariga o'tayotgan davlat sektoridagi ishlayotgan korxonalarini tuzilmaviy jihatdan qayta qurish va modernizatsiya qilish hamda xususiy korxonalar tashkil qilinishini ko'zda tutadi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI, TOPSHIRIQLAR VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulot **maqsadi** tinglovchilarning nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

AMALIY MISOLLAR VA MASALALAR

1. Mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi ishtirokini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarini yozing.
2. Moliya bozori strukturasiini tuzing.
3. Xalqaro moliya bozoriga ADT chiqaruvchi 10 ta etakchilar ro'yxatini tuzing?
4. UNCTAD tomonidan qanday mezonlar asosida kompaniyalar TMKlar qatoriga kiritiladi?
5. Birjadan tashqari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bitimlarga misollar keltiring.
6. Xalqaro bozorda bitimlarni amalga oshirgan 10 ta yirik investorlar ro'yxatini tuzing.
7. UNCTAD metodologiyasi bo'yicha transmilliy korporatsiyalarning jahon xo'jaligidagi iqtisodiy faoliyati qanday ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi?
8. 20 ta yirik transmilliy banklarni va transmilliy korporatsiyalarni ro'yxatini tuzing.
9. Transmilliy korporatsiyalarning umumiy moliyaviy oqimlari sxemasini tushuntiring.
10. Evro hududdagi importyor Buyuk Britaniyadan 100 ming funt.st. qiymatdagi tovari 3 oydan keyin to'lash sharti bilan sotib oldi. Qaysi holatda valyuta riski paydo bo'ladi va uni qanday yopish mumkin?
11. 25000 dollar nominal obligatsiya, 24500 dollardan narxda sotilmoqda. Obligatsiya kursini aniqlang? Davlat qisqa muddatli 100000 dollar nominal obligatsiya kursi 77,5 foiz. Obligatsiya narxini aniqlang?
12. Davlat qisqa muddatli muomaladagi muddati 91 kun bo'lgan 100000 nominali dollarlik obligatsiya 87,5 foiz kurs bo'yicha sotilmoqda. 10 ta obligatsiyani sotib olishdan olinadigan daromad va moliyaviy operatsiyaning daromadligini aniqlang.
13. Aktsiyadorlik jamiyatining dividendlar to'lashga yo'naltiriladigan foydasi 10000 shartli birlikni (sh.b.) tashkil etadi. Aktsiyalarni umumiy summasi 7600 sh.b., shu jumladan, imtiyozli 1200 sh.b. 20 foizli o'zgarmas dividendi bilan. Oddiy aktsiyalar bo'yicha dividendlar miqdorini hisoblang.
14. Konvertatsiya qilinadigan obligatsiya qiymati 5000 sh.b. Aktsiyani bozor narxi 1000 sh.b. Konversiya koeffitsienti 3. Konvertatsiya qilinadigan obligatsiyani oddiy aktsiyaga almashtirish shartmi?
15. Avstraliya dollariga nisbatan yapon ienni kross-kursi hisoblang? 13 avstraliya dollari AQSh dollariga nisbatan kursi-0,7050. Yapon ien kursi-116,780.
16. Mijoz evroga funt sterling sotib olmoqchi. Mijoz uchun funtni sotish kursini hisoblang? Valyuta kurslari: GBP / USD 1,5630 – 1,5640. USD/EUR 0,9250 – 0,9270.

17. Valyuta dileri 2 mln. AQSh dollarini 1,7560 kurs bo'yicha evroga sotib oldi. Kun oxiriga u dollarni 1,7540 kurs bo'yicha sotdi. Ushbu ikki bitimdan diler uchun natija qanday bo'ladi?

18. Ayirboshlash shahobchasi AQSh dollarining quyidagi kotirovkasini berdi: USD/RUR 31,30/32,60. Bir mijoz 2 000 dollar sotdi, boshqa mijoz esa 2 000 dollar sotib oldi. Bu ikki bitimdan bank qanday foyda oldi?

19. Firma xorijga 12 mln. AQSh dollaridagi tovarni etkazib beradi. Sharhnomalar bo'yicha 40 foiz to'lov naqdda etkazib berilgandan keyin to'lanadi. 60 foizi esa uyidagi shartlardagi kredit sharhnomasi asosida qoplanadi.

Кредитни қисми	млн. доллар	Қоплаш муддатлари
1	2,4	1 йилдан сўнг
2	2,4	2 йилдан сўнг
3	2,4	3 йилдан сўнг
Жами	7,2	

Kreditning o'rtacha muddati qancha?

20. Bugungi kunda qaysi summa qimmat turishini aniqlang (dollarda hisoblang va solishtiring):

- 1) 62 angliya f.st. yoki 100 avstraliya dollarasi?
- 2) 20 AQSh dollar yoki 100 yapon yenni?
- 3) 100 kanada dollarasi yoki 100 yapon yenni?

21. Ichki narxlar tashqi narxlarga nisbatan sekin o'smoqda. Agarda valyutani sotib olish qobiliyati paritetiga amal qilinsa, valyutalarni nominal kurslariga nima bo'ladi?

22. Valyuta pariteti shartlari talablariga nisbatan agarda valyuta nominal kursi sekin o'zgarsa, mamlakat eksport-importi qanday bo'ladi?

23. Quyidagi tasdiqni asoslang? "Agarda davlat ishsizlik darajasi va infliyatsiya sur'atiga pul-kredit siyosati orqali ta'sir o'tkazish uchun, davlat tomonidan qat'iy valyuta kursi rejimini qo'llamasligi lozim".

MAVZULAR BO'YICHА TESTLAR

1-mavzu: Iqtisodiy va moliyaviy globalizatsiya

1. Evolyutsion jarayonda zamonaviy jahon iqtisodiyoti bosqichlari nechta?
 - a. 4 ta bosqich
 - b. 3 ta bosqich
 - c. 2 ta bosqich
 - d. to'g'ri javob yo'q

2. Jahon xo'jaligi ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga xalqaro iqtisodiy aloqalar ta'siri, alohida mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligini kuchayishi bu -
- a. globallashuv
 - b. integratsiyalashuv
 - c. internatsionallashuv
 - d. to'g'ri javob yo'q
3. Milliy iqtisodiyotlarni yaqinlashishi va o'zaro moslashishi, ularni xalqaro miqyosda yagona ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilishi bu -
- a. globallashuv
 - b. integratsiyalashuv
 - c. internatsionallashuv
 - d. to'g'ri javob yo'q
4. Liberalizatsiyalashgan xalqaro almashinuv asosida, xo'jalik hayotini integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi, milliy rivojlangan iqtisodiyotning ochiqligi va o'zaro bog'liqligi bosqichi bu
- a. globallashuv
 - b. integratsiyalashuv
 - c. internatsionallashuv
 - d. to'g'ri javob yo'q
5. Eksport va importni yalpi qiymatini $\frac{1}{2}$ YaIM qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi, bu - ?
- a. import kvotasi
 - b. eksport kvotasi
 - c. tashqi savdo kvotasi
 - d. to'g'ri javob yo'q
6. Bank kapitali transmilliyashuvining kuchayishi nima bilan tavsiflanadi?
- a. kapital xalqaro harakatining o'sishi.
 - b. eksport hajmining oshishi
 - c. import hajmining oshishi
 - d. to'g'ri javob yo'q
7. Iqtisodiy integratsiyalashuvning bosqichlari nechta?
- a. 3 ta bosqich
 - b. 4 ta bosqich
 - c. 5 ta bosqich
 - d. to'g'ri javob yo'q
8. Kapital harakati orqali iqtisodiyotda global aloqalarning kuchayishi, bu-? a.

moliyaviy globallashuv

- b. xalqaro savdoni liberalizatsiyalashuvi
- c. iqtisodiyotni regionalizatsiyalashuvi
- d. to'g'ri javob yo'q

9. Iqtisodiy globallashuvning asosiy yo'nalishlariga qaysilar kiradi?

- a. moliyaviy globallashuv
- b. xalqaro savdoni liberalizatsiyalashuvi
- c. iqtisodiyotni regionalizatsiyalashuvi
- d. barcha javoblar to'g'ri

10. Zamonaviy jahon iqtisodiyotida globallashuvning asosiy tendentsiyasi bu-?

- a. moliyaviy globallashuv
- b. mintaqalashuvi
- c. TMKning rivojlanishi
- d. to'g'ri javob yo'q

2-mavzu: Xalqaro moliya va kredit bozori

1. Volker qoidasining maqsadi:

- a. rivojlanaetgan mamlakatlarga yordamni bekor qilish
- b. AQSh iqtisodiy o'sishi uchun pul emissiyasini orttirish
- c. banklarning derivativ opertsiyalarini cheklash
- d. inflyatsiya darajasini pasaytirish

2. Tovarlarni jahon narxidan past narxda eksport qilinishi:

- a. valyuta dilingi
- b. valyuta skoringi
- c. valyuta dempingi
- d. valyuta fiksingi

3. Davlat tomondan nazorat qilinadigan, o'zgaruvchi valyuta kursining iqtisodiyotni tartibga soluvchi qo'shimcha instrumenti to'g'risidagi nazariya:

- a. suzib yuruvchi valyuta kursi nazariyasi
- b. tartibga solinuvchi valyuta nazariyasi
- c. valyuta kursini normativ nazariyasi
- d. to'g'ri javob yo'q.

4. Oltinni rasmiy demonetizatsiyasi qabul qilingan:

- a. Genuya valyuta konferentsiyasida

- b. Bretton-Vuds valyuta konferentsiyasida
- c. Yamayka valyuta konferentsiyasida
- d. Parij valyuta konferentsiyasida

5. BMTning ixtisoslashgan moliyaviy tashkiloti?

- a. YuNESKO
- b. Xalqaro Valyuta Fondi
- c. Jahon banki
- d. BMTTD (PROON)

6. Agar milliy va xalqaro inflyatsiya orasidagi farq 10 foizga teng bo'lsa, milliy valyutani devalvatsiyasi nimaga teng:

- a. 5 foizga
- b. 10 foizga
- c. 95 foizga
- d. 105 foizga

7. Xalqaro moliya bozori segmentiga kirmaydi?

- a. valyuta bozori
- b. drevativlar bozori
- c. fond bozori
- d. sug'urta bozori

8. Xalqaro moliya bozori funksiyasi kiradi

- a. kapitalni qayta taqsimlash
- b. kapitalni markazlashtirish
- c. kapital mobilizatsiyasi
- d. barcha javoblar to'g'ri

9. Xalqaro moliya bozori -bu?

- a. xalqaro kapital mobilizatsiyasi va qayta taqsimlash
- b. xalqaro kapital bozori
- c. xalqaro kredit munosabatlari
- d. barcha javoblar to'g'ri

10. Etakchi netto-kreditor bo'lib hisoblanadi

- a. AQSh
- b. Yaponiya
- c. Germaniya
- d. Kanada

To'lov balansi va tashqi qarz

1. To'lov balansi nima?

- a. mamlakat tomonidan valyuta ko'rinishida haqiqatda to'langan va boshqa davlatlardan olingan tushumlarning nisbati
- b. mamlakatning xorijiy davlatlarga bo'lган talab va majburiyatlarning nisbati
- c. faqatgina haqiqatda amalga oshirilgan xalqaro kredit bilan bog'liq to'lovlar va tushumlarning nisbati
- d. valyuta rezervlari va oltin rezervlari bahosi o'rtasidagi nisbat

2. Savdo balansi aks ettiradi?

- a. eksportni jami summasini
- b. importni jami summasi
- c. eksport va import summasi o'rtasidagi farq
- d. xorijdan tushgan summalar

3. To'lov balansi bo'limlari

- a. joriy opreatsiyalar va kapital harakati
- b. eksport va import operatsiyalar
- c. valyuta rezervi va oltin zaxirasi
- d. xalqaro kreditlar va transfertlar

4. To'lov balansinig ko'rinishmas operatsiyalari tarkibiga kiradi

- a. chet el mamlakatlariga kreditlar
- b. tovar va xizmatlar eksporti
- c. mamlakat miqyosidagi subsidiyalar
- d. qarindoshlarning o'z yurtlariga pul o'tkazmalari

5. To'lov balansining profitsiti...

- a. infliyatsiyaga olib keladi
- b. milliy valyutani revalvatsiyasiga olib keladi
- c. milliy valyutani devalvatsiyasiga olib keladi
- d. rezervni kamayishiga olib keladi

6. To'lov balansi defitsitining salbiy oqibatlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a. milliy valyuta revalvatsiyaga uchraydi
- b. milliy valyuta devalvatsiyaga uchraydi
- c. davlat byudjeti daromadlari kamayadi
- d. davlat byudjeti xarajatlari ortadi

7. To'lov balansi joriy operatsiyalariga kiradi

- a. kapitalni kirib kelishi
- b. kapitalni chiqib ketishi

- c. sof pul o'tkazmalar
- d. to'g'ri javob yo'q

8. Davlat qarzi quyidagi iqtisodiy oqibatlarga olib kelishi mumkin

- a. xayot darajasini pasayishiga
- b. milliy boylikni qayta taqsimlanishiga
- c. yalpi milliy xarajatlarni oshishiga
- d. barcha javoblar to'g'ri

9. To'lov balansinig ko'rinas operatsiyalari tarkibiga kiradi

- a. chet el mamlakatlariga kreditlar
- b. tovar va xizmatlar eksporti
- c. mamlakat miqyosidagi subsidiyalar
- d. qarindoshlarning o'z yurtlariga pul o'tkazmalar

10. Davlatning moliyaviy holati nazorat qilinayotgan hisoblanadi, agarda davlat qarzi

- a. YaIM nisbatan 50 foizdan oshmasa
- b. YaIM nisbatan 30 foizdan oshmasa
- c. YaIM nisbatan 15 foizdan oshmasa
- d. YaIM nisbatan 25foizdan oshmasa

Xalqaro valyuta bozori

1. Xorijiy valyutaga talab va taklifdan kelib chiqib aniqlanadigan valyuta kursi-bu?

- a. qat'iy belgilangan valyuta kursi
- b. birja valyuta kursi
- c. rasmiy valyuta kursi
- d. paritetli valyuta kursi

2. Mamlakatning xalqaro valyuta likvidligiga nima kiradi?

- a. oltin
- b. milliy valyuta
- c. valyuta rezervi
- d. qimmatbaho toshlar

3. Valyuta qiymatiga kirmaydigan elementni ko'rsating.

- a. bankot ko'rinishidagi xorijiy valyuta
- b. tashqi qimmatli qog'oz
- c. bank hisob raqamidagi xorij valyutasi
- d. to'g'ri javob yo'q

4. Qaysi mulohazani to'g'ri deb hisoblaysiz?

- a. Xorij valyutasiga talab-ishlab chiqaruvchilarni tovarlar eksport qilishga
- b. moslashuvchan valyuta kursi iqtisodiyotni xorij taklif shokidan himoya qilinadi

c. qat'iy valyuta kursida valyuta kursini erkin ko'tarilishi yoki pasayishi sodir bo'lmaydi

d. har qanday valyuta valyuta qiymatliliklariga kiradi

5. Agar Rossiyada tovarlar narxi 1,5 baravarga oshsa, dollarning rublga nisbatan kursi?

- a. 1,5 baravarga oshadi
- b. o'zgarmaydi
- c. 1,5 baravarga kamayadi
- d. to'g'ri javob yo'q

6. Agar A mamlakatda foiz stavkasi 10 % ga teng va B mamlakatda inflyatsiya darajasi 5 %ga teng bo'lsa, foiz stavkalarining paritetida B mamlakatda foiz stavkasi nimaga teng bo'ladi?

- a. 5 foizga
- b. 15 foizga
- c. 10 foizga
- d. -5 foizga

7. Kassa valyuta operatsiyalari uchun qaysi belgilarni xarakterli?

- a. kelishuv motivi – valyuta riskini neytralizatsiyasi
- b. kelishuv birjada tuziladi
- c. kelishuv spot kursi bo'yicha amalga oshiriladi
- d. to'g'ri javob yo'q.

8. Forvard valyuta kursi foydalaniladigan kelishuvni ko'rsating

- a. valyuta arbitraji
- b. valyuta spoti
- c. valyuta svopi
- d. to'g'ri javob yo'q

9. Valyuta fyucherslari qanday xususiyatlari bilan xarakterlanadi?

a. shartnomada bajarishni standart muddatlari nazarda tutiladi b. shartnomada valyuta etkazilishi majburiyligi nazarda tutiladi
c. kelishuv birjada tuziladi
d. to'g'ri javob yo'q

10. Qaysi valyuta operatsiyalari shartnomasida sotib oluvchi, sotuvchiga mukofot to'laydi?

- a. valyuta spoti
- b. valyuta svopi
- c. valyuta opzioni
- d. to'g'ri javob yo'q

11. Valyuta svoplarini xarakterlovchi belgilarni ko'rsating.

- a. shartnomada bajarishning standart muddati nazarda tutiladi
- b. shartnomani bajarish majburiy hisoblanadi
- c. shartnomani bajarish majburiy hisoblanmaydi
- d. to'g'ri javob yo'q

12. Valyuta optionlari qanday xususiyatlari bilan tavsiflanadi?

- a. shartnoma bajarish uchun majburiy hisoblanadi
- b. kelishuv joriy bozor kursi bo'yicha amalga oshiriladi
- c. shartnomani sotib oluvchi sotuvchiga mukofot to'laydi
- d. to'g'ri javob yo'q.

13. Oltinni rasmiy qabul qilingan?

- a. Genuez valyuta konferentsiyasida
- b. Bretton-Vuds valyuta konferentsiyasida
- c. Yamayka valyuta konferentsiyasida
- d. Parij valyuta konferentsiyasida

14. Xorijiy valyutaga talab va taklifdan kelib chiqib aniqlanadigan valyuta kursi-bu?

- a. qat'iy belgilangan valyuta kursi
- b. birja valyuta kursi
- c. rasmiy valyuta kursi
- d. paritetli valyuta kursi

15. Bir mamlakat valyutasining ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatini uchinchi valyuta orqali ifodalanishi?

- a. kross kurs
- b. birja kursi
- c. rasmiy kursi
- d. davlat kursi

16. Mamlakatni xalqaro valyuta likvidligiga nima kiradi?

- a. oltin
- b. milliy valyuta
- c. valyuta rezervi
- d. qimmatbaho toshlar

17. Valyuta bitimi tuzilgandan so'ng, valyutalar ikki ish kunida kelib tushadigan operatsiyalar

- a. svop
- b. forward
- c. spot
- d. option.

18. Bir valyutani spot operatsiyasi bo'yicha sotib olish va forward sharti bo'yicha sotishiga yoki forward sharti bo'yicha sotib olish va spot sharti bo'yicha sotish
- a. option
 - b. spot
 - c. swap
 - d. to'g'ri javob yo'q.

19. Valyuta kursi ikki mamlakat pul birliklarining nisbiy qiymati

- a. xarid qobiliyati pariteti
- b. foiz pariteti
- c. valyuta kursi
- d. to'g'ri javob yo'q.

20. Valyuta qiymatiga kirmaydigan elementni ko'rsating?

- a. bankot ko'rinishidagi xorij valyutasi
- b. tashqi qimmatli qog'oz
- c. bank hisob raqamidagi xorij valyutasi
- d. to'g'ri javob yo'q.

Xalqaro kredit bozori

1. Uzoq muddatli xalqaro kreditga xos bo'lмаган xususiyatlarni ko'rsating.

- a. kreditlashni keng shakli
- b. asosiy fondlarga investitsiya uchun
- c. aylanma vositalarni moliyalashtirish uchun
- d. to'g'ri javob yo'q.

2. Qaysi holat xalqaro faktoring mazmunini ochib beradi?

- a. importyor o'z eksportyorini kreditlaydi
- b. moliya kompaniyasi impotyorning qarz majburiyatini sotib oladi
- c. moliya kompaniyasi importyorga bo'lган qarz talablarini sotib oladi
- d. to'g'ri javob yo'q.

3. Moliyaviy lizingni tavsiflovchi belgilarini ko'rsating.

- a. importyorni uzoq muddatli kreditlash turi
- b. eksportchini uzoq muddatli kreditlash turi
- c. kelishuvni 100 foiz kreditlash ta'minlanadi
- d. to'g'ri javob yo'q.

4. Forfeyting uchun xarakterli belgilarni ko'rsating.

- a. hisob stavkasining kreditlash muddati va qarzdorni kategoriyasiga bog'liq
- b. kreditlash mijozning aylanma kapitalini ta'milaydi
- c. moliya kompaniyasi regress huquqi bilan aylanma hujjatni sotib oladi
- d. to'g'ri javob yo'q.

5. Qanday korxonalar uchun eksport faktoring zarur?

- a. mashina va asbob-uskunalarni eksportini amalga oshiruvchilarga
- b. naqd pul muammosi bo'lgan
- c. valyuta riskini kamaytirishga intiluvchilarga
- d. to'g'ri javob yo'q.

6. Xalqaro bank kreditlari foiz stavkasi miqdoriga qanday omillar ta'sir etadi?

- a. mamlakat riskining yo'qligi
- b. infliyatsiya sur'ati
- c. kreditning ta'minlanganlik darajasi (sifati)
- d. to'g'ri javob yo'q.

7. Xalqaro kredit berish to'g'risidagi bank qaroriga qaysi jarayonlar ijobiy ta'sir etadi?

- a. qarz oluvchi o'z biznesida etarli tajribaga ega
- b. qarz oluvchining mamlakati barqaror hukumatga ega
- c. qarz to'lanadigan valyutani devalvatsiya bo'lish ehtimoligini yuqoriligi
- d. to'g'ri javob yo'q.

8. Inkassa shaklidagi hisob-kitoblar kamchiliklarini ko'rsating?

- a. importyor haqiqatda etkazib berilgan tovar uchun to'laydi
- b. importyor to'lojni amalga oshirishdan voz kechishi mumkin
- c. importyor tomonidan to'lojni tezlashtirish uchun bank real dastaklarga ega emas
- d. to'g'ri javob yo'q.

9. Akkreditiv hisob-kitoblar shakli qanday xususiyatlarga ega?

- a. tovari jo'natgunga qadar to'loving ishonchligi
- b. eksportchi uchun hisob-kitob shakli murakkabligi
- c. to'lov shakli shartnomada ko'rsatilishi lozim
- d. to'g'ri javob yo'q.

10. Shartnomaviy kafolat nimani ta'minlaydi?

- a. to'lojni muddatida amalga oshishini
- b. importyor majburiyatini bajarilishini
- c. avans to'lojni qaytarishini kafolatlaydi
- d. to'g'ri javob yo'q.

11. Faktoring va forfeyting orasidagi farq?

- a. faktoring birja orqali amalga oshiriladi
- b. forfeyting birja orqali amalga oshiriladi
- c. faktoring eksport qiluvchi, forfeyting import qiluvchi bilan ishlaydi
- d. faktoring import qiluvchi, forfeyting eksport qiluvchi bilan ishlaydi

12. Kreditor va qarz beruvchi o'rtasida kredit summasini yoki uning bir qismini hisobdan chiqarish

- a. qarzni diskontlash
- b. qarzni restrukturizatsiyalash
- c. kredit diskriminatsiyasi
- d. to'g'ri javob yo'q

13. Kreditni to'lash muddatlarini foizlarni to'lashni orqaga surish orqali cho'zish

- a. kreditni diskontlash
- b. kreditni restrukturizatsiyalash
- c. kredit diskriminatsiyasi
- d. to'g'ri javob yo'q

14. Davlat krediti quyidagilarni amalga oshirishga ishlatilishi mumkin

- a. pul-kredit siyosati
- b. fiskal siyosat
- c. moliya siyosati
- d. barcha javob to'g'ri

15. Davlat krediti ta'minlanadi

- a. oltin-valyuta zaxirasi bilan
- b. davlat mulki bilan
- c. oltin-valyuta zaxirasi va davlat mulki bilan
- d. davlat mulki va hudud birligi bilan

16. Davlat ichki bozorda qarz oluvchi sifatida bo'lsa

- a. kredit resurslar narxi oshadi
- b. kredit resurslar narxi pasayadi
- c. kredit resurslar narxi o'zgarmaydi
- d. barcha javob to'g'ri

17. Xalqaro hisob-kitoblar samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar

- a. qarz to'lanishi zarur bo'lgan valyuta
- b. ishtirokchilarni to'lov qobiliyati
- c. kelishuv shartlari
- d. to'g'ri javob yo'q

18. Inkassa to'loagini kamchiliklari

- a. importyor olingan tovarga to'laydi
- b. inkassa operatsiyalar xarajatlari nisbatan katta emas
- c. importyor to'loagini amalga oshirishdan voz kechishi mumkin
- d. bank to'lov tezlashtirish uchun hech qanday vositaga ega emas

19. Davlat krediti funktsiyalari
 - a. fiskal, qayta taqsimlash va tartibga solish
 - b. nazorat, tartibga solish, rag'batlantirish
 - c. nazorat va tartibga solish
 - d. nazorat, tartibga solish va qayta taqsimlash
20. Davlatning kredit reyting ko'rsatkichini ko'tarilishiga ta'sir etadi
 - a. joriy tashqi qarz miqdori
 - b. asosiy tashqi qarz miqdori
 - c. tashqi qarz muddati
 - d. to'g'ri javob yo'q

Xalqaro fond (qimmatli qog'ozlar) bozori

1. Xalqaro fond bozori mavjud bo'lishining asosiy iqtisodiy belgilari quyidagilar hisoblanadi:
 - a. mamlakatlar o'rtasida kapitalning qimmatli qog'oz shaklida ko'chishi
 - b. mavjud milliy fond birjalari negizida qimmatli qog'ozlar bilan xalqaro savdo markazlarining mavjudligi
 - c. bitta, yagona mamlakat yurisdiktsiyasi ostiga tushmaydigan xalqaro qimmatli qog'ozlarning mavjud bo'lishi
 - d. barcha javoblar to'g'ri
2. Xalqaro fond bozori quyidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:
 - a. qayta taqsimlash, xedjirlash, spekulyativ, xalqaro unifikatsiya
 - b. qayta taqsimlash, spekulyativ, xalqaro xedjirlash, xalqaro diversifikasiya
 - c. spekulyativ, qayta taqsimlash, sug'urta, xalqaro diversifikasiya
 - d. qayta taqsimlash, kumulyativ, xalqaro diversifikasiya, xalqaro xedjirlash
3. Qimmatli qog'oz quyidagi shartlar bajarilsa xalqaro bo'ladi:
 - a. emitentning mamlakatidan tashqarida joylashtirilsa;
 - b. emitentning milliy valyutasidan farqli valyutaga sotilsa;
 - c. chet el investori tomonidan sotib olinsa;
 - d. barcha javoblar to'g'ri.
4. Evroobligatsiyalar to'g'risidagi quyidagi fikrlardan qaysi biri xato?
 - a. evroobligatsiyalar xalqaro sindikat anderrayterlar tarkibiga kiruvchi turli mamlakatlarning investitsion banklari (kompaniyalar) tomonidan bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi
 - b. evroobligatsiya joylashtirilgan mamlakatlarda dastlabki davlat ro'yxatiga olinmasligi
 - c. xorijiy fond bozori bo'yicha etarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmay turib, boshqa mamlakat bozoriga chiqish imkoniyatining mavjudligi
 - d. evroobligatsiya bir vaqtning o'zida bir necha mamlakatlar yoki fond bozorlarida joylashtirilishi

5. Xalqaro fond bozori instrumentlari tarkibi.

- a. qarzdorlikka oid
- b. veksellar
- c. aktsiyalar
- d. depozitar tilxatlar

6. Xalqaro fond bozorining qarzdorlikka oid instrumentlariga kiradi?

- a. ADR
- b. veksellar
- c. aktsiyalar
- d. depozitar tilxatlar

7. Xalqaro fond bozorining mulkka oid instrumentlari quyidagilar kiradi.

- a. evroobligatsiyalar
- b. veksellar
- c. aktsiyalar
- d. global obligatsiyalar

8. Fond bozorida erkin aylanadigan, xorijiy kompaniya aktsiyalariga (obligatsiya) bilvosita egalik qilish shaklidagi ikkilamchi qimmatli qog'oz bu - ?

- a. Depozitar tilxat
- b. Evroobligatsiya
- c. Xorijiy obligatsiyalar
- d. Global aktsiyalar

9. Amerika depozitar tilxatlariga berilgan ta'riflarning qaysi biri noto'g'ri?

- a. milliy kompaniya aktsiyalariga nisbatan daromad darajasini yuqoriligi
- b. xorijiy aktsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri sotib olishga nisbatan risklarni minimal darajadaligi
- c. xorijiy fond bozori bo'yicha etarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmay turib, boshqa mamlakat bozoriga chiqish imkoniyatini mavjudligi
- d. olingan dividendni milliy valyutaga konvertatsiya qilish zaruriyatining mavjudligi

10. Xalqaro fond bozorining birja segmentiga qaysilar kiradi?

- a. Fond birjaları
- b. Avtomatlashtirilgan savdo tizimi
- c. Transmilliy banklar
- d. a va b

11. Xalqaro fond bozori ob'ektiga kiradi

- a. emitent

- b. investor
- c. aktsiya
- d. barcha javoblar to'g'ri

12. Xalqaro fond bozorining infrastukturasiga kiradi

- a. spred
- b. tartibga solish organlari
- c. ro'yxatga olish tarmoqlari
- d. barcha javoblar to'g'ri

13. Birlamchi qimmatli qog'ozlar birinchi emissiyasi va joylashtirishli bu-?

- a. birlamchi bozor
- b. fond bozori
- c. ikkilamchi bozor
- d. barcha javoblar to'g'ri

14. Banklar yoki nobank kompaniyalari vositachilar hisoblanadigan bozor

- a. bank model
- b. nobank model
- c. aralash model
- d. to'g'ri javob yo'q

15. Qimmatli qog'ozlarni umumbozor funktsiyasiga kiradi

- a. akkumulitsiya
- b. hisob
- c. xususiylashtirish
- d. barcha javoblar to'g'ri

16. Qimmatli qog'ozlarni xususiy funktsiyasiga kiradi

- a. akkumulitsiya
- b. qayta taqsimlash
- c. hisob
- d. barcha javoblar to'g'ri

17. Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish va saqlanishi bo'yicha huquqni kim amalga oshiradi?

- a. registrator
- b. depozitariy
- c. ishonchli boshqaruvchi
- d. barcha javoblar to'g'ri

18. Fond bozorida mijoz nomidan oldi-sotdi kelishuvini kimlar amalga oshiradi?

- a. diller
- b. broker

- c. depozitariy
- d. barcha javoblar to'g'ri

19. Chiqarilish shakli bo'yicha qimmatli qog'ozlar

- a. mulkka va qarzdorlikka oid
- b. emission va noemission
- c. oddiy va imtiyozli
- d. to'g'ri javob yo'q

20. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qimmatli qog'ozlar

- a. aktsiya, obligatsiya, veksel, konosament, warrant va boshqalar
- b. emission va noemission
- c. oddiy va imtiyozli
- d. barcha javoblar to'g'ri

Xalqaro investitsiya bozori

1. IXTTning ta'rifiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar:

- a. reinvestitsiyalanishi kerak
- b. aktsiyadorlik kapitalning kamida 10 foiziga teng bo'lishi kerak
- c. aktsiyadorlik kapitalning kamida 30 foiziga teng bo'lishi kerak
- d. inflyatsiya darajasini ortishiga olib keladi

. YuNKTAD tomondan ishlab chiqarilgan xorijiy kapital qo'yilmani rag'batlantiruvchi vositalari tasnifiga nima kiradi?

- a. fiskal imtiyozlar
- b. foiz stavkalari imtiyozi
- c. imtiyoz muddatlari
- d. to'g'ri javob yo'q

3. Moliyaviy imtiyozlar guruhiga kiradi

- a. qarzlarni subdiyalash
- b. eksport bojlarini pasaytirish
- c. investitsiya loyihalari infratuzilmasining xarajatlarini subsidiyalash
- d. soliq krediti

4. Intellektual investitsiyalar bu-

- a. patent, lizensiyalar sotib olish, NIOKR ga qo'yilma
- b. aktsiya, obligatsiya, boshqa qimmatli qog'ozlar
- c. ishlab chiqarishni kengaytirish, rekonstruktsiya
- d. investitsion kreditlar

5. Qimmatli qog'ozlar; maqsadli pul jamg'armalari; ilmiy-texnik mahsulotlar bu - ?

- a. investitsion faoliyat ishtirokchilari

- b. investitsion faoliyat hajmi
 - c. investitsion faoliyat buyurtmachilar
 - d. to'g'ri javob yo'q
6. Investorni o'z moliyaviy resurslari:
- a. byudjet kreditlari
 - b. obligatsiyalar
 - c. amortizatsiya ajratmalari
 - d. yuridik va jismoniy shaxslar pul mablag'lari
7. Xalqaro investitsiyalarni qo'yilma ob'ekti bo'yicha tasnifi
- a. real va moliyaviy investitsiya
 - b. tashqi va ichki investitsiya
 - c. to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va portfel investitsiyalar
 - d. to'g'ri javob yo'q
8. Xalqaro investitsiyalardan foydalanish xarakteri bo'yicha tasnifi
- a. tadbirdorlik va ssuda investitsiyalari
 - b. real va moliyaviy investitsiya ob'ektlari
 - c. to'g'ridan-to'g'ri xorijiy va portfel investitsiyalar
 - d. to'g'ri javob yo'q
9. Xalqaro investitsiyalarning investitsiyalash maqsadi bo'yicha tasnifi
- a. real va moliyaviy investitsiya ob'ektlari
 - b. tashqi va ichki investitsiya
 - c. to'g'ridan-to'g'ri xorijiy, portfel va boshqa investitsiya
 - d. to'g'ri javob yo'q
10. Investitsion moliyalashtirish institutlariga kiradi:
- a. banklar;
 - b. investitsion kompaniyalar
 - c. investitsion i pension fondlar
 - d. sug'urta kompaniyalari
11. Investitsion moliyalashtirish institutlariga kiradi:
- a. banklar;
 - b. investitsion kompaniyalar
 - c. investitsion i pension fondlar
 - d. sug'urta kompaniyalari
12. Portfelli investitsiyaning ustunligiga ... kirmaydi.
- a. valyuta kursini o'zgarishi hisobiga qo'shimcha daromad olinishi
 - b. milliy investitsiyaga nisbatan yuqori sifat
 - c. riskning pastligi
 - d. valyuta riski

13. Xalqaro investitsiyalarda tanloving TOP-DOWN tamoyili quyidagi ketma-ketlikka ega:

- a. qimmatli qog'ozlar turi -> aniq qimmatli qog'oz-> mamlakatlar (valyutlar)
- b. qimmatli qog'ozlar turi -> mamlakatlar (valyutlar -> aniq qimmatli qog'oz)
- c. mamlakatlar (valyutlar) -> aniq qimmatli qog'oz-> qimmatli qog'ozlar turi
- d. aniq qimmatli qog'oz-> mamlakatlar (valyutlar)

14. Xalqaro investitsiyalarda tanloving Bottom-UP tamoyili quyidagi ketma-ketlikka ega:

- a. qimmatli qog'ozlar turi -> aniq qimmatli qog'oz-> mamlakatlar (valyutlar)
